ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

**Muassis:**
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2018**

**1-son**
(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA


## TAHRIRIYAT

4 Innovatsiya – yangilikka intilish, kelajakka qadam

## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

I. Eshmamatov 7 Zamonaviy pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligiga bo'lgan talablar va uni shakllantirish masalalari

B. Raximov, Sh. Djurayev 13 Bitiruvchi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullari

F. Abdullayeva 16 Chet tilini o'qitishda lingvodidaktikaning o'rni va roli

G. Pardayeva 20 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishning samarali shakllari

A. Ismailov 24 Tarix fanida innovatsion texnologiyalarni loyihalashtirish asosida o'qitishning muhim jihatlari

N. Mamadiyeva 29 Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

G. Yusupova 33 Sog'lom tafakkur – o'quvchilarni hayotiy maqsad sari yetaklovchi omil

## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

B. Salimov 37 Ta'lim tizimida fan va innovatsion texnologiyalarning uyg'unligi

M. Rajabova 42 Umumiy o'rta ta'limda adabiyot darslari samaradorligining tayanch mezonlari

D. Ismailova 47 O'zbek tili fanini integratsiya asosida o'rganishning muhim shakllari

## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Boychiboyeva 52 Boshlang'ich sinflarda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning samarali natijalari

F. Primova 56 Oliy ta'limda modulli o'qitish tizimi va uning afzalliklari

## TA'LIMDA MENEJMENT

Z. Isaqova 61 Ta'lim muassasalarida zaxiradagi rahbar kadrlar faoliyatini takomillashtirish bosqichlari

## HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

S. Bozorov 65 Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi

## JISMONIY TARBIYA VA SPORT

U. Radjapov, F. Miraxmedov 70 Umumta'lim maktablarida milliy harakatli o'yinlarning ijtimoiy-pedagogik asoslari

## MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

O. G‘aybullayev, A. Abdumannotov 74 Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini takomillashtirish omillari

## PSIXOLOGIYA

M. Tovbayeva, G. Eshqobilova 79 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitishda psixologik yondashuv

G. Sodiqova 84 Bolaning maktab ta’limiga moslashishi va tayyorgarlik jarayoni

## KORREKSION PEDAGOGIKA

Z. Mamarajabova 90 Eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning pedagogik tizimi

## TAJRIBA MAKTABI

Sh. Qosimov 96 Amaliy kasbiy ta’limda laboratoriya ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi

A. Kenjaboyev, M. Bozorova 100 Xalq pedagogikasi – milliy tarbiyaning asosi sifatida

R. Musurmonov 105 Akademik R.X.Djurayevning ilmiy-pedagogik faoliyati

## ILMIY NASHRLAR ORQALI AXBOROT XAVFSIZLIGI

M. Baratov 110 Informatsion tahdidlarning oldini olishda huquqiy-me’yoriy ta’minotning ahamiyati

## MUSTAQILLIK YILLARI PEDAGOGIKASI

F. Tolipov 115 Tarix fanida ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish muammolari

## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Р. Хакимов 120 Теория и методы оценки образовательных результатов в условиях модернизации высшего образования

А. Нурманов, Д. Саъдуллаев 127 О повышении качества обучения русскому языку в узбекской общеобразовательной школе на основе лингвокультурологического подхода

## МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

У. Жуманазаров 133 Формирование с помощью упражнений фразеологической компетенции в будущих специалистах иностранного языка

## МУЗЫКАЛЬНОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

С. Абдирасилов 139 Применение компьютерных технологий в преподавании изобразительного искусства в современных условиях

## MAQOLALARDAGI ATAMALARGA TAHRIRIYAT IZOHI

# INNOVATSIYA — YANGILIKKA INTILISH, KELAJAKKA QADAM

Yurtimizda har bir yilga alohida nom berish va shu asosda dasturlar ishlab chiqish, aytish mumkinki, dunyoda kamyob kuzatiladigan tajribadir. So‘nggi chorak asrlik tarixni kuzatsak, mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida har bir yilga muayyan nom berilishi milliy taraqqiyotimizning yo‘l xaritasi bo‘ldi, desak aslo yanglishmaymiz.

2017-yil 22-dekabr kuni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”, deya nom berish taklifini ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. O‘tgan yillarning mantiqiy davomi sifatida 2018-yil ham yurtimiz tarixi sahifalariga yangi nom, yangidan-yangi marralar va muvaffaqiyatlar bilan bitilishiga shubha yo‘q”, deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, keng ko‘lamli islohotlarning muhim bo‘g‘ini – innovatsiyalar bugun har bir sohada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham o‘zining afzalliklarini namoyon etmoqda. Hozirgi vaqtda “innovatsiya” tushunchasi juda keng qo‘llanilmoqda.

“Innovatsiya” inglizcha so‘z bo‘lib, “innovatsion yangilik kiritish” degan ma’noni bildiradi, ya’ni tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta’riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi. Shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor tobora kuchayib bormoqda, bunday

bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Muhimi, ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy bo‘g‘inga aylanadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);

– kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);

– kelib chiqish manbayiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o‘zgarishiga olib kelsa innovatsiya degan tushuncha shakllanadi.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: innovatsiya mavjud nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo‘nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. Innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o‘zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o‘rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta’lim rivojiga hissa qo‘shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligining ijtimoiy va kasbiy muhim sifatlari nafaqat ta'lim muassasasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan bog'liqdir. Kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli o'qituvchilarning malakalari va kasbiy sifatlari zamonaviy ta'lim tizimining asosiy real talablari hisoblanadi. Innovator-pedagoglar bugungi kun ta'lim tizimining talabi bo'lib, kasbiy cho'qqilarga erishish uchun malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ta'limni chuqurlashtirish talab etiladi. O'qituvchilar o'zlarining innovatsion faoliyatini keng yoyish, yosh o'qituvchilarga o'rgatish, interfaol o'qitish usullarini ochiq darslarda namoyon qilishlari zarur. Bu o'qituvchilar o'z faoliyatlarini baholashning yangi usullarini topish, kasbiga bo'lgan qarashlarni o'zgartirish, pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'qituvchilarda kasbiy vazifalari to'g'risidagi tor tushunchalarning o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida qayd etilgan – ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish kabi vazifalar joriy yilda samarali amalga oshirilishi shubhasiz.

Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarrachalar, zamonaviy innovatsion kompyuter, super mikroelektron, biologik, gen muhandisligi, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni aynan innovatsiya – yangilikka intilish orqali bosib o'tdi.

Shuni inobatga olib, "Xalq ta'limi" jurnalining 2018-yilgi sonlarida innovatsion g'oyalarga yo'g'rilgan, innovatsion ta'lim tizimi bilan hamohang turkum tahliliy, ilmiy maqolalarni chop etishni rejalashtirdik.

Hurmatli jurnalxon, aziz ta'lim fidoyilari! Yangi yilda tahririyatimiz jamoasi sizlardan shu mavzuda dolzarb maqolalarni kutib qoladi.

* * *

*Jurnalimizning joriy yil 1-sonidan boshlab o'qituvchi-pedagoglarning talab va istaklariga binoan maqolalarda uchraydigan tayanch so'z va atamalarga tahririyat izohi berib boriladi.*

*Bu maqolalar mazmunini yanada aniqroq tushunishga, pedagoglarda uchraydigan ba'zi savollarga yechim topishga ko'maklashadi.*

**Ismoil ESHMAMATOV,**
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi
Bosh ilmiy metodik markaz bo‘lim boshlig‘i

# ZAMONAVIY PEDAGOGNING AXBOROT-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGIGA BO‘LGAN TALABLAR VA UNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Annotatsiya**

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim sohasiga samarali qo‘llash maqolaning asosini tashkil etadi. Shuningdek, muallif talabalarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

**Kalit so‘zlar.** Innovatsiya, internet-resurs, integratsiya, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kreativlik, masofaviy ta’lim, motivatsiya.

В результате применения современных информационных-коммуникационных технологий в сфере образования у студентов формируются определенные знания и навыки по их эффективному использованию, что в свою очередь поднимает уровень профессиональной компетентности педагогов.

**Ключевые слова.** Инновация, интернет-ресурс, интеграция, интерактивный, компетенция, профессиональная компетентность, креативность, дистанционное обучение, мотивация.

As a result of using modern information and communication technologies in education students have opportunity to develop certain knowledge and skills in effective use of ICT, which in turn raises the level of professional competence of teachers.

**Key words.** Innovation, internet resource, integration, interactive, competence, professional competence, creativity, distance learning, motivation.

Ta’lim, o‘quv vaziyatidan real hayotga o‘tish deb nomlangan individual faoliyat substrati hisoblanadi. Bunda ta’lim muhiti nafaqat shart-sharoitlar ko‘rinishining namunasida, balki ta’lim-tarbiya vositasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Agarda, ta’lim muhitining ijtimoiy, fazoviy predmetli va psixologik, didaktik komponentlarini dialektik o‘zaro aloqadorlik jarayon hisoblanishini inobatga olsak, pedagogik maqsad o‘z koordinatalariga ega ekanligi namoyon bo’ladi.

Pedagog axborot texnologiyalari muhitida faoliyat yuritishi davomida matnli, audio-video, biper matnli qo‘llanmalar, grafik illyustratsiyalar, o‘quv kompyuter dasturlari, modellashtirilgan dasturlar, avtomatlashtirilgan laboratoriyalardan foydalanishi shartligini inobatga olsak, har bir koordinata ma’lum bir kompetensiyani ta’minlovchi tarzida idrok etish maqsadga muvofiqdir. Axborot texnologiyalari muhiti pedagogning yangi

funksional rolini belgilab beradiki, mavzu boʻyicha oʻrganilgan manbalarning xulosaviy tasdigʻi tarzida quyidagilarni koʻrsatib oʻtish mumkin. Ya'ni pedagog:

a) ta'limiy axborotni hamda manbalarni saralovchi;

b) ishlab chiqarish va ta'lim muassasasi orasidagi muvozanatni ta'minlovchi;

d) bilish jarayoni koordinatori;

e) oʻtilayotgan fan (predmet)ning korrektori;

f) individual oʻquv rejasini tuzishda maslahat beruvchi, yoʻnaltiruvchi;

g) oʻquv loyihalar va oʻquv rejalarining rahbari hamda baholovchisi;

h) boʻlajak mutaxassisni shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantiruvchi;

i) oʻquv faoliyatini rejalashtiruvchi-boshqaruvchi va boshqalar.

"Jamiyat taraqqiyoti kvalifikatsiyalashtirilgan mutaxassislar sonini koʻpaytirishni talab etadi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda uning barcha a'zolari, shu jumladan, imkoniyati cheklanganlarning tengligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hammabop ta'limga talab ortib bormoqda". Bu holat, oʻz navbatida, pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetentlikni shakllantirishni talab etadi, chunki ta'limda axborot-kommunikativ texnologiyalarini tatbiq etishning quyidagi obyektiv sabablari mavjud:

• bilish jarayonini faollashtirishga qaratilgan, statistik vizual modellar va turli grafikalardan foydalanish ta'limning yangi, dinamik vizual modellarini vujudga kelishiga sabab boʻlmoqdaki, bu, oʻz navbatida, kasbiy-pedagogik faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan pedagogik faoliyatning diagnostik, moʻljallash-prognostik, konstruksiyalash-proyektlash, tashkiliy, informatsiyaviy-sharhlash, kommunikativ-ragʻbatlantirish, analitik-baholash, ijodiy kabi funksiyarni bajarishni ta'minlaydi;

• soʻnggi yillarda ta'limda multimedia texnologiyalarining qoʻllanilishi, semantik va ontologik metodlar yordamida oʻtkazililishi kuzatilmoqda, natijada pedagog va talabalar axborot-kommunikativ texnologiyalardan oʻz faoliyatlari doirasida intensiv tarzda foydalanib kelmoqdalar, birinchilar sotsiumni virtualizatsiyalashtirishga doir boʻlgan kompetensiyalarni egallashlari lozimki, avlodlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash buni taqozo etadi;

• ta'limda multimediyaviy texnologiyalarni qoʻllash, informatsion aloqadorlikni ta'minlashning namunasi hisoblanib, pedagog shaxsidan ta'lim oluvchilarning kognitiv sathini kengaytirishni taqozo etadi. Ya'ni, ta'limiy informatsiyalar aloqadorligining aniq meyorlarini grafika va diagrammalar yordamida asoslab berishni talab etadi;

• jahon hamjamiyatida informatsiyaviy aloqadorlik makoni, tarmoqli jamiyatlar, ta'limiy tarmoqlar kabi yangi realliklarning vujudga kelishi funksionalligi jihatidan ularni ta'lim tizimiga kiritishni taqozo etadi. Aks holda, ta'lim instituti boshqa mamlakatlarning ta'limidan orqada qoladi. Informatsiyaviy aloqadorlik makoni, tarmoqli jamiyatlar va ta'limiy tarmoqlardan foydalanish esa, pedagoglardan alohida tayyorgarlikka ega boʻlishni talab etadi, shuningdek, ular qatorida axborot-kommunikativ kompetentlik dominant hisoblanadi.

Zamonaviy axborot talim muhitini yaratish murakkab hamda ta'lim prinsiplariga amal qilgan holda bajarishni talab etuvchi vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishni tashkiliy-pedagogik va metodologik jihatlari mavjud boʻlib, birinchisi ta'limni texnik asosi modernizatsiyasini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchising, pedagoglarni individual ta'lim berish texnologiyasi asosida faoliyat yuritishlarini ta'minlashdan iborat. Buning uchun ta'lim muhitining yaxlit – tizimli effektini ta'minlashga erishish lozim. Uzluksiz ta'lim darajasida ta'limni mehnat bozorining talab va takliflari asosida kompleks vazifalarini belgilab, shaxs va jamiyatga kerak boʻladigan qobiliyatlarning

rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarur. Uning amaliy yo'nalishlari Yevropa Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan Simpozium materiallarida o'z ifodasini topgan.

Ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi pedagoglar oldiga yangi vazifalar, mamlakat taraqqiyotini ta'minlash yo'lida faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni kamol toptirish vazifasini qo'ymoqda. Bu asnoda, ayrim tadqiqotchilar pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablarni quyidagicha ko'rsatib o'tgan:

– dars berish mahorati;

– tarbiyalash mahorati;

– o'quv-tarbiya jarayonida insonparvarlik tamoyillariga yondashuvni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar;

– ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati shular jumlasidan. Bizningcha, kasbiy-pedagogik kompetensiyalar, bu pedagog shaxsida mujassamlashgan xususiy tarkibdan iborat majmua hisoblanadi. Uni faqat ta'kid tarzida axloqiy sifatlarning soni ko'rsatkichi ko'rinishida belgilab berishning o'zi kifoya emas.

Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikativ texnologiyalarini intensiv tarzda joriy etilishi natijasida ilgari ta'limda mavjud bo'lmagan bir qator yangi realliklar vujudga keldi. Ularning qatorida virtual kafedra va laboratoriyalarning yaratilganligini alohida ko'rsatib o'tishimiz mumkinki, bu yana bir bora pedagog shaxsida axborot-kommunikativ kompetentlikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish masalasi pedagogik tadqiqotlarning oldida turgan vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Virtual kafedra barcha auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi o'quv ishini amalga oshiradi. Bunda ma'ruzalar, shu jumladan, patokli auditoriyadagi ma'ruzalar, tarmoqli sinflar uchun ma'ruzalar, tele va video ma'ruzalarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Faqatgina axborot-kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan pedagoggina ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ishtirok eta oladi. Shuningdek, amaliy ishlar, shu jumladan, barcha texnologik muhitlarda seminar va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv-mashq xonalari va firmalarda mashg'ulotlar o'tkazish, talabalarni mustaqil ishlarini tashkil qilish, doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga maslahat berish, elektron pochta yordamida o'quv konferensiyasini tashkil qilish, o'quv-nazorat tadbirlarini on-line va tele-video-konferensiya rejimida o'tkazish kabilarni inobatga olsak, malaka oshirish jarayonida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish lozim bo'ladi. Ta'kidlashicha, zamonaviy intellektual masofaviy platformalar faqatgina an'anaviy ta'lim formalarini almashtirishni emas, balki talaba va pedagoglar uchun yangi informatsion imkoniyatlarni yaratadi. Bu, o'z navbatida, zamonaviy pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, axborot-kommunikativ kompetentlikni shakllantirish (rivojlantirish) manbalarini belgilab olish. Bunda manba sifatida ta'lim sohasida qo'lga kiritgan mahalliy va jahon tajribasidan, milliy pedagogikaning (etnopedagogikaning) g'oyalaridan, pedagogik ta'lim sotsiologiyasi va psixologiyasi fanlarining yutuqlaridan, jahon hamjamiyatida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning madaniy mazmunidan hamda yangi pedagogik tafakkur shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillarni tanlash lozim. Ikkinchi navbatda, pedagogik faoliyat dinamik mazmun kasb etishini inobatga olib, zamonaviy pedagogning portretini ishlab chiqish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, kasbiy-pedagogik faoliyatni turli darajalarda (individual, guruhli) takomillashtirish uchun uslubiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'rganilgan adabiyotlarning xulosaviy ko'rinishi sifatida pedagog portretining tarkibiy qismlarini nazariy modelini keltiramiz:

• pedagog shaxsning ehtiyojlari sohasi;

• pedagog shaxsning bilim orttirish jarayonlari;

• pedagog shaxsining turli pedagogik muammolar bo‘yicha yechimlarni qabul qilish uslubi;

• pedagog shaxsining favqulodda vaziyatlarda namoyon bo‘ladigan fe’l-atvori;

• pedagog shaxsining mutaxassis sifatida o‘zini namoyon etish uslubi;

• pedagogni shaxslararo munosabatlarda qo‘llaniladigan uslubi;

• pedagog shaxsining kasbiy xulq modelining tavsifi;

• pedagog shaxsining his-tuyg‘ulari ifodalanishi kabilar o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq.

Zamonaviy pedagog didaktik qobiliyatlarga (ta’limiy materiallarni, kasbiy axborot va bilimlarni yetkaza olishda namoyon bo‘ladi), akademik qobiliyatlarga (fanning aniq sohasiga oid ijod qilish, tahlilni amalga oshirishda ifodalanadi), perseptiv qobiliyatlarga (talabaning ichki dunyosini bila olishda ko‘rinadi), nutqiy qobiliyatlarga (o‘z fikrini aniq dalillar asosida bayon etish, shu jumladan: mimika va pantomimika yordamida munozara yurita olishda kuzatiladi), tashkiliy qobiliyatga (talabalar jamoasini shakllantira olishda ko‘rinadi), avtoritar qobiliyatlarga (talabalarga hissiy-irodaviy ta’sir ko‘rsata olishda ifodalanadi), kommunikativ qobiliyatlarga (talaba va kasbdoshlar bilan muloqotga kirisha olishda kuzatiladi), pedagogik tasavvurga yoki prognostik qobiliyatlarga (talabalar va o‘zining harakatlari oqibatini ko‘ra bilishda ifodalanadi), diqqatni taqsimlay olish qobiliyatiga (bir vaqtda turli faoliyatni ajrata olishda namoyon bo‘ladi) ega bo‘lishini inobatga olsak, bunda pedagog shaxsi portretining mukammal formasini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Pedagogik portret nafaqat malaka oshirish jarayonida pedagog bilan individual tarzda ishlashda, balki pedagogik korreksiya o‘tkazish va mustaqil tarzda kasbiy bilimini oshirish uchun foydali hisoblanadi. Fikrimizcha, portretda kasbiy kompetentlik majmuasi ham o‘z aksini topishini ta’minlash lozim. Shundagina malaka oshirish yoki pedagogik jamoalarni boshqarish amaliyotida undan amaliy foydalanish uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Pedagog shaxsining portretida (1-chizma) uning individual, ma’naviy, kasbiy va ijtimoiy kabi asosiy ko‘rinishi o‘z ifodasini topsagina portret mukammal hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, kasbiy kompetensiyalarni, shu jumladan, axborot-kommunikativ kompetentlikni o‘rganishda aniq kasb tanlanib, kasbiy, shaxsiy va milliy qadriyatlarni belgilash uchun mo‘ljallangan testlardan, milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashga mo‘ljallangan so‘rovnomalardan va kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishni baholashga qaratilgan metodikalardan foydalangan holda tadqiqot o‘tkazish lozim. Bu usullardan vosita sifatida foydalanib, jamlangan ma’lumotlarni tahlil etishda etnopedagogika namunalaridan ham foydalanilsa, ifodalanmagan milliy-madaniy xususiyatlarni belgilashga erishish mumkin bo‘ladi.

Ta’limda axborot-kommunikativ texnologiyalarni intensiv joriy etilishi kuzatilayotgan bir davrda zamonaviy pedagog quyidagi pedagogik talablar majmuasini amaliyotda bajara olishi lozim:

– ta’lim va talaba munosabatini shaxsni rivojlanishini ta’minlash nuqtayi nazari asosida mutanosibligini ta’minlay olishi;

– talaba tomonidan axborotni bilim shakliga keltirish jarayonini boshqarishi;

– talabalar o‘quv faoliyatining motivatsiyasi va uni rivojlantirishni ta’minlashi;

– talabalar o‘quv faoliyatini (ehtiyoj, motiv, ustanovka, harakat) strukturaviy-funksional tahlilini amalga oshirishi;

– talabani uzluksiz va mustaqil tarzda ta’lim olishini ta’minlashi;

– ta’lim jarayonida muhim kasbiy sifatlarni shakllantirishi;

– ta’limiy elektron axborot manzillarining elektron bazasidan foydalanish usulini amaliyotda qo‘llay olishi;

– talabalarni o‘zlashtirish darajasini ekspress baholab, individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda o‘quv topshiriqlarini tanlab topshirishni;

– axborotlar maydonidan kasbiy axborotlarni saralab olish ko‘nikmasini shakllantira olishi lozim.




**1-chizma. Pedagog shaxsi portretini tayyorlash namunasi**

Zamonaviy pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligiga bo‘lgan talablar majmuasini belgilashda “O‘quv jarayonini pedagogik loyihalash va boshqarish”, “Ta’lim jarayonida nazorat va uning funksiyalari”, “O‘quv faoliyatining motivatsiyasi va uni rivojlantirish”, “Ta’limni faoliyatli nazariyasi va tarixi”, “O‘quv faoliyatining pedagogik va psixologik tahlili”, “Uzluksiz va mustaqil ta’lim nazariyasi” kabi pedagogik g‘oyalar asosida yondashish tavsiya etiladi. Bu, o‘z navbatida oliy ta’limda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida tinglovchilar uchun “Pedagogik kompetensiyalarni egallash texnologiyasi” nomli modulni joriy etishni taqozo etadi va u quyidagi texnologik maqsadlarga qaratilgan bo‘lishi lozim:

– kasbiy-pedagogik yaratuvchanlikni ta’minlashga erishishga. Bunda ijtimoiy-pedagogik, tashkiliy-pedagogik, intellektual-kognitiv, maxsus kasbiy kabi tayyorgarliklarga erishish kasbiy maqsad sifatida belgilanadi (bu tayyorgarliklar, turli xil pedagogik guruh a’zolariga ta’lim maqsadidan va pedagogik faoliyat vazifalarini bajarish uchun verbal, noverbal va psixolingvistik ta’sir ko‘rsatishni ta’minlash uchun zarur hisoblanadi. Buning uchun har bir pedagog o‘ziga: “Talabalarim mendan (ta’lim beruvchi sifatida) nimani kutishadi?”, “Pedagogik jamoamga men (mutaxassis sifatida) qaysi yutuqla-

rimni koʻrsata olaman?" – degan savollarni nafaqat ilmiy seminar va ochiq darslarning muhokamasigacha, balki har bir model tugatillangandan soʻng oʻziga berishi lozim):

– kasbiy-pedagogik axborotlarni tanlash va saralashga erishishga. Kasbiy-pedagogik bilimlar doirasini yangi tadqiqotlarning natijalari bilan kengaytirib borishni kasbiy qadriyat sifatida mujassam etish (Talabalar turli axborot manbalaridan oʻzlashtirilayotgan predmetga oid axborotlarni qidirishadi. Afsuski, koʻp hollarda ular "Kerakli", "Kerak boʻlib qolar" va "Kerak boʻlmaganda Ahamiyatsiz" axborotlarni ham qoʻlga kiritadi. Shu sababli, pedagog ta'limning maqsadidan kelib chiqqan holda "Birlamchi" va "Ikkilamchi" manbalarning mavjudligidan (ularning mazmunidan) xabardor boʻlib, axborot va uning manbasini klassifikatsiyasini amalga oshirish texnikasiga ega boʻlishi lozim);

– kasbiy-pedagogik hurmatga erishishga. Kasbiy mahoratni oshirish yoʻli bilan pedagogik guruhlarni bilim olishga qiziqishlarini oshirish asosida hurmatga erishish (jamoa a'zolarini ta'limiy axborotlarni oʻzlashtirish hamda talabalarni oʻquv motivatsiyasini inobatga olib, ularni klassifikatsiya etish lozim. Bu yondashuv, oʻz navbatida, mustaqil tayyorgarlik uchun tavsiya etiladigan mavzular va adabiyotlarni talabani qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tavsiya etishni ta'minlaydi);

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagoglarni jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda real ishtirok etishini inobatga olib, ularga axborot-kommunikativ kompetentlikning motivatsiyaviy, kognitiv, loyihalash komponentlarini shakllantirish kabi pedagogik gʻoya asosida yondashilsa, pedagogik faoliyatning istiqbolga qarata loyihalash jarayonining takomullashuvi ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. *Коммуникативные и образовательные возможности современных технологий. Сборник материалов и докладов III всерос. науч.-практ. конф. Екатеринбург, 8 мая 2016 г. // ИОЦ "Инфометод". Екатеринбург, 2016. – С. 154. Искусственный интеллект: философия, методология, инновации. Сборник трудов VIII Всероссийской конференции студентов, аспирантов и молодых учёных. Часть II. Секции 6-8. г. Москва, МГТУ МИРЭА, 20-22 ноября 2014 г. Под общей редакцией Е.А. Никитиной. – М.: Радио и Связь, 2014. – С.184.*
2. *Булатова Ю. И. Активизация учебно-познавательной деятельности студентов вузов // Ж. Педагогика высшей школы и профессионального образования, 2012. № 3 (5). – С. 8-11.*
3. *Беспалько В. П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд. МПСУ, 2002. – С. 352 .*
4. *Лекторский В.А., Кудж С.А., Никитина Е.А. Эпистемология, наука, жизненный мир человека // Ж. Вестник МГТУ МИРЭА. 2014. №2 (3). – С.112.*

**Baxtiyor RAXIMOV,**
Guliston Davlat universiteti o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari doktori
**Shoxujaxon DJURAYEV,**
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 4-bosqich talabasi

# BITIRUVCHI TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

**Annotatsiya**

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlari va samaradorlik darajalari yoritilgan. Shuningdek, mualliflar ixtiyoriy, nazorat qilinadigan mustaqil ishlarning tahlili bo‘iyicha o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan.
**Kalit so‘zlar.** Mustaqil ish, bilim, ko‘nikma, malaka, uzluksiz ta’lim, omil, ixtiyoriy nazorat, samaradorlik.

В статье раскрыты теоретические и практические аспекты, организации самостятельной работы будущих учителей, обозначен уровень её эффективности. Также авторами даны рекомендации по анализу и контролю самостоятельных работ.
**Ключевые слова.** Самостоятельная работа, знание, навыки, умения, непрерывное образование, фактор, факультативный контроль, эффективность.

Article reveals theoretical and practical aspects of the organization of independent work of future teachers, and indicates the level of its effectiveness. The authors also gave recommendations on the analysis and control of independent works.
**Key words.** Independent work, knowledge, skills, continuous education, factor, facultative control, efficiency.

Ta’lim samaradorligini oshirish, davlat ta’lim standartlarining bajarilish sifatini ta’minlash hozirda jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim oldida turgan vazifalarni hal etish bevosita o‘qituvchi faoliyatiga, uning faolliligiga, bilim oluvchilarni ta’lim jarayonida faollashtirish layoqatining yuqori darajada ekanligiga bog‘liqligi aniqlandi. O‘qituvchi o‘quvchilarni bilim egallashda faollashtiradigan, barcha uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, ta’limning turli xil vositalarini va vaziyatlarini izlaydi. Ulardan foydalangan holda pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Bilim oluvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatib, ijodiy izlanishga yo‘naltiradi.

Yangi avlodni yangicha ruhda tarbiyalash, yangicha yashashga, fikr yuritishga o‘rgatish zarurligi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan asoslab berildi. Buning uchun esa, ta’lim tizimining mazmunini yangilash, yangicha boshqarish, yangicha qurish, isloh etish zarur edi. Shu munosabat bilan fanni o‘qitishdagi an’anaviy usullardan noan’anaviy usullar ta’limning qiziqarli, faol usullari, yangi innovatsion usullariga o‘tish orqali pedagogik jarayonlar o‘zgartirildi.

Ta’lim jarayonida mustaqil ishlarning asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligida va nazorati ostida o‘quvchi-talabada muayyan o‘quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ish muayyan fandan o‘quv dasturda belgilangan hamda bilim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismi bo‘lib, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki undan tashqarida bajariladi. Shuningdek, bilim oluvchilar mustaqil ishini bajarish yuzasidan tegishli tavsiyalar beriladi. Mustaqil ishlar bilim oluvchining umumiy rivojlanishiga xizmat qilishi zarurdir.

Bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil ishi – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

O‘qishning boshlang‘ich bosqichlarida bo‘lajak o‘qituvchining mustaqil ishini tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog‘liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta’limning navbatdagi turi – oliy ta’lim talablariga ko‘nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta’lim olish jarayonida o‘z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma’lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o‘z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash ular uchun katta muammo bo‘ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta’lim olishga ruhan tayyor bo‘lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o‘qituvchi dastlab talabada o‘z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg‘otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgatib borishi lozim. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta’limga ko‘nika boshlagan talaba faqat o‘qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o‘zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o‘zi zarur deb hisoblagan qo‘shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o‘zlashtirishga o‘rganib boradi.

Mustaqil ishning turlari: adabiyotlar bilan ishlash, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, uy ishlarini bajarish, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish, fanning mazkur bo‘limi bo‘yicha nazorat ishlarini bajarish va h.k.

Mustaqil ishlar fan va mazmun jihatidan DTS, o‘quv fanining ishchi dasturi hamda darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari va uslubiy ko‘rsatmalarning mazmuni bo‘yicha aniqlanadi.

Mustaqil ish o‘quvchi tomonidan yangi bilimlar va ko‘nikmalarga o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz faol va maqsadga yo‘naltirilgan holda ega bo‘lish usulidir.

Mustaqil ish shartli ravishda ixtiyoriy va nazorat qilinadigan turlarga bo‘linadi.

Ixtiyoriy mustaqil ish – bilim oluvchinig auditoriyada o‘tiladigan mashg‘ulotlarda tayyorlanishini ta’minlaydi. Bunday tayyorgarlikning natijasi o‘quvchining darslaridagi faolligi va u tomonidan bajariladigan nazorat ishlar, nazorat topshiriqlarida o‘z aksini topadi.

Nazorat qilinadigan mustaqil ish – bilim oluvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, o‘quv fanidan mavjud muammolar bo‘yicha analitik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Nazorat qilinadigan mustaqil ish turi o‘qituvchi tomonidan tuzilgan reja asosida amalga oshiriladi va o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. Bilim oluvchilarning bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakllanadi.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish – fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalangan holda ushbu mavzuni konspektlashtirib, tayanch iboralarning mohiyatini anglaydi va mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlashadi. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahat olishadil.

Ba'zi olimlar mustaqil ishlar deganda, o'qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati ostida bajariladigan vazifalarni tushunishsa, boshqalari bilim oluvchilardan faol aqliy faoliyatni, tashabbuskorlikni, avval olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni talab qiladigan ishlar deb bilishadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, bizningcha, mustaqil ishlar bilim oluvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, ularning ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo'lib, bilim oluvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli faoliyatdir.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ishlar tasnifiga oid bir qancha qarashlar mavjud. Metodist olimlar guruhlarga ajratishda mustaqil ishlarning u yoki bu jihatlariga e'tibor qaratishgan.

Masalan, N.G.Kazanskiy va T.S.Nazarovalar mustaqil ishlarni didaktik maqsadlariga ko'ra 3 guruhga ajratadilar:

1. Yangi materiallarni qabul qilishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar.
2. Yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar.
3. Mahorat va malakani mustahkamlash, bilimlarni kengaytirish va shakllantirishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar.

Faoliyat mazmuni bo'yicha ham mustaqil ishlarni 3 guruhga ajratadilar:

1. Berilgan namuna bo'yicha mustaqil ishlar.
2. Qoida asosidagi mustaqil ishlar.
3. Ijodiy mustaqil ishlar.

Bu tasnif mustaqil ishlar mazmuni va o'quv-biluv faoliyati mazmunini o'zida aks ettirgan.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan mustaqil ishlarni tavsiflashda faoliyat mazmuniga asoslandik. Ya'ni:

– reproduktiv mustaqil ishlar;
– rekonstruktiv mustaqil ishlar;
– ijodiy mustaqil ishlar.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida bilim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, ongli faoliyat yuritishga o'rgatish kelajakda ularni jamiyatimiz, davlatimiz taraqqiyoti uchun zarur, barkamol shaxs sifatida shakllanishida bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi shaxsi kasbiy faoliyati bilan bir qatorda yuksak kasbiy tajriba va madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. 64-b.*

*3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015. 304-b.*

*4. Джураев Р.Х., Шегай И.Л. Роль образования в формировании гармонично развитого поколения в условиях глобализации экономики // журнал "Узлуксиз таълим". – Т., 2013. №6. – С.45-48.*

**Feruza ABDULLAYEVA,**
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

# CHET TILINI O'QITISHDA LINGVODIDAKTIKANING O'RNI VA ROLI

**Annotatsiya**

Maqolada ingliz tilini professional muloqot vositasi sifatida lingvodidaktik jihatdan tadqiq qilishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Tilni lingvodidatik – nazariy, amaliy-nazariy va amaliy o'rganilishi chet tiliga o'rgatishning asosiy muammolaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar.** Lingvistika, metodika, lingvodidaktika, muloqot, nazariya, kasbiy kompetentlik, qobiliyat, ko'nikma, vosita, usul.

В статье рассматриваются лингводидактические аспекты изучения английского языка как средства профессинальной коммуникации. Лингводидактическое теоретическое и теоретико-практическое изучение иностранного языка является одной из основных проблем преподавания иностранных языков.

**Ключевые слова.** Лингвистика, методика, лингводидактика, коммуникация, теория, профессиональная компетентность, способность, навык, средство, метод.

Article deals with linguodidactic aspects of studying English as a means of professional communication. Linguodidactic theoretical and theoretical-practical study of a foreign language is one of the main problems of teaching foreign languages.

**Key words.** Linguistics, methodology, linguodidactics, communication, theory, professional competence, ability, skills, means, method.

Ma'lumki, mamlakat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar til leksik tarkibining ham sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. Mazkur jarayonlar, ayniqsa, uning terminlar tizimida o'z ifodasini topdi. So'zlovchilarning lisoniy kompetensiyasi oshishi va tilning demokratizatsiyalashuvi terminlarning ommaviy kommunikantlar nutqiga kirib borishini yuzaga keltirdi. Tabiiyki, mazkur jarayonlar leksik tizimning sifat tarkibiga va rivojlanish sharoitlariga ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Lingvistika ortidan tilga keng ma'noda o'rgatishning qonuniyatlariga lingvodidaktika ham murojaat qiladi va o'z oldiga tilni o'qitish jarayonida egallash modelining tuzilishi va mazmunini ta'riflash vazifasini qo'yadi.

Lingvistika chet tiliga o'qitish metodikasiga nisbatan bazaviy fan hisoblanadi. Shu boisdan chet tiliga o'qitishning har qanday metodik tizimi tilning lingvistika fanida uning har bir aniq rivojlanish davrida mavjud bo'lgan obrazi negizida quriladi.

Lingvodidaktika va metodika o'rtasidagi munosabatlar nazariya va amaliyot o'rtasidagi munosabatlar emas. Lingvodidaktika insonning chet tilida muloqot qilish qobiliyatlari va ularni shakllantirish usullariga oid umumiy qonuniyatlarni ta'riflaydi. Bir qator olimlar lingvodidaktikani o'qitish sharoitlarida tilni egallashning umumiy nazariyasi deb

hisoblashi bejiz emas. Metodika lingvodidaktik qonuniyatlarni amalda qo'llaydi, ularni pedagogik qonuniyatlar pozitsiyasidan turib o'zgartiradi va aniq darsliklar, mashg'ulotlar tizimi, o'qitish vositalari hamda o'quv jarayonida amalda qo'llaydi.

Pedagogik psixologiya va lingvodidaktikaning jihati – til o'rganishning turli jihatlari bo'lib, ular til bilan turli qarashlardan kelib chiqqan holda shug'ullanadi. Pedagogik psixologiyani til yordamida o'qitish muammolari qiziqtiradi, bu esa har doim ham tilning o'ziga o'qitishni nazarda tutmaydi, u xoh ona tili, xoh chet tili bo'lsin. Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan til o'zlashtirilayotgan chet tilidagi o'quv jarayonida kommunikatsiya vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu har ikkala qarash bir-birini to'ldirishi mumkin, chunki ulardan har biri o'qitish jarayoni bilan bog'liqdir.

Lingvodidaktik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri ona tili va o'rganilayotgan tillarning mikrotizimlarini taqqoslash asosida tilni egallashning turli darajalari uchun talaffuz, leksik va grammatik minimumlarni aniqlashdan iborat bo'lib, ular mikrotizimlarining barcha asosiy jihatlarini aks ettiradi.

O'qitish jarayonida ona tilining lisoniy darajasi bilan bir qatorda o'rganilayotgan tilning nutqiy darajasi shakllanadi.

"Lingvodidaktika – bu tillarga o'rgatish nazariyasi, lingvistika va didaktikaning integratsiyalashuvi" [1].

I.Xaleyeva fikriga ko'ra, lingvodidaktika, pedagogik fanning shunday bir tarmog'iki, u ta'lim, o'qitish, o'rgatishning mazmunga oid komponentlarini til tabiati va muloqot tabiati bilan bog'liqlikda asoslaydi. Agar shunday bo'lsa, unda professional lingvodidaktika pedagogika fanining shunday tarmog'iki, u mutaxassislarni chet tiliga o'qitishning mazmunini asoslaydi.

A.B. Builyev lingvodidaktikani chet tillariga o'qitish nazariyasi va amaliyoti deb atab, u tillarga o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, deya ta'kidlagan. Tadqiqotchi, talabaning lisoniy shaxsi rivojlanuvchi xususiyatga egaligini qayd etgan[2].

Bularning barchasi N. D. Galskova pozitsiyasini tasdiqlaydi, qaysiki lingvodidaktika fan sifatida lisoniy shaxsning lingvokognitiv tuzilishini anglashi va ta'riflashi lozim, uning rivojlanishi qonuniyatlarini asoslashi, shuningdek, ham o'zlashtirish, o'qitish obyektining o'ziga xos jihatlarini, ham bu jarayonning barcha subyektlarining o'zaro ta'sirini asoslashi lozim deb hisoblaydi[3].

A.S. Markosyan lingvodidaktika deganda tilni o'qitish maqsadlari uchun ta'riflash tamoyillarini tushunadi. Uning fikricha, lingvodidaktika – bu o'rganilayotgan tilni ta'riflash modellarini qurish nazariyasi, qaysiki o'quv jarayonida ishlatish uchun mo'ljallangan.

Bu qatorda I. Xaleyeva tomonidan berilgan ta'rif markaziy hisoblanadi. Uning fikricha, lingvodidaktika chet tillariga o'qitish nazariyasining metodologik jihati hisoblanadi va bu jarayondan turli natijalar olish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Lingvodidaktika markazida lisoniy shaxs turgan chet tillariga o'qitish modelini shakllantirishga oid obyektiv qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. [4]

R.K. Minyar-Beloruchev lingvodidaktika chet tillariga o'qitishning nazariy va amaliy metodikasini qamrab olgan mustaqil fan va uning bosh vazifasi chet tiliga o'qitishning

---

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/

[2] Буилев А.Б. Профессиональное владение иностранными языками -пререквизит Болонского процесса // www/портал auditorium.ru

[3] Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Линводидактика и методика. – М.: Academa, 2004. – С.334.

[4] Крупченко А.К. Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании. Дис…..канд.пед.наук. – М., 2007.

nazariy va amaliy uslubiyatini ishlab chiqishdan iborat, deb hisoblaydi. Shuni hisobga olsak, professional lingvodidaktikaning bosh vazifasi chet tiliga kasbga yo'nalgan tarzda o'qitish amaliyotini ilmiy asoslash va mutaxassislarni chet tiliga o'qitish metodikasini ishlab chiqishdan iborat, deyish mumkin. [5]

Tilni o'qitish metodikasida lingvodidaktika quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– ilmiy-nazariy (tilga o'qitish jarayonini tadqiq qilish);

– konstruktiv-modellashtirish (ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'zgartirish);

– integrativ (tilga o'rgatish jarayonini aniq asoslash maqsadida faylasuflar, lingvistlar, pedagoglar, metodistlar, kommunikatsiya nazariyasi va informatika bo'yicha mutaxassislarning ilmiy yutuqlarini birlashtirish).

Lingvodidaktika quyidagi vazifalarni hal qiladi:

– til ta'limi konsepsiyalari – lingvosentrik va antroposentrik yo'nalishlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

– tillarga o'qitishning mohiyatini va uning samaradorligi shartlarini ta'riflash va tushuntirish;

– tillarga o'qitishning predmetli ta'lim maqsadlari, o'quv materialini saralash va tizimlash tamoyillari, tilga o'qitish vositalari, uslub va usullari, joriy va chegaraviy nazorat shakllari va usullaridan iborat metodik tizimlarini nazariy asoslash;

– tillarga o'qitishning tashkiliy shakllarini, yangi o'qitish tizim va texnologiyalari paydo bo'lishini nazariy asoslash va anglash.

Zamonaviy lingvodidaktika o'zining markaziy kategoriyasi sifatida ikkilamchi lisoniy shaxs konseptini ilgari suradi.

Professional maqsadlarda chet tiliga o'rgatishda muloqot jarayoni bo'ladi, demak, professional lingvodidaktika kommunikatsiya nazariyasi bilan bog'liq madaniyatlararo, ishbilarmon va professional muloqotdan iborat[6].

Professional lingvodidaktikaning chet tiliga kasbga yo'naltirilgan tarzda o'qitish nazariyasi sifatida shakllanishi professional ta'limdagi yangi lingvodidaktik yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini shakllantiradi.

Professional lingvodidaktika chet tili professionalizatsiyasiga qaratilgan bo'lib, u maxsus fanga murojaatsiz amalga oshmaydiki, u haqidagi bilimlarni kengaytirish chet tili vositalari orqali sodir bo'ladi[7].

Lingvodidaktikaning eng muhim muammolaridan biri o'quv materialining o'rganilayotgan til fenomeniga mosligidan iborat, bunda terminologiyaning fan (mutaxassislik) tilining muhim tizimi sifatida funksional ta'riflash ko'rsatilgan muammoning yechimiga yaqinlashish imkonini beradi.

Lingvistika fani obyekti tildan iborat, metodika fani obyekti tilga o'rgatishdan iborat, didaktika obyektlari o'qitish va o'qish usullaridan iborat, lingvodidaktika obyekti esa tilga o'rgatishning tamoyil va qonuniyatlarini tadqiq qilishdan iborat bo'lsa, professional lingvodidaktika obyekti professional maqsadlarda til o'qitishni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

---

[5] *Минъяр-Белоручев Р.К.* Методика обучения иностранным языкам или лингводидактика?// *Иностранные* языки в школе, 1996. № 1. – С. 2-5.

[6] Крупченко А.К. Профессиональная лингводидактика//Высшее образование в России. 2006 № 5. – С.158-160.

[7] Крупченко А.К. Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании: Дис… канд.пед.наук. – М., 2007.

A.M.Novikovaning fikricha, “o‘rganish predmeti ushbu fan tomonidan o‘rganilayotgan va muayyan mantiqiy hamda belgili shakldagi xususiyatlar, aloqalar va qonuniyatlar jamlanmasidan iborat”.

Zamonaviy metodika uchun lingvistika asosiy ilmiy fan hisoblanadi. Unga tayangan holda metodika o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Bunda bir qator metodik kategoriyalarni zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan anglash zarur.

Professional lingvodidaktikaning o‘zi esa chet tiliga mutaxassislarni o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqadi va o‘zining tadqiqot predmeti chet tiliga mutaxassislarni o‘qitish bo‘yicha faoliyatni tashkil etishdan iborat, deb hisoblaydi.

Professional lingvodidaktika qonuniyatlarini aniqlashda tadqiqot shundan kelib chiqdiki, ular chet tiliga kasbga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitishni belgilovchi asosiy qoidalar – professional lingvodidaktika tamoyillarida o‘z aksini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Буилев А.Б. Профессиональное владение иностранными языками -пререквизит Болонского процесса // www/портал auditorium.ru*

*2. Вишнякова С.А. Диалог лингводидактики и гносеологии Философия образования. Сборник материалов конференции. Серия “Symposium”, выпуск 23. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2002. – С.382-397.*

*3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Линводидактика и методика. – М.: Academa, 2004. – С. 334.*

*4. Крупченко А.К. Профессиональная лингводидактика//Высшее образование в России. 2006 № 5 – С. 158-160.*

*5. Крупченко А.К. Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании. Дис…..канд.пед.наук. – М., 2007.*

*6.Минъяр-Белоручев Р.К. Методика обучения иностранным языкам или лингводидактика?// Иностранные языки в школе, 1996. № 1. – С. 2-5.*

*7. https://ru.wikipedia.org/wiki/*


***Tahririyat:*** *Lingvodidaktika ona tili, ikkinchi til va chet tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, umumiy qonuniyatlari, o‘qitish obyektining o‘ziga xos jihatlari, tilni o‘qitish vositalari, uslub va usullari hamda nazorat shakllari jamlanmasi bo‘lib, bugungi kunda tilshunoslikda va pedagogikada faol qo‘llanilmoqda.*

*Muallif mavzuni ochib berishda asosan xorijiy manbalarga murojaat qilib, ularni imkon qadar tahlil qilib chiqqan va muhim bir taklifni ilgari surgan, ya’ni chet tilini o‘rganishda kasb nuqtayi nazaridan yondashish kerakligini ta’kidlagan. Uning bu fikrini ma’qullash mumkin, ammo muallif bu borada yanada izlanishi, o‘z ustida ishlashi kerak. Chunki lingvodidaktika o‘zbek ilm jamiyatida hali mukammal o‘rganilmagan.*

**Gulchehra PARDAYEVA,**
Samarqand Davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi oʻqituvchisi

# BOʻLAJAK BOSHLANGʻICH SINF OʻQITUVCHILARINING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI SHAKLLARI

**Annotatsiya**

Maqolada boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishning muammolari va yechimlari yoritilgan. Unda boʻlajak oʻqituvchini tayyorlashda ijodiy ishlarni bajarishning oʻziga xos xususiyatlari ochib berilgan boʻlib, talabalarda ijodiy mehnat koʻnikma va malakalarni takomillashtirishning samarali shakllari tahlil etilgan.

**Kalit soʻzlar.** Oliy pedagogik ta’lim, faoliyat, tizimlilik, mustaqil, ijodiy ish, kurs ishi, muammoli topshiriq, diplom ish, amaliyot.

Данная статья посвящена проблеме организации самостоятельной творческой деятельности при подготовке будущих учителей начальных классов. Освещены особенности творческой работы будущих учителей, раскрыты эффективные формы совершенствования творческих трудовых навыков и умений студентов.

**Ключевые слова.** Высшее педагогическое образование, деятельность, системность, самостоятельность, творческая работа, курсовая работа, проблемная задача, дипломная работа, практика.

Article devoted to the problem of organizing independent creative activity in the preparation of future primary school teachers. Also highlighted the features of the creative work of future teachers and disclosed effective forms of improving the creative labor skills and abilities of students.

**Key words.** Higher pedagogical education, activity, consistency, independence, creative work, course work, problem task, thesis, practice.

Bugungi pedagogika va unga davr munosabati masalasini oʻrganish alohida ilmiy muammoga aylanib bormoqda. Shaxs oʻzining mustaqil ijodiy faoliyati va oʻz sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat ijtimoiy tafakkurining rivojiga oʻz ta’sirini koʻrsata olmogʻi lozim. Mustaqil ijodiy faollik, ijodkorlik talaba-yoshlarning ijtimoiy bilimdonlik va ong asosida ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasini ta’minlovchi mezon vazifasini oʻtaydi.

Oliy pedagogik ta’lim tizimi bu borada muhim bosqich boʻlib, ayniqsa, pedagogika fakultetlarida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy mahorati, axloqi, odobi va zaruriy xislat, fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy pedagogika oʻquv yurtlarida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini kasbiy tayyorlashda zarur boʻladigan malaka koʻnikmalari hamda mustaqil ijodiy ishlariga har

bir fanni o‘rganish negizida 35-45 foiz vaqt taqsimoti ajratiladi. Dars mashg‘ulotlarida nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim sifatida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatiga keng o‘rin ajratilgan holda o‘quv rejasi va dasturidagi ta’lim mazmunini o‘zlashtirish tashkil etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarining nazariy qismida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, interfaol noan’anaviy usullar keng qo‘llanilmoqda. Amaliy mashg‘ulotlar esa seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, suhbat tarzida tashkil etilib, muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularning yechimlarini topish uchun yo‘naltirilgan. Mustaqil ta’limda esa bevosita o‘quv reja va dasturlarining uzviyligini ta’minlovchi nisbatan muhim va murakkab hisoblangan mavzularni talabalar tomonidan mustaqil ravishda chuqur va har tomonlama kengroq o‘rganishga mo‘ljallangan.

Hozirgi davrda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning bajarayotgan mustaqil-ijodiy ishlarining asosiy ko‘rinishlari, shakllari quyidagilardan iborat:

1. Kurs ishlari va loyihalarini bajarish.

2. Diplom (bitiruv malakaviy) ishlari va loyihalarini ishlab chiqishda va amalga joriy etishda qatnashish. Masalan, ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim oluvchilar yozma mustaqil ishlarni bajarish uzluksizligini ta’minlash quyidagicha amalga oshiriladi:

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar kichik insho, bayon, diktant yozsalar, o‘rta va yuqori sinflarda ular turli referatlar yozib, hisobotlar tuzishadi;

– o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim tizimida ular mustaqil ravishda kurs ishlari, bitiruv malakaviy (diplom) ishlarini bajarishadi;

– magistrlik va doktorlik ilmiy tadqiqotlar esa ushbu ishlarning bevosita davomi va asosiy maqsadi hisoblanadi.

3. Turli xil muammoli topshiriqlarni o‘quv fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha bajarish, masalan, hisobot, sinov darslari uchun nazorat savollari tuzish va boshqalar. O‘quvchi-yoshlarning turli xil muammoli topshiriqlarni mustaqil holda fan yo‘nalishlari bo‘yicha bajarishlari ta’lim tizimining bir necha bosqichlarida davom etishi mumkin. Masalan, umumiy o‘rta ta’limning DTSlarida amaliy mashg‘ulotlarga vaqt ajratilgan. O‘quvchilar ana shu amaliy mashg‘ulotlarga qatnashganlarida mustaqil holda ishlab chiqarishda qatnashishning dastlabki ko‘nikmalari paydo bo‘ladi. Ta’limning keyingi bosqichlarida, masalan, litsey va kasb-hunar kollejlarida ular turli xil amaliyotlarda bo‘lib, muammoli topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishadi, hisobotlar tuzishadi, referatlar yozishadi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar ishlab chiqarish, diplomoldi va pedagogik amaliyotlarda bo‘lishadi. Pedagogik amaliyotlar bilim sohasi gumanitar bo‘lgan musiqa, tasviriy va amaliy san’at, mehnat ta’limi, boshlang‘ich ta’lim va psixologik ta’lim yo‘nalishlarida oxirgi bosqich talabalari uchun 14 hafta muddatda tashkil etiladi. Amaliyot davrida talabalar turli xil darslarni va darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishadi va kuzatishadi, tahlil qilishadi, xulosalar yozishadi. Amaliyot davrida ular mustaqil holda darslarga tayyorlanadi, dastlab o‘qituvchi kuzatuvida, asosiy davrda esa mustaqil holda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar ishlanmalarini ishlab chiqishadi va o‘quv tarbiyaviy jarayonda tatbiq etishadi. Amaliyot yakunida hisobotlar tuziladi va taqdimot o‘tkaziladi. Muammoli vaziyatlarga duch kelganlarida esa mustaqil holda yechimlarni yengib o‘tish uchun tinimsiz izlanadilar. Bu haqdagi taklif va tavsiyalarini keltirib o‘tishadi.

Quyida oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida samarali foydalanilishi mumkin bo‘lgan mustaqil ijodiy ishlarning nomlari

keltirib o‘tiladi. Ularni turli xil hududiy, mintaqaviy, mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga muvaffaqiyatli joriy etish mumkin.

– mehnat ta’limi metodikasi fani negizida qog‘oz, karton, simlar va gazlamalar hamda har xil tabiiy, sun’iy materiallardan turli xil shakllar, o‘yinchoqlar, narsalar yasash;

– tasviriy va amaliy san’at darslarida turli-tuman jarayonlar, manzaralar, narsalar va buyumlarning ko‘rinishlarini chizish, tasvirlash;

– ta’lim tizimida, o‘quv jarayonida va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir (amaliyotlar davrida) uslubiy ishlanmalar tayyorlashda ishtirok etish;

– o‘quv mashg‘ulotlarining elektron ishlanmalarini tayyorlash va amalga joriy etish;

– jurnallarda, gazetalarda, to‘plamlarda mavzuli anjumanlar va konferensiyalarda ilmiy-amaliy, uslubiy, pedagogik va psixologik mazmundagi maqolalar, ma’ruzalar, tezislar tayyorlash bilan chiqishlar qilish;

– ilmiy hisobotlar tayyorlashda ishtirok etish (xo‘jalik hisobidagi shartnomalar asosida tadqiqot ishlarini bajarish bo‘yicha);

– ta’lim muassasasi (maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) o‘quv reja va dasturining alohida qismlari, bo‘limlarini takomillashtirish uchun uslubiy tavsiyalar, ishlanmalar tayyorlashda qatnashish;

– ta’limning didaktik vositalarini loyihalash, tuzish, qurish ishlarini bajarish. Texnologik va perfo xaritalar tayyorlash, slaydlar yaratish;

– o‘quvchilarning turli faoliyatlari (o‘yin, o‘yin-dars, mehnat, sport-sog‘lomlashtirish, ijodkorlik, ishlab chiqarish, jamoatchilik va boshqalar)ni tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda va ularni amalga joriy etishda qatnashish;

– turli pedagogik, psixologik, didaktik, metodik va ilmiy tadqiqot izlanish va kuzatishlarda, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish,

– testlar, test-anketa, suhbatlar savolnomalari, kuzatishlar kartochkalarini tuzish, intervyular o‘tkazish, ularni muhokama hamda tahrir qilishda qatnashish;

– fanlar olimpiadalari, ko‘rik-tanlovlar, turli musobaqalarda, ilmiy-metodik anjumanlar va seminarlarda ishtirok etish;

– ta’lim muassasasi jamoatchilik tashkilotlari, mahalla, hokimiyatlar vakillari bilan turli xil madaniy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, hasharlarda faol ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning ushbu mustaqil-ijodiy ishlarining ko‘pchiligi bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri davom ettiriladi va ba’zilari esa ko‘rinishi, shakli o‘zgarsa-da, ammo, mazmuni, maqsad va vazifalari saqlab qolingan holda davom ettiriladi. Masalan, diplom va kurs ishlari, loyihalar oliygohdan keyin bevosita shu nomda davom ettirilmasa-da, tadqiqot ishlarni mavzusi aniqlangach, yo‘nalishi belgilanadi, kengaytirilib, chuqurlashtirib, bo‘lajak mutaxassisning ilmiy-pedagogik faoliyatining asl mohiyati yo‘nalishini belgilashi ham mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlardagi mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etishda mamlakatimizning har bir mintaqasi, hududida, har bir oliy ta’lim muassasasidagi mavjud imkoniyatlarini o‘rganib chiqib, turli xil samarali shakllarini tanlab olish, joy sharoitiga moslashtirish va amalga joriy etish mumkin bo‘ladi. Albatta, har bir o‘quv fani yo‘nalishlari bo‘yicha mustaqil ta’lim shakllarini tashkil etishda asosiy nazariy yo‘l-yo‘riqlar, bilimlar o‘quv auditoriya mashg‘ulotlarida berilsa-da, amaliy ko‘nikma va malakalar shu turkumdagi seminar, trening, laboratoriya mashg‘ulotlarida shakllantiriladi.

Talabalar mustaqil ijodiy faoliyatida bo‘lajak boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilari kasbiy mahoratining dastlabki qirralari ham shakllantirilib, takomillashib boradi. Masalan, yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarning dastlabki qismlarini bajarishda ular mustaqil ijodiy ishlarni belgilangan talablar asosida amalga oshiradilar. Bu hol esa, mustaqil pedagogik faoliyatda ularning turli xil shu yo‘sindagi ishlarni bajarishlariga poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining turli xil materiallardan (rangli va rangsiz qog‘ozlar, karton, plastilin, plastmassalar, simlar, gazlamalar, tabiiy va sun’iy, sintetik materiallar va boshqalar) narsalar va buyumlarning shakllarini tayyorlashlari ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda yuqoridagi yo‘nalishlarning 4-5 qismlarida faol qatnashishlarida muhim hisoblanadi. Chunki narsa, buyumlarni tayyorlash, jarayonlarni tasvirlash nisbatan ko‘p vaqtni va jihozlarni talab etganligi sababli dars mashg‘ulotlaridagi vaqt zaxirasi yetishmasligi mumkin. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda ushbu yo‘nalishdagi amaliy mustaqil ijodiy faoliyatiga ham jiddiy e’tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etishni zamon talablari darajasida yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirish mumkin:

– Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda mustaqil ijodiy ishlarning turli-tumanligi muhim o‘rin tutadi, chunki talabalar tahsil davomida qanchalik turli ijodiy topshiriqlarni bajarsalar, mustaqil pedagogik faoliyatining xilma-xil qirralari tobora oydinlashib boradi.

– Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishda uzluksizlik, uzviylik va izchilliklar davomiyligiga alohida e’tibor berish zarur. Chunki bunday holatlarda muammoli topshiriqlarni bajarishda “oddiydan murakkabga” va “osondan qiyinga” tamoyillariga rioya qilinsa, maqsadga muvofiqdir.

– Talabalarga o‘quv va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda va amaliyotlar davrida bajargan mustaqil ijodiy ishlari namunalari nusxalarini saqlab borishlari tavsiya etiladi, chunki ulardan mustaqil pedagogik faoliyatda bevosita namunalar, andozalar sifatida foydalanish ham mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, talabalarni kasbiy ko‘nikma hamda malakalarga ega bo‘lishlarini ta’minlash masalasini samarali hal etilishida mustaqil amaliy ijodiy faoliyatini tashkil etishning shakllariga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu esa izlanuvchan ijodiy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash muammosini yengillashtirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Jurayev Z.H., Tolipov O‘., Sharipov Sh.. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2004, 120-b.*

*2. Haydarov I.O. Uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirishning maqsadi, vazifalari, metod va vositalari. // “Maktab va hayot” jurnali, 2012 y., № 7-8, 5-6-betlar.*

*3. Пронина Е.Н., Лукашевич.В.В. Психология и педагогика. Учебник для студентов вузов. – М.: Элит, 2004.*

**Alisher ISMAILOV,**
O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi
bo‘lim boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchi

# TARIX FANIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH ASOSIDA O‘QITISHNING MUHIM JIHATLARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni loyihalashtirishga doir tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarining imkoniyatlari keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Pedagogika, axborot-kommunikatsiya, elektron ta’lim, multimedia, metodika, shakl, metod, vosita, texnologiya, subyekt, obyekt.

В статье приводятся рекомендации разработок инновационных технологий для организации уроков истории, раскрыты возможности субъект-субъектных отношений в учебном процессе.

**Ключевые слова.** Педагогика, информационная коммуникация, электронное обучение, мультимедиа, методика, форма, метод, средство, технология, субъект, объект.

Article provides recommendations for the development of innovative technologies for the organization of history lessons and disclosed the possibilities of subject-subject relations in the learning process.

**Key words.** Pedagogy, information communication, e-learning, multimedia, methodology, form, method, means, arrangement, subject, object.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning har bir jabhasida zamonaviy axborot texnologiyalari muntazam ravishda keng qo‘llanib kelinmoqda. Jumladan, ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas va aytish mumkinki, ta’lim samaradorligini oshirishda mazkur axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

Ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishdan ko‘zlangan maqsad, avvalo, o‘quvchilarning fanga qiziqishlarini oshirish bo‘lsa, ikkinchidan, ularning yangi bilimlarni tez va oson o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish va eng muhimi, olingan bilimlarni mustaqil tahlil qila olishlari va amaliyotda qo‘llay bilishlariga erishishdan iboratdir.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’lim muassasalarini yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy fikrlovchi kadrlar bilan ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng tatbiq etishga alohida e’tibor qaratish zarurligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or ish tajribasini o‘rgangan respublikamiz olimlari tomonidan tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalardan foydalangan

holda ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitish jarayonida pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari va multimedia taqdimotlarini qo‘llash yuzasidan tavsiya yaratish lozimligi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu muammoni hal etish uchun tarix fani o‘qituvchilari o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan bo‘lishi zarur.

Ko‘p hollarda o‘qituvchilar tarix o‘qitish metodikasi tushunchasi bilan texnologiya tushunchasining mohiyatini tushunmagan holda qo‘llashadi. Ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida tushunchalarning mohiyatiga to‘xtalish zarur.

Umumiy ma’noda “metodika” tushunchasi ma’lum bir ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan metod va usullar yig‘indisidir. Ko‘pgina izohli lug‘atlarda ham “Metodika – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi”ni ifoda etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, “metodika” tushunchasiga turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liqlikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.

Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, “O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”.

Adabiyotlar tahlili natijasida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi mazmuniga qo‘yiladigan zaruriy talablar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1) tarix o‘quv fani dasturidan o‘rin olgan mavzularni o‘rganishda ta’lim mazmunini kundalik va mustaqil hayot, amaliyot bilan uyg‘unligini ta’minlash, didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri nazariya va amaliyot birligiga amal qilish;

2) tarix fani darsliklaridagi o‘quv materiali mazmunining mantiqiy yo‘nalishini aniqlash va o‘quvchilarga induktiv yoki deduktiv tarzda yetkazish maqsadida mazmunni qayta ishlab chiqish. Shuni qayd etish lozimki, o‘quvchilarga o‘quv materialini yetkazish umumiy tushunchalardan xususiy tushunchalarga yo‘naltirilsa, bu yo‘nalish deduktiv yo‘nalish, agar o‘qituvchi o‘quv materialini xususiy tushunchalardan boshlab, o‘quvchilarning bilish faoliyatini umumiy tushunchalar tomon yo‘naltirishni loyihalasa, bu mantiqiy yo‘nalish induktiv xarakterga ega bo‘lishi;

3) tarix fani o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatining, shu jumladan, tarix fanini o‘qitish shakllari bo‘lgan: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning didaktik maqsadlarini, didaktik maqsadlarga erishish maqsadida ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta’minlash yo‘llarini aniq belgilashi;

4) tarix o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatini asoslashi, tarix fanini o‘qitish shakllari bo‘lgan: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning mazmunini e’tiborga olgan holda o‘qitish metodlari, vositalarini maqsadga muvofiq asosli tanlashi;

5) tarix fani o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatining natijalarini aniqlash maqsadida zamonaviy shakl va vositalardan foydalanish malakasini egallashi, natijalarni asoslashi, tipik kamchiliklarga barham berish yo‘llarini belgilashga zamin tayyorlashi zarur.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, tarix o‘qitish metodikasi o‘zida: tarix fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari – ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi didaktik maqsadlari; tarix fanini o‘qitishni amalga oshirish qonuniyat va tamoyillarini; tarix fanini o‘qitish mazmuni, ularni o‘quvchilarda shakllantirish bosqichlari; tarix fanini o‘qitishni tashkil etish shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni uzviy tashkil etish metodikasi; o‘qitish jarayonida ta’lim mazmunining tarkibiy qismlari (bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribalari va qadriyatlar), o‘qitish vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligini; tarix fanini o‘qitish jarayonida teskari aloqa, ya’ni olingan natijalarga asosan o‘qitish jarayoniga tegishli o‘zgartirishlar kiritishni o‘zida aks ettiradi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiyaga texnologik yondashuvning keng miqyosda tatbiq etilishi bilan bog‘liqlikda “metodika” bilan “texnologiya” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Chunki aksariyat hollarda mazkur tushunchalarning mohiyatini aniq farqlay olmaslik natijasida ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish yoxud ularning o‘rnini almashtirgan holda qo‘llanilishi ko‘zga tashlanmoqda.

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini tushuntirishda aniq chegara qo‘yish bir oz murakkab masala. Biroq ularning o‘ziga xosliklarini tahlil etish, ayrim farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Metodika – bu xususiy didaktika, ya’ni biror-bir fanni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti sanaladi. Tarix fanini o‘qitish metodikasi didaktikaning asosiy qonuniyatlari va tamoyillariga tayangan holda tarix fanini o‘qitishning mazmuni, o‘qitish vositalari, metodlari va shakllarini o‘zaro uzviylikda amaliyotga joriy etish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Tarix o‘qitish metodikasi tarix fanini o‘qitishning mazmuni, o‘qitish vositalari, metodlari va shakllarini tizim shaklida amalga oshirishni tavsiya etadi.

Shu bilan bir qatorda ta’lim mazmunini e’tiborga olgan holda didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri, ta’lim-tarbiyaning uzviyligi prinsipi asosida o‘quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadida ta’lim-tarbiya berish, ular ongi va qalbiga milliy mafkura g‘oyalarini singdirish yo‘llarini ishlab chiqadi va tarix fani o‘qituvchilariga tavsiya etadi.

Umumta’lim fanlarini o‘qitishda ta’lim mazmuni asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli metodikada ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda xususiy xarakterga ega bo‘ladi.

Ta’limni texnologiyalashtirish – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Ta’limga texnologik yondashish – bu ma’lumot va ta’lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o‘qituvchi va o‘quvchi maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o‘qitish maqsadi, o‘qish maqsadi) ta’limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta’limni loyihalash va amalga oshirish yo‘llari bilan mo‘ljaldagi etalonga erishishdir.

Umuman, ta’lim texnologiyasi haqida gap ketganda, o‘zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug‘iladi, ya’ni u quyidagi bosqichlar bilan xarakterlanadi:

– o‘qitish jarayonini didaktik loyihalash;

– o‘qitish jarayoni loyihasini amalga oshirish;

– o‘qitish jarayonining joriy va oraliq natijasiga ko‘ra didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish;

– o‘qitish jarayonini takroriy o‘tkazish;

– yakuniy nazorat va olingan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

Bu bosqichlarning birinchi va ikkinchisi an’anaviy ta’lim texnologiyasida ham uchraydi.

Ta’lim texnologiyasi an’anaviy ta’lim tizimidan o‘qituvchi tomonidan o‘rganiladigan ta’lim mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv maqsadlarini aniqlashtirish, unga erishish yo‘llarini aniq loyihalash, jarayondan olinadigan natija aniq o‘lchovga ega bo‘lishi, loyiha takroriy qo‘llangan holda ham shu natijaga erishishni kafolatlashi bilan farq qiladi.

O‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyasidan foydalangan o‘qituvchi olingan natijalarni tahlil qilishi, tegishli hollarda mazkur jarayonning tashkil etilishi, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida qo‘llanilgan o‘qitish vositasi va metodlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritishi lozim.

An’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarga o‘quv materiali tayyor axborot shaklida yetkazilib, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati passiv tinglovchi holatda tashkil etilganligi sababli, mazkur jarayonda o‘qituvchining o‘quv maqsadlariga erishish uchun didaktik vositalar asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyati shu jarayonning subyekti, ya’ni faol ishtirokchisi, boshqaruvchisi sanaladi, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati passiv tinglovchi holatida tashkil etilganligi sababli shu jarayonning obyekti sanaladi.

Tarix fani o‘qituvchisi o‘qitish jarayonida o‘quv-bilish faoliyatini passiv tinglovchi holatda tashkil etmasdan, balki o‘quv maqsadlariga erishish uchun faol holatda tashkil etishni loyihalashi va jarayonda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini tashkil etishi va o‘quvchilarni pedagogik jarayonning subyektiga aylantirishi, pedagogik munosabatlarning subyekt-subyekt yo‘nalishini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi lozim.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib shunday mulohaza qilishimiz mumkin:

Ta’lim-tarbiya jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini vujudga keltirishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual va kichik guruhlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini individual tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

– o‘quv topshirig‘ining didaktik maqsadini aniqlash;
– mustaqil izlanish maqsadini va maqsadni amalga oshirish yo‘llarini aniqlash;
– o‘z mustaqil ishini tashkil etish;
– o‘quv materialini mustaqil o‘rganish;
– o‘rganilayotgan obyektlarni taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni, o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash;
– olingan natijani loyihalash, uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;
– natijani tahlil qilib, tegishli hollarda unga o‘zgartirishlar kiritish.

O‘quv topshiriqlarini individual bajarish jarayonida o‘quvchilarning aqliy faoliyati jalb etiladi. Shunindek, o‘z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o‘z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining metodlaridan foydalanib tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish uchun asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlardan ham foydalaniladi. Masalan, o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha kichik tadqiqotlar o‘tkazish, ma’ruza va refe-

ratlar tayyorlash, turli mavzularda o‘tkaziladigan tanlovlar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni e’tiborga olingan holda darsda o‘quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, debatlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o‘yinlar, taqdimot, o‘z-o‘zini baholash kabilardan foydalanish, muammoli-izlanishga doir topshiriqlarni taqdim etish o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini kichik guruhlarda tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish yo‘llarini belgilash;

– o‘quv topshiriqlarining didaktik maqsadi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishish;

– kichik guruh a’zolari bilan hamkorlikda maqsadni amalga oshirish yo‘llarini loyihalash, mustaqil ishlarni tashkil etish;

– o‘rganilayotgan obyektni avval o‘rganilgan obyektlar bilan taqqoslash;

– natijalarni loyihalash va uning maqsadga muvofiqligini tekshirish;

– natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o‘zgartirishlar kiritish;

– o‘quvchilarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda guruhdagi har bir o‘quvchi iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, o‘quv muloqoti, bahs-munozara, o‘zaro yordamni amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

*1. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 311-b.*

*2. Столяренко А.М. Психология и педагогика. – М., 2008. – С.368.*

*3. Коджаспирова Г.М. и Коджаспиров А.Ю. Словарь по педагогике. – М.: ИКЦ Март, 2005. – С.174.*

*4. Короткова М.В., Студеникин М.Т., Методика обучения истории в схемах таблицах описаниях (Практическое пособие для учителей) – М.: Владос, 1999. – С.92.*

*5. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта).– Рига: НПЦ “Эксперимент”, 1995. – С.176.*

*6. Making history. A guide for the teaching and learning of history in Australian schools by tony taylor and carmel young/ Australia. 2003, P-6.*

**Nilufar MAMADIYEVA,**
Toshkent Davlat texnika universiteti
Falsafa va milliy gʻoya kafedrasi katta oʻqituvchisi

# OLIY TA’LIM TIZIMIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI OʻQITISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitishning oʻziga xos jihatlari bayon qilingan. Fanlarni oʻqitishda zamonaviy texnologiyalar va didaktik vositalardan foydalanish, mustaqil ta’limni tashkil etish va innovatsion yondashuvning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar.** Oliy ta’lim, nazariya, metod, metodologiya, uslub, modulli tizim, innovatsion texnologiyalar, mustaqil ta’lim, didaktik material, test, ijodiy yondashuv, elektron topshiriqlar.

В статье изложены особенности преподавания общественно-гуманитарных дисциплин в системе высшего образования. Раскрыто важное значение использования современных технологий и дидактических средств в обучении наукам, организации самостоятельного обучения и  инновационных подходов.

**Ключевые слова.** Высшее образование, теория, метод, методология, стиль, модульная система, инновационные технологии, независимое обучение, дидактический материал, тест, творческий подход, электронные задания.

Article describes the features of teaching social and humanitarian disciplines in the system of higher education. Also revealed the importance of the use of modern technologies and didactic means in teaching sciences and organization of independent learning and innovative approaches.

**Key words.** Higher education, theory, method, methodology, style, modular system, innovative technologies, independent teaching, didactic material, test, creative approach, electronic tasks.

Ta’lim jarayonida yoshlarga iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, gʻoyaviy ta’lim-tarbiya va bilim berish, ularni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda barcha fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar – tarix, sotsiologiya, falsafa, milliy gʻoya, ma’naviyat asoslari, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, pedagogika, psixologiya kabi fanlar muhim oʻrin tutadi.

Bugungi kunda ushbu fanlar oldida turgan muhim vazifa – yot gʻoya va mafkuralardan xoli boʻlgan, yangicha jahon talablariga javob beradigan ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatimizda va dunyoda sodir boʻlayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy oʻzgarishlarni yoshlar ongiga yetkazish kabilardan iborat.

Respublikamizda yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy-siyosiy bilim darajasi, ma’naviy va jismoniy kamoloti, ayniqsa, ma’naviy tarbiyasi masalalari 2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, unda jismonan sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim masala sifatida belgilangan.

Bugun dunyoda sodir boʻlayotgan global oʻzgarishlar, mafkuraviy xurujlar, chegara bilmas ayrim buzgʻunchi va yot gʻoyalarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri, diniy ekstremizm, terrorizm, turli radikal oqimlarning noqonuniy faoliyati kabi omillar barchamizni doimo sergak, hushyor boʻlishga, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor berishga undamoqda. Shu bois mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyot yoʻlidan sobitqadam rivojlanishida, amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarning gʻoyaviy asoslarini shakllantirishda, yoshlarni komil, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning oʻrni katta.

Bu boradagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 15-iyun kuni yurtimiz jamoatchiligi vakillari bilan boʻlib oʻtgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" hamda 2017-yil 30-iyun kuni yurtimiz yoshlarining IV qurultoyidagi "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir" mavzuidagi anjumanlarda qilgan ma'ruzalarida alohida belgilab berildi.

Oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – nafaqat mutaxassislik fanlaridan talabalarga bilim berish, balki jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida, dunyoda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarni ular ongiga yetkazish, oʻz ma'naviy-axloqiy dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash, kitob oʻqishga qiziqtirish, ular oʻrtasida kitobxonlik madaniyatini hamda yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlarini yangicha asosda oʻqitishni hamda yanada takomillashtirishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qoʻymoqda.

Hozirgi shiddatli oʻzgarishlar davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish borasida amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emas. Kelajakda mazkur yoʻnalishda koʻplab vazifalarni amalga oshirish zarur. Bu oʻquv dasturlarini ma'no va mazmun jihatdan qayta koʻrib chiqish va oʻquv qoʻllanmalarni gʻoyaviy mazmunda, bugungi kun va yangilanishlar talablariga javob beradigan mutlaqo yangi avlodini yaratishni taqozo etadi.

Pedagogikada shunday hikmat mavjud, ya'ni: "Oʻrtacha oʻqituvchi mavzuni gapirib beradi, yaxshi oʻqituvchi tushuntiradi, zoʻr oʻqituvchi mavzuni tushuntirish bilan birga, uni koʻrsatib ham beradi, buyuk oʻqituvchi esa oʻquvchilarni mavzuga qiziqtiradi". Demak, har bir fan oʻqituvchisi dars oʻtish jarayonida nafaqat gapirishi, tushuntirishi, koʻrsatib berishi, balki talabani fanga qiziqtirishi lozim.

Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitishda innovatsion texnologiyalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, u oʻqituvchiga koʻplab imkoniyatlarni beradi va ular quyidagilar bilan tavsiflanadi. Ya'ni:

– oʻz kasbiy faoliyatini tizimli tahlil etish;

– oʻzgarishlar va faoliyatga tanqidiy munosabatda boʻlish;

– oʻz kasbi boʻyicha yangiliklardan xabardor boʻlib turish;

– oʻz gʻoya va maqsadlarini kasbiy faoliyatda mujassamlashtirishga intilish;

– pedagogik yangiliklarni tahlil qilish va baholash;

– kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish va samarali baholash kabilardir.

Oʻqituvchining innovatsion faoliyati – yangiliklarni tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish va toʻgʻrilash imkoniyatlaridir. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlar taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari va ularni oʻqitishning muhim ahamiyat kasb etishi hamda ustuvor yoʻnalishlarini ochib berish, fanlarni oʻqitishdagi innovatsiyalar va ilgʻor xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil etgan holda ish olib borish talab etiladi.

Shuni qayd etish lozimki, ta'lim tizimida sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar biz o'qituvchi-pedagoglardan talabalar ongida bugungi davr o'zgarishlariga hamohang ravishda ta'limga innovatsion o'qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etishni va uning yangicha modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bunda turli didaktik vositalardan o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik materiallarga talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar, o'yinlar, krossvordlar, kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xarita va boshqa materiallar kiradi.

Didaktik materiallar, o'z navbatida, o'quv-didaktik materiallar ham deb ataladi. Zero, o'quv-didaktik materiallar deganda, o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan, zarur bilimlarni beruvchi har qanday axborot manbalari tushuniladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quv-didaktik materiallar sifatida qo'llaniladigan matnli-vizual vositalar, amaliy mashg'ulotlarda kurs materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, fan bo'yicha qo'shimcha bilimlar va ma'lumotlarga ega bo'lish va ilmiy-ijodiy izlanishlar olib borish uchun yaratilgan kataloglar, elektron manzillar jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar o'quv-didaktik materiallar jumlasiga kiradi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida didaktik materiallardan foydalanish uchun quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi:

– tarqatma didaktik materiallar oddiy va sodda ko'rinishga ega bo'lishi lozim;

– didaktik materiallar mazmuni (ma'ruza matni, biror-bir tekst, ijodiy topshiriqlar, savollar)da hodisalar va jarayonlar o'rtasida muhim bog'liqlik bo'lishi kerak;

– topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy vaziyatdan murakkabroq vaziyatni yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim;

– talabaning ijodiy fikrlashi uchun sharoit yaratilishi muhim va h.k.

Darslarda didaktik materiallardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

• talabalarni turli muammolarni mustaqil hal qilishga yo'naltirish;

• tadqiqotlar olib borishga yo'naltirish;

• turli vaziyatlar va holatlar yarata olish va ulardan chiqa olish ko'nikmalarini shakllantirish;

• darslarda turli tajribalar va mashqlar o'tkazishga o'rgatish;

• yangiliklarni izlash va ularni tahlil qilishga yo'naltirish va h.k.

Shu o'rinda ijtimoiy-gumanitar fanlarni ilmiy-uslubiy jihatdan, ularga taalluqli bilimlarni nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan mustahkamlash uchun dars va darsdan tashqari tashkil etiladigan mustaqil ta'lim va uning samaradorligi ham muhimdir. Ma'lumki, dars yoki darsdan so'ng tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida mustaqil ta'lim turlaridan unumli foydalanish ularning yanada jozibali hamda qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim – bu o'quv dasturida belgilangan reja asosida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani aniqlashga yo'naltirilgan hamda talabaning bilim darajasini baholashga xizmat qiluvchi ta'lim shakllaridan biridir. U o'qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan darsda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bajariladi. Buning uchun talabalarga mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan o'qituvchi tomonidan zarur topshiriqlar hamda ularni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi. Ular quyidagilardir:

*Ijodiy topshiriqlar.* Talaba tomonidan mustaqil ravishda referat, yozma ish yoki hisobot shaklida shakllantiriladigan va ishlab chiqiladigan, talabaning og'zaki yoki ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar;

*Yozma mustaqil topshiriqlar*. Vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlovchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida yozma hisobotlar tayyorlash va boshqalarni o'z ichiga oladi;

*Nazorat savollari va testlar.* Har bir bob bo'yicha tuzilgan nazorat savollariga va yozma topshiriqlarga talaba mustaqil ravishda javob yozib, uni kompyuterda yoki qog'ozga chiqarilgan ko'rinishda o'qituvchiga taqdim qilishi mumkin. Test savollariga javob berish orqali talaba fan bo'yicha o'z bilimini tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunga elektron testlar ham misol bo'ladi. Ya'ni talaba tomonidan o'tilgan mavzular yuzasidan ishchi o'quv dasturidagi mavzular asosida elektron tarzda taqdim etiladigan testlardir;

*Elektron topshiriqlar.* Talabaga individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Bajarilgan topshiriqlar talabaga faqat elektron ko'rinishda topshirish uchun ruxsat beriladi.

Talabaning mustaqil faoliyati deganda, unda bilimlar egallanishi bilan birga mustaqil idrok, faoliyat va ijodiy ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu maqsadga yo'naltirilgan masalalarni yechish chog'ida talabalardan bajarilgan ishni, undagi dalillarni tavsiflash asosida voqea va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o'rganilayotgan obyekt va hodisalardagi o'zgarishlarning sababini aniqlash hamda uni ifodalash imkoniyati yuzaga keladi.

Talabalarning bilish (idrok qilish) faoliyati avval o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, uning mazmuni hamda tuzilmasini qayta ishlash, boyitish va yangilashga yo'naltiriladi. Bunday usul o'rganilayotgan masalani tahlil qilish, vazifani turli usullarda bajarish, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini yuzaga chiqaradi.

Talaba mustaqil ishlarini tashkil etishda didaktik vositalardan unumli va samarali foydalanishda kichik guruhlarda yoki individual shakllarda tashkil etiladigan mashg'ulotlar va o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, talabalarning o'zlashtirish imkoniyatlari, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib, kichik guruhlarda va individual ishlash uchun muayyan mavzuga oid bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar, topshiriqlar, muammoli vaziyatlar ishlab chiqiladi. Ularni bajarish uchun aniq ko'rsatma va tavsiyalar beriladi. Guruhlarda ishlashda talabalarning muloqotga kirishishi, o'z fikrini ayta olishi, boshqalar fikrini eshita olishi, faol ishtirok etishlari, bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va didaktik vositalardan foydalanish, mustaqil ta'limni tashkil etish va innovatsion yondashuv asosidagi ta'limdan foydalanish kutilgan natijani beradi, ya'ni ta'lim sifati va samaradorligi ta'minlanib, har jihatdan tayyorlangan malakali kadrlar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – T.: Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. "Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir". 2017-yil 30-iyun. www.uza.uz*

*3. Tolipov F., Isroilov B. va boshqalar. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. // O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2017.*

**Gulnoza YUSUPOVA,**
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI tayanch doktoranti

# SOG‘LOM TAFAKKUR – O‘QUVCHILARNI HAYOTIY MAQSAD SARI YETAKLOVCHI OMIL

**Annotatsiya**

Maqolada “sog‘lom tafakkur” tushunchasi va uning mohiyati hamda sog‘lom tafakkurning o‘quvchilarda qat’iy hayotiy pozitsiyani shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, sog‘lom tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Tafakkur, sog‘lom tafakkur, shaxs, o‘quvchi, boshqarish, refleksiya, yo‘nalganlik.

В статье раскрыто понятие “здоровое мышление”, и его сущность и роль здорового мышления в формировании жизненной позиции учащихся. Также определены педагогико-психологические особенности развития здорового мышления.

**Ключевые слова.** Мышление, здоровое мышление, личность, учащийся, управление, рефлексия, ориентация.

In the article were disclosed concept of “healthy mind” and its essence and the role of in healthy thinking in shaping the life position of students. Moreover, article clarifies pedagogical and psychological features for developing healthy mind.

**Key words.** Mind, healthy mind, personality, student, management, reflexion, orientation.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu jarayonning amaliy natijasi o‘quvchi-yoshlarning ongu tafakkuri, hayotiy intilish va harakatlari, tashabbuskorligida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” degan ezgu va hayotbaxsh shior ostida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli har bir kunimiz inson manfaatlarini ta’minlash, fuqarolar haq-huquqlarini kafolatli himoya etish, odamlarni rozi, baxtli, saodatli qilishga qaratilgan, yangi qudratli o‘zgarishlar ruhida kechmoqda. O‘zbekiston jamiyati sifat jihatidan mutlaqo yangi davrga qadam qo‘ymoqda.

Jamiyatning yangilanish sari jadal harakatlanishi o‘sib kelayotgan avlodda yangicha fikrlash tarzini shakllantirishni ham taqozo etadi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda professor B.Xodjayev tomonidan o‘quvchilarda yangicha fikrlashni qaror toptirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari ajratib ko‘rsatilgan: shaxsda o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z istiqbolini erkin tanlay olish hissini qaror toptirish; odamlar ongi va tafakkurida tub burilish yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o‘tkazish yo‘lini tanlash; o‘z shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtira olish, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan

loqaydlik va beparvolikni yo'qotish hamda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish orqali fuqarolarda erkin tafakkur yuritish, fikriy mustaqillikka erishishni ta'minlash.

Sog'lom tafakkurning shaxs rivojidagi o'rni masalasi turli zamon va makonlarda yashagan mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson tafakkuri haqida fikr yuritar ekan: "Modomiki, u o'z zotidan fikr qilishga qodir bo'la olar ekan, u oqil bo'la oladi. Natijada uning zoti aqlga erishsa, u holda u fe'li bilan aqlga ega bo'ladi. Balki u aql bo'la oladi, u o'z zoti bilan fikr qiladigan, oqil bo'la oladi. Zotning o'zi ham aqlga erishdimi, demak, uning o'zi ham aqlga erisha oladi", degan fikr orqali aql va intellektning o'zaro uyg'un hamda farqli jihatlarini tahlil etgan.

A.Jeksonning qayd etishicha, asl salomatlikning birinchi siri-aqlimizda joylashgan bo'lib, aqlimizga bo'ysunmaydigan biror-bir narsaning o'zi yo'q. Insonda hayotga, ezgulikka ishonch bo'lishi lozim. Kimda kim ishonsagina, g'alaba qozonadi. Muallif ishonch kuchining insonda qat'iy hayotiy pozitsiyani shakllantirish imkoniyatini quyidagi fikrlar orqali ifoda etadi: "Ishonch – bu ruhiy kuch, uning sharofati bilan bo'lishi mumkinmas narsa mumkinga aylanadi. Ishonch mo'jiza yaratishga qodir kuchlarga yo'l ochadi".

"Falsafa: qomusiy lug'at"da "tafakkur" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi".

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziyev esa, mazkur tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovotining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi".

Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish masalasida fundamental tadqiqotni amalga oshirgan olim B.Xodjayev tafakkur masalasining gnoseologik, mantiqiy, psixologik o'ziga xosliklarini tahlil etish asosida quyidagi indikatorlarini aniqlashtirgan: shakllari – tushuncha, hukm, xulosa; turlari: ratsional va irratsional; uslublari – metafizik, dialektik; qonuniyatlari – gnoseologik, tashkiliy, didaktik; tamoyillari – aniqlik, xolislik, tizimlilik; taksonomik tavsifi – bilish, tushunish, analiz, sintez, qo'llash va baholashdir.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan tafakkur va uning ko'rinishlari (ijodiy, mantiqiy, badiiy-estetik, axloqiy, ekologik, mustaqillik, tarixiy)ga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq umumta'lim maktabi o'quvchilarida sog'lom tafakkurni rivojlantirish muammosi alohida tadqiq etilmagan. Ehtimol, mazkur holat sog'lom fikr yuritish tafakkurning barcha shakllariga taalluqli, deb qarash nuqtayi nazari bilan bog'liqdir. Respublikamizda sog'lom tafakkur masalasining pedagogik jihatlarini tadqiq etishga urinish S.Ataxonova tomonidan nashr ettirilgan maqolalarda o'z ifodasini topgan. Biroq tadqiqotchi tomonidan "sog'lom tafakkur" tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflar ancha bahstalab ekanligini qayd etib o'tish joiz. Masalan, tadqiqotchining "Tafakkur innovatsion ta'lim dasturida" nomli maqolasida sog'lom tafakkur ilmiy-pedagogik ta'rifga ko'ra, quyidagi bir necha muhim bo'g'inlar – sog'lom tafakkur tushunchasi; zarur ijtimoiy muhit tushunchasi; pedagogik maqsad va natija tushunchasi; sog'lom turmush va turmush tarzi tushunchasi kabilardan iborat bo'lishi qayd etib o'tilgan. Mazkur bo'g'inlar sog'lom tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish

imkonini bermaydi. Shu bilan birga, maqola so‘ngida xulosa sifatida “sog‘lom tafakkur” tushunchasiga berilgan ta’rifni boshlang‘ich asos sifatida qabul qilish mumkin: sog‘lom tafakkur kishilarning o‘z salomatligi (jismoniy, ma’naviy-ruhiy – ta’kid bizniki)ni asrashga yo‘naltirilgan o‘ylari, ongi, shuuri, hissiyotlari, axloqi, estetik qarashlari, g‘oyalari, sa’y-harakatlari va ular natijasi hisoblanadi.

Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan sog‘lom tafakkur masalasining ayrim jihatlarini yoritib berishga e’tibor qaratilgan. Jumladan, K.Yungning fikricha, sog‘lom tafakkur yuritish uchun shaxsning arxetipik (shaxs xayolotidagi obrazlar, g‘oyalar, motivlar) o‘ziga xosliklarni aniqlab beruvchi fikrlash, tushunish usullarini o‘zlashtirish zarur. Ya’ni inson o‘z fikrlashini sog‘lom nuqtayi nazar bilan bog‘liqlikda boshqarishi lozim. K.Xorni esa, ko‘pincha insonning xulq-atvori madaniy omillari asosida boshqariladi, deb ta’kidlab o‘tadi. Ya’ni, bizning madaniy dunyoqarashimiz ratsional fikrlashga qanchalik ko‘p ta’sir etsa, irratsionallikning ta’sir doirasi shunchalik kamayadi. M.Jeymsning talqinicha, sog‘lom tafakkurning asosida real voqelikni qanday tushunish qobiliyatining anglanishi yotadi. O‘z-o‘zini anglagan shaxs o‘zining ichki olami, tasavvurlarini to‘g‘ri fahmlaydi, undan qo‘rqmaydi va bayon etishdan tortinmaydi, fikr va xatti-harakatlari “hozir va shu yerda” vaziyatiga yo‘nalgan bo‘ladi.

Sog‘lom tafakkurni rivojlantirish masalasi tizimli va kengroq tavsifda Y.I.Orlovning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Uning fikricha, sog‘lom tafakkur yuritishning asosiy roli o‘z-o‘zini takomillashtirish – xarakterning uyg‘unligi, o‘z-o‘zidan va atrof-muhitdan rozilik, yomon odatlardan saqlanish, o‘z hissiyotlarini boshqarish, o‘z ehtiyojlarini nazorat qilish uchun zaruriy shart-sharoit yaratishda namoyon bo‘ladi. Ichki nizolar, ziddiyatlar, tibbiy-profilaktik fikrlashni Y.Orlov, sog‘lom tafakkur deb atashni taklif etadi. Shunga muvofiq, kundalik holga aylangan, avtomatlashgan kuch ta’siridagi odatdagi fikrlashni nosog‘lom tafakkur deb atash mumkin.

N.Vasilyevaning ta’kidlashicha, fikrlashni tashqi tomondan ko‘rinib turgan muammolarni hal etishga qaratilgan aqliy harakatlar yig‘indisi sifatida an’anaviy tushunishdan farqli ravishda sog‘lom tafakkur shaxsning o‘z-o‘zida namoyon bo‘layotgan muammolarni (masalan, o‘z-o‘zini noo‘rin azoblash, muvaffaqiyatsizlikdan tashvishlanish va h.k.)ni bartaraf etishda o‘z aksini topadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda aytish mumkinki, sog‘lom tafakkurning o‘quvchilarda qat’iy hayotiy pozitsiyani shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati quyidagi jihatlarda o‘z aksini topadi:

1. Sog‘lom tafakkur fikriy jarayon obyektlariga diqqatni jamlash va konsentratsiyalash (bir joyda to‘plash) imkonini beradi. Agar inson o‘z diqqatini jamlay olmas ekan, voqelik va undagi o‘z o‘rnini kuzatish imkoni bo‘lmaydi. Diqqatni jamlay olish va zaruriy timsollarni o‘rnata olish esa, obyektlarni reallik va intellektuallik uyg‘unligida amaliy vizuallashtirishga xizmat qiladi.

2. Sog‘lom tafakkur inson tomonidan nazorat qilishga ehtiyoj sezuvchi aniq ruhiy holatlar haqida bilimlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Norozilik, noo‘rin arazlash haqida fikr yuritish uchun norozilik kayfiyati o‘zi nima, u qanday tuzilishga ega, uning yuzaga kelishi nima bilan bog‘liq va u qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi haqida bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Sog‘lom tafakkur shaxs psixologiyasi asoslari, emotsional-irodaviy sifatlarga doir bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

3. Refleksiv (tashqi tomondan va o‘z-o‘ziga baho berish) qobiliyat sog‘lom tafakkurni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zining salbiy tavsifga ega o‘y-xayollari, his-tuyg‘ulari, yaxlitlikda mavjud tajribasini tashqi tomondan baholash orqali inson o‘z

xulq-atvorini tuzatadi. K.Xornining fikricha, refleksiya o‘z-o‘zini tahlil etish texnikasini o‘zlashtirishni talab etadi. O‘z-o‘zini tahlil etish, ayniqsa, inson chuqur tushkun kayfiyatga berilgan vaziyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z xulq-atvori haqidagi haqiqatlarning anglanishi turli buzg‘unchi o‘y-xayollardan ozod bo‘lish, o‘quvchini azoblayotgan xavotirlardan ozod bo‘lish imkonini beradi. Haqiqatning anglanishi o‘quvchi ichki dunyosida ma’naviy xavotirni uyg‘otgan taqdirda ham vaziyatdan chiqish yo‘lining anglanishiga xizmat qiladi.

4. Refleksiya uchun qulay muhit yaratishda ichki xotirjamlikni hosil qilish lozim. Y.Orlovning ta’kidlashicha, agar refleksiya relaksatsiya (xotirjamlik) vaziyati bilan uyg‘unlashsa, sog‘lom tafakkur yomon o‘y-xayollar, noto‘g‘ri tasavvurlar, timsollardan xalos bo‘ladi va ularning ongda qayta takrorlanishi stress holatini yuzaga keltirmaydi. Mazkur sharoitda inson vaziyatga moslashadi, agar salbiy emotsiyalar takrorlanganda ham, yomon taassurot yuzaga kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, sog‘lom tafakkur o‘quvchida ijtimoiy voqelikka anglangan, individual va real munosabatni shakllantirish asosida hayotiy maqsad va qat’iy pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. *Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.*
2. *Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi, 2016*
3. *Odob-axloq kitobi. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.*
4. *Jekson A. Sog‘lom bo‘lishning o‘nta siri. Baxtli bo‘lishning o‘nta siri. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016.*
5. *Nazarov Q. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004.*
6. *Xodjayev B. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2016.*
7. *G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1990.*
8. *Ataxanova S. Tafakkur innovatsion ta’lim dasturida // "Sog‘lom avlod uchun" jurnali. 2011. №11. 5-b.*

**Baxriddin SALIMOV,**
Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti o‘qituvchisi,
falsafa fanlari nomzodi

# TA’LIM TIZIMIDA FAN VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING UYG‘UNLIGI

**Annotatsiya**

Maqolada muallif bir nechta yangi noan’anaviy innovatsion ta’lim metodlarini dars jarayonida qo‘llashning tartib-qoidalarini tushuntirib o‘tgan. Tavsiya etilgan metodlar o‘quvchi-talabalarlarning fikrlash doirasi kengayshiga xizmat qilishi, darsga bo‘lgan qiziqishining yanada ortishi bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan.

**Kalit so‘zlar.** Innovatsiya, ta’lim, tarbiya, zamonaviy, bosqich, maqsad, klaster, tahlil, baho, texnologiya.

В статье охарактеризованы некоторые способы применения новых нетрадиционных инновационных методов обучения. Преимущества рекомендованных педагогических технологий заключаются в том, что они помогают расширить возможности мышления учащихся на основе развития их интереса к уроку.

**Ключевые слова.** Инновация, образование, воспитание, современный, этап, задача, кластер, анализ, оценка, технология.

Article describes some ways of using new non-traditional innovative teaching methods of education. Advantages of the recommended pedagogical technologies are that they help to expand students' thinking abilities on the basis of developing their interest in the lesson.

**Key words.** Innovation, education, upbringing, modern, stage, task, cluster, analysis, evaluation, technology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”, degan fikrlari barchamizga katta mas’uliyat yuklaydi. Zero, har bir insonning taqdirida uning maktabda, akademik litseyda, kasb-hunar kollejida va oliy o‘quv yurtlarida olgan ta’lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv dargohlarida ta’lim tarbiyaning sifati esa birinchi navbatda, o‘qituvchi-murabbiylarga bog‘liq. Albatta, doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydigan, yangi pedtexnologiyalar asosida dars berishga harakat qiladigan o‘qituvchilar oramizda ko‘p, ularning iqtidorli o‘quvchi va talabalarining kelgusida yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga shubha yo‘q. Bunda barcha ta’lim tizimining o‘ziga xos o‘rni bo‘lishiga ishonchimiz komil.

Ta’limning texnologik yondashuvida ko‘rinishining umumiy mezoni uning aniq va puxta o‘ylangan maqsadga yo‘naltirilganligidadir. Mazkur holatda asosiy, umumiy hamda yordamchi maqsadlarni amalga oshirish uchun muayyan qonuniyat jarayoni

tizim va unga mos amallar majmui mavjud bo‘lishi taqozo etiladi. Pedagogik texnologiyaning vositaviy yo‘naltirilganligi uning keng imkoniyatlarini ochib beradi. Bu o‘rinda, ta’limning tashkiliy amalga oshirilishi talab etiladigan jarayonlar mohiyatini tahlil etish, ularni saralash o‘quv faoliyati mazmunini hisobga olmagan holda yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur maqolada havola etilayotgan ishimiz noan’anaviy dars usullari hisoblanib, ularni, asosan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qo‘llash maqsadga muvofiq. Ammo ushbu noan’anaviy dars usullaridan o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida foydalanish mutlaqo mumkin emas, degan xulosani keltirib chiqarmaslik kerak. Faqat mazkur noan’anaviy dars usullari ko‘proq umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchisining dunyoqarashiga mos keladi. Bular quyidagilar: “Kim chempion”, “Mantiqiy klaster” va “Muammoli vaziyat: tahlil va yechim” Xuddi mana shunday noan’anaviy dars usullaridan foydalanish o‘quvchilarimizning aql-idrokini, intellektual salohiyatini yanada o‘stirishga xizmat qiladi.

*Kim chempion metodi:* Mazkur noan’anaviy dars usuli, asosan, o‘quvchilarning o‘zaro savol-javobidan iborat. Bunda sinfdagi barcha o‘quvchilar navbat bilan ikkitadan bo‘lib doska yoniga chiqariladi. Vaqtga qarab ular bir-birlariga ikkita yoki undan ko‘proq savol berishadi. Savol-javobda mag‘lub bo‘lgan o‘quvchi o‘rniga o‘tiradi va chempionlik uchun kurashda boshqa ishtirok etmaydi. Savol-javobda bilimi baland kelgan o‘quvchi esa 1 ballga ega bo‘ladi va kurashni davom ettiradi. G‘olib yig‘ilgan ballar soniga qarab aniqlanadi, ya’ni hech kimdan mag‘lub bo‘lmagan o‘quvchi chempion bo‘ladi.

Tan olish kerakki, har ikkala noan’anaviy dars usuli o‘quvchilarni sog‘lom raqobatga, kurashga bir-birlaridan orqada qolmaslikka harakat qilishga o‘rgatib, ularda izlanish, topqirlik hamda o‘qishda va ishda doimo ilg‘or bo‘lishga intilish kabi ijobiy fazilatlarni ro‘yobga chiqaradi.

Noan’anaviy dars usullarida adolat tamoyilining buzilishi yoki buzilmasligi o‘qituvchiga bog‘liq.

“Kim chempion”ligini aniqlash uchun bo‘ladigan bellashuvda o‘quvchilarni bilimlariga, o‘zlashtirish darajalariga qarab guruhlarga bo‘linadilar hamda o‘zaro bellashadilar. Ya’ni a’lochi o‘quvchi bilan a’lo o‘qiydigan, o‘rtacha bilan o‘rta o‘qiydigan o‘quvchi savol-javob qilishi kerak. Shunda sinfdagi yaxshi o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilarning imkoniyatlari ko‘proq ochiladi. Shuningdek, mazkur noan’anaviy dars usullarida adolat tamoyilining ta’minlanish jarayonini o‘quvchilarning o‘zlariga qo‘yib berish mumkin. “Kim chempion” dars usulida o‘qituvchi sinfdagi hamma o‘quvchining ismsharifini qog‘ozga yozib, har birini alohida-alohida konvertga solib qo‘yadi (masalan, 30 ta o‘quvchining ismi sharifi yozilgan 30 ta konvert). Sinfdagi o‘quvchilar navbati bilan konvertlarning xohlaganini oladilar va o‘zlariga raqib ham tanlaydilar. Bu yerda kuchli yoki kuchsiz raqib tushishiga faqat o‘quvchilarning o‘zlari sababchi bo‘ladilar.

Shuni aytish mumkinki, mazkur usul o‘quvchilarda (yoki talabalarda) bilimli insonlar doimo oldingi o‘rinlarda bo‘lishi haqida tushuncha paydo bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlari muhim rol o‘ynashini, shu bilan birga, hayotda yutuq va marralarni egallashlari o‘zlarining xatti-harakatlariga bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ladi.

An’anaviy klaster metodiga ma’lum o‘zgartirishlar kiritgan holda *“Mantiqiy klaster”* deb nomlangan uch bosqichli innovatsion ta’lim texnologiyasidan ham barcha ta’lim muassasalarida foydalanishimiz mumkin:




**1-bosqich.** 1-savol, ya'ni so'z qo'yilib, undan o'nta so'z klaster tarzida chiqarilish vazifasi qo'yiladi.




**2-bosqich.** 1-bosqichda chiqarilgan o'nta so'zning har biridan yana klaster tarzida o'rtacha ikkita, jami yigirmata so'z chiqarilish vazifasi beriladi.

**3-bosqich.** 1-va 2-bosqichda hosil qilingan klaster – so'zlaridan foydalanilgan holda, shuningdek, boshqa so'zlar va so'z birikmalaridan foydalangan holda 1-bosqichda berilgan savolga, ya'ni jamiyat iborasiga qisqacha ta'rif beriladi. Masalan, jamiyat bu

– insonlarning birlikda, ahillikda, jamoa tarzida yashashi bo‘lib, ularni buyuk kelajak, ezgu maqsadlar sari harakatlantiradi. Jamiyatning negizi oila hisoblanib, oilaning mustahkamligi jamiyatning mustahkamligidir…

Yuqorida bayon etilgan, qayta ishlangan klaster metodining afzalligi shundaki, u o‘quvchi-talabalarning fikrlash doirasining kengayishiga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchi o‘ziga berilgan savolga ko‘chirmachilik orqali emas, balki o‘zi tuzgan klaster yordamida javob topadi. Natijada o‘quvchi-talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. Eng muhimi, bu texnologiya qo‘llanilganda, aksariyat o‘quvchi-talabalar berilgan vazifani bajaradilar va baholanadilar. Bu ham ma’lum darajada ularning darsga bo‘lgan qiziqishini ortishiga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalarni barcha fanlar bo‘yicha qo‘llash mumkin. Bunda uning ko‘rinishlari va shakllari o‘sha qo‘llanilayotgan fanning mazmun-mohiyatiga qarab har xil bo‘lishi tabiiy. Misol tariqasida innovatsion texnologiyani “Odobnoma” va “Axloqshunoslik” fanlari bo‘yicha o‘tiladigan darslarda quyidagi usulda qo‘llash tavsiya etiladi. Mazkur metod FSMU va muammoli dars texnologiyalari asosida yaratilgan va u *“Muammoli vaziyat: tahlil va yechim”* deb nomlanadi. Bunda talabalarga quyidagi bitta umumiy savol va undan kelib chiqadigan to‘rtta savol beriladi:

Uyali aloqa vositalaridan me’yoridan ortiq foydalanish muammosi.

1. Uyali aloqa vositalarining ijobiy va salbiy tomonlari.
2. Uyali aloqa vositalaridan me’yoridan ortiq foydalanishning kelib chiqishi va salbiy oqibatlari.
3. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishni tartibga soladigan qanday qonun-qoidalarni bilasiz?
4. Uyali aloqa vositalaridan me’yoridan ortiq foydalanishni tartibga solish bo‘yicha shaxsiy taklif-mulohazalaringiz.

Berilgan metodning mazmun-mohiyatidan ko‘rinib turganidek u o‘quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga, eng muhimi, o‘zlarining fikr-mulohazalarini erkin bayon qilishga va ko‘nikma hosil qilishiga ko‘mak beradi. Unda o‘quvchi-talabalar taraqqiyotning noyob kashfiyotlaridan biri bo‘lgan uyali aloqa vositalarining ahamiyati hamda undan me’yoridan ortiq foydalanishni axloqiy hayotimizga rahna solishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlari haqida fikr-mulohazalarini bildiradilar. Eng asosiysi, talabalar uyali aloqa vositalaridan me’yoridan ortiq foydalanishning hayotimizga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha o‘zlarining asoslangan shaxsiy taklif mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Mazkur metodni o‘quv guruhlaridagi o‘quvchi-talabalarning soniga muvofiq tarzda individual – yakka tartibda yoki guruh tarzida qo‘llash imkoniyatlari bor.

Interfaol usullarning ta’limiy xususiyatlari quyidagilarga bo‘linadi. Bunday interfaol usullar ta’limda subyekt-obyekt faoliyatini ifodalaydi.

1. O‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish: sinf o‘quvchilari kichik guruhlarga bo‘linib, guruhlararo muloqot, bahs-munozara orqali ta’lim beriladi.
2. Interfaol usullarning ta’lim oluvchilarga yo‘naltirilganlik xususiyati, ya’ni shaxsga yondashuvchanligidir. Interfaol usulning bu xususiyati o‘quvchilarning yakka tartibda guruh shaklidagi o‘zaro hamkorligini ifodalaydi. Bunday faoliyatda o‘quvchilarning fikrlash xilma-xilligi namoyon bo‘ladi.
3. Shaxs sifatlarini shakllantirish xususiyati. Interfaol usullar o‘quvchilarni bilishiga qiziqtirish, shu bilan birga, bilimga intilishini, topqirligini oshirib boradi. Bu esa o‘quv-

chining intellektual faolligini, o‘quv harakati sifatini, aqliy izlanishini takomillashtirishga yordam beradi.

4. Izlanish, ijodiy faoliyat ko‘rsatish, o‘zaro hamkorlikni ta’minlashga doir xususiyatlari. Bunda o‘quvchilar yakka va guruh shaklida ijodiy izlanib, izlanish natijalarini tahlil qiladilar. Bu esa darsda o‘quvchining faolligini oshiradi, izlanish, o‘ylab topish uning to‘g‘riligini o‘zaro mulohaza bilan isbotlashga intilishini shakllantiradi.

5. Interfaol usullar o‘quvchining odobli, tartibli bo‘lishi, har bir fikrni o‘ylab, dalil-isbotlar asosida ifodalashga o‘rgatadi.

Ta’kidlash kerakki, ta’lim tizimini barcha bosqichlarida yuqorida bayon etilgan metodlardan tashqari, yana boshqa sinalgan ta’lim metodlardan foydalangan holda dars olib borilsa, maqsadga muvofiqdir. Zero, hozirgi zamon talabi shuki, har bir darsni innovatsion ta’lim texnalogiyalarini qo‘llagan holda olib borishni taqozo etmoqda. Bugungi kun o‘quvchi-talabaga birgina an’anaviy ma’ruza yoki savol-javob usuli bilan dars o‘tib bo‘lmaydi. Shunday ekan, bugungi kun pedagog-o‘qituvchilari zamon bilan hamnafas bo‘lishi, har bir darsni innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda olib borishi shart. Shunda iqtidorli, bilimdon, zukko o‘quvchi-yoshlar soni oshib, ”O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” kabi ezgu maqsadlarimizga erishishimiz imkoniyatlari yanada kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592-b.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” to‘g‘risidagi PQ-3271-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 38-son, 1029-modda.*

*3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.*

***Tahririyat:** Bugungi kunda ta’lim sifat va samaradorligini ta’minlashda noan’anaviy inovatsion ta’lim metodlarini dars jarayonida qo‘llash muallif nazarida ijobiy natija beradi. Haqiqatan ham bunday metodlar o‘quvchi-talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini, aql-idrokini, intellektual salohiyatini o‘stirishga xizmat qiladi.*

**Muhiba RAJABOVA,**
Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 283-maktab
Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

# UMUMIY Oʻ‘RTA TA’LIMDA ADABIYOT DARSLARI SAMARADORLIGINING TAYANCH MEZONLARI

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada umumiy oʻrta ta’lim maktablarida adabiyot darslari samaradorligining tayanch mezonlari yuzasidan ilmiy-metodik fikrlar bayon etilgan. Ta’limning yangicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan talablari va oʻquvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar.** Adabiy-nutqiy kompetensiya, pedagogik mahorat, badiiy asar, badiiy tahlil, texnologiya, motivatsiya, innovatsiya.

В данной статье раскрываются некоторые вопросы по ключевым критериям эффективности уроков литературы в средних общеобразовательных школах. Рассматриваются особенности развития литературоведческих компетенций учащихся.

**Ключевые слова.** Литературно-речевая компетенция, педагогическое мастерство, художественное произведение, поэтический анализ, технология, мотивация, инновация.

Article reveals some questions on the key criteria for the effectiveness of literature lessons in general secondary schools. Considered the peculiarities of development of literary competences of students.

**Key words.** Literary and speech competence, pedagogical skills, artwork, poetic analysis, technology, motivation, innovation, innovate

Mamlakatimizning ta’lim sohasidagi bosh strategik maqsadi – demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalq milliy an’analari, urf-odatlari, umumbashariy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya mazmunini tubdan yangilash, pedagogik jamoalar tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir.

Mustaqil va erkin tafakkurga ega insonda, oʻz navbatida, intiluvchanlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlik sifatlari barqaror boʻladi. Shuning uchun yurtimizda ijodiy salohiyatga ega barkamol avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1].

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. /Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq. – T.: Oʻzbekiston, 2017, 16-b.

Bugun zamonaviy talablar asosida yangilanib borayotgan ta'lim tizimida ayni shu masalalarni hal qilish yuzasidan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. 2012-yildan boshlab ta'lim jarayoniga xorijiy tajribalarga tayangan holda kompetensiyaviy yondashuvning talqin qilinishi, shunga ko'ra yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standartlari va namunaviy fan dasturlarning ishlab chiqilishi, bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazilishi ana shunday samarali ishlar sirasidandir.

Ma'lumki, 2010-yillardan ta'lim sohasidagi mavjud tajribalar, yutuq va kamchiliklar chuqur tahlil qilindi, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limga tegishli Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga, ta'limni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratildi. 2013-yildan esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xorij tajribalarida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan kompetensiyaviy yondashuv keng yo'lga qo'yildi. Chet tilini o'qitishda erishilayotgan muvaffaqiyatlar e'tiborga olinib, uzluksiz majburiy ta'lim tizimi uchun boshqa umumta'lim fanlaridan ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari ishlab chiqildi va tajriba sinovdan o'tkazildi[2].

O'zbekiston Respublikasining kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari ham jahon andozalariga, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga mos ravishda ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi. Bu borada olib borilgan kuzatishlarga ko'ra, kompetentsiyaviy yondashuv asosida yo'lga qo'yilgan ta'lim muhim ijobiy samara berishi aniqlandi va 2017-yil aprel oyida umumiy va o'rta maxsus ta'limning kompetensiyaviy yondashuvdagi DTS tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining yetakchi mutaxassislari bilan o'zaro hamkorlikda tuzilgan mazkur loyihalarda umumta'lim fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit uch bosqichga ajratilgan va ta'lim jarayonida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy fanga oid va tayanch kompetensiyalar mazmuni aniq belgilab berilgan.

Yangilangan DTS va dasturlarda adabiyot faniga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, adabiy ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda shakllantiriladigan adabiy-nutqiy hamda tayanch kompetensiyalar keng yoritilgan. Adabiyot fani dasturida ta'kidlanishicha, "majburiy ta'lim tizimidagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutadi. Adabiy ta'limning bosh maqsadi o'quvchilarda milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, ezgulik, vatanparvarlik, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish, ular haqida xilma-xil talqinlarga duch kelganda ongli va jonli munosabat bildira olishga, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda, ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlar bildirish asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish; shuningdek, o'quvchilarda badiiy asarlarni o'rganib borish jarayonida olam va odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning

[2] Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M. va b.Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. 1-qism. –T.: O'zPFITI, 2015, 21-b.

bir butunligi haqida tasavvur va qarashlarni shakllantirish, kengaytirish, mustahkamlab borish ko'zda tutiladi"[3].

Darhaqiqat, inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirish, uning intellektual rivojini, yetuk shaxs sifatidagi kamolotini ta'minlashda badiiy adabiyot nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, adabiyot xazinasidan o'rin olayotgan har qanday asar, avvalo, yuksak ma'naviyat, estetik zavq manbayi ekanligi bilan, uning ijodkori esa ma'naviyat, ma'rifat jarchisi, ezgulik targ'ibotchisi ekanligi bilan mangulikka daxldor sanaladi. Uzoq shonli tarixiy ildizlarga ega, yuksak ma'naviy ozuqa bera oladigan bugungi o'zbek adabiyotining durdonalari inson dunyoqarashini shakllantirish, tafakkuri, nutqiy faoliyatini o'stirish, did va nafosatini, badiiy idrokini tarbiyalashda, so'z boyligini oshirishda eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'qitiladigan adabiyot darslarida badiiy materiallardan unumli foydalanib, o'quvchi yoshlarimizning adabiy-nutqiy hamda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish, ularning dunyoqarashi, ma'naviy olamini kamol toptirish, komil inson sifatida tarbiyalash hozirgi ta'lim tizimining, xususan, adabiy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir.

Badiiy adabiyot – hayot maktabi. U o'quvchini hayot bilan tanishtiradi, ularda hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Atrof-muhitga, tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi, inson xarakterining murakkabliklarini tushuntiradi, ruhiy qiyofaning rangin qirralarini kashf qilish qobiliyatini, ona Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini o'stiradi. Badiiy adabiyotni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi tarbiyalanadi.

Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'i nazar, uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo'ladi. "Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg'ularini o'tkirlashtiradi, ma'naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi".[4] Shu nuqtayi nazarga ko'ra, adabiyot darslarida badiiy matnlarni o'rganish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

– o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan so'nmas mehr uyg'otish, badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

– badiiy adabiyotning janr va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda asarni tahlil qilishning munosib shakllarini topish va amalda qo'llash malakasini hosil qilishga erishish;

– o'quvchilar og'zaki nutqining adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

– yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olish malakalarining shakllanishiga erishish;

– adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma tarzda yetkazish yo'llarini egallash;

[3] O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari loyihasi. – T., 2016-y.

[4] Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006, 16-b.

– badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go'zallik va nafosatni his etishga o'rgatish;

– badiiy matnni emotsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur hamda ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish. [5]

Adabiy ta'lim maqsadlaridan kelib chiqadigan mazkur vazifalarni to'la-to'kis bajarish jarayonida o'quvchilarning badiiy asarlarni o'qib-o'zlashtirish, tushunish va tushuntirish, poetik matnni tur va janr xususiyatlariga qarab badiiy tahlil qilish, fikrini og'zaki va yozma shakllarda aniq va obrazli ifodalash kabi adabiy-nutqiy kompetensiyalari rivojlanadi, kommunikativ, shaxs sifatida o'z-o'zini boshqarish, axborotlar bilan ishlash, umummadaniy, ijtimoiy faol fuqarolik kabi tayanch kompetensiyalari takomillashadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, yangilangan adabiyot dasturida umumiy o'rta ta'limning 5-9-sinflarida adabiyot fanini o'qitishni ikki yo'nalishda tashkil qilinishi ko'rsatilgan. Bunda "A2" adabiy ta'limni o'rganishning tayanch darajasi bo'lib, boshlang'ich ma'lumotlar o'tiladigan sinflarga, "A2+" adabiy ta'limni o'rganishning kuchaytirilgan darajasi esa, adabiyot fani chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarga mo'ljallangan. Umumiy ta'limning mazkur bosqichida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan adabiy-nutqiy kompetensiyalar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi badiiy asarni o'qish, tushunish va tushuntirish bilan bog'liq kompetensiyalar; ikkinchsi esa badiiy asarni tahlil (analiz, sintez) qilishga aloqador kompetensiyalar hisoblanadi. Mazkur adabiy-nutqiy kompetensiyalar adabiy ta'limni o'rganishning tayanch (A2) va kuchaytirilgan (A2+) darajasiga qarab tavsiflanishi ham adabiyot darslari samaradorligini ta'minlashga munosib xizmat qiladi.

Bugungi zamonaviy pedagogikada adabiy ta'lim maqsadlarini samarali hal qilishda badiiy asarlarni o'rganishga bag'ishlangan mavzularni adabiy tahlil darslari sifatida tashkil qilish, o'quv tahlilini filologik tahlil darajasiga ko'tarishga erishish o'quvchida dasturda belgilangan adabiy-nutqiy hamda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga, uning ijtimoiy faolligini, ruhiy-ma'naviy kamolotini ta'minlashga, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga munosib zamin yaratadi.

O'quvchilarning qaysi yo'nalish va guruhlarda o'qishidan qat'i nazar adabiyot darslarida fan dasturida belgilangan ta'limiy maqsadni munosib darajada hal qilish, o'rganiladigan adabiy asarlarning o'quv tahlili talablarini aks ettirgan badiiy-estetik tahlilini amalga oshirishga erishish pedagogdan yuqori darajadagi ilmiy salohiyat, badiiy tafakkur, metodik tajriba va ijtimoiy-psixologik tafakkurni talab qiladi. Bugun jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari va pedagogik mahorat har bir o'quvchi bilan individual tarzda ishlashni, darsda o'quvchilar faolligini, o'zaro hamkorlikni teng ta'minlashni, o'quvchini tashqi ta'sirlardan himoya qilishni jiddiy taqozo qilmoqda.

Adabiyot darslarida badiiy asarni o'rganish bilan bog'liq jihatlarni, asosan, badiiy tahlil shaklida tashkillashtirish lozim, natijada o'quvchi badiiy adabiyotga o'zgacha qiziqish bilan munosabat bildiradi. Adabiyotni, adabiy asarni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad mukammal tahlil vositasidagina o'zining munosib yechimini topa oladi. Badiiy tahlil jarayonida o'quvchilar shunchaki adabiyotning noyob durdonalari, sara asarlar mazmunini o'zlashtirishlari, muayyan axborotga ega bo'lishlari mumkin. De-

[5] O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari loyihasi. –T., 2016.

mak, adabiy ta'lim jarayonida, badiiy asarni o'qib-o'zlashtirishda, badiiyatga daxldor nazariy ma'lumot va tushunchalarni shakllantirishda, shu asnoda ma'naviy barkamol shaxslarni, intellektual kadrlarni tarbiyalashda, o'quvchilar qalbida badiiyatga, nafosatga, ezgulikka muhabbat uyg'otishda ham adabiy asarlarning, adabiyot darslarining, badiiy didaktik tahlilning xizmatlari nihoyatda beqiyos.

Adabiyot yuksak badiiy didli barkamol shaxsni shakllantirar ekan, adabiy ta'lim jarayonining amalga oshishi ijtimoiy-psixologik, pedagogik, didaktik va ma'naviy-ma'rifiy omillar mazmunida kuzatiladi. Mazkur omillar adabiyot darslari mazmuniga singdirib yuborilganda hamda mavzular mohiyatini yoritishda adabiyot dasturlari mazmuniga tayanilganda, o'quv tahlili talablari o'zining munosib yechimini topganda, adabiy ta'lim samaradorligi oshadi va dasturiy talablar maqsadli yechim topadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

*1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. /O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston, 2017, 16-b.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. Adabiyot fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari loyihasi. – T., 2016.*

*3. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006, 16-b.*

*4. Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M. va b. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. 1-qism. – T.: O'zPFITI, 2015, 21-b.*

---

***Tahririyat:** Muallif fikricha, badiiy adabiyot bu – hayot maktabi. Darhaqiqat, inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, uning intellektual rivoji, yetuk shaxs sifatidagi kamolotini ta'minlashda badiiy adabiyot nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Shuning uchun muallif mas'uliyatni his etgan holda adabiyot fanini o'qitishning tayanch mezonlarini ishlab chiqqan. Uning taklif etayotgan ushbu mezonlari amaliyotda o'z isbotini topsa, natija samarali bo'lishi shubhasizdir.*

**Dilfuza ISMAILOVA,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 4-kurs talabasi

# O‘ZBEK TILI FANINI INTEGRATSIYA ASOSIDA O‘RGANISHNING MUHIM SHAKLLARI

**Annotatsiya**

Maqolada “O‘zbek tili” fanini integratsiyalash orqali o‘qitishga doir metodik tavsiyalar berilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida integrativ, tizimli va majmuaviy yondashuvning imkoniyatlari yoritilgan hamda o‘qitish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma berilgan.
**Kalit so‘zlar.** Integratsiya, ta’lim-tarbiya, predmet, funksiya, didaktika, metodika, adabiyot, tarix, geografiya, matematika, fizika, botanika, sifat.

В этой статье представлены методические рекомендации о возможностях обучения через интеграцию предмета “Узбекский язык”, на основе системного и комплексного подхода к учебно – воспитательному процессу.
**Ключевые слова.** Интеграция, преподавание, предмет, функция, дидактика, методология, литература, история, география, математика, физика, ботаника, качество.

Article presents methodological recommendations on the possibilities of teaching through the integration of the subject "Uzbek language", on the basis of a systematic and integrated approach to the teaching and upbringing process.
**Key words.** Integration, teaching, subject, function, didactics, methodology, literature, history, geography, mathematics, physics, botany, quality.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarda o‘z aksini topmoqda. Bunday o‘zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni kamol toptirish bilan chambarchas bog‘liq. Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g‘oyaviy-siyosiy, ta’limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro munosabatlariga bog‘liq.

Pedagogika fanida XX asrning 80-yillaridan boshlab integratsiya, o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sir, sintez kabi tushunchalar qo‘llanilgan ilmiy ishlar paydo bo‘lib, ta’lim-tarbiya ishida integratsiya muammosining dolzarbligi sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta’lim-tarbiya ishiga integrativ yondashuv g‘oyasi xususiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

Integratsiya (lot. Integeration – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) sintezlash bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma’nosida tushuniladi. Ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda, o‘zaro uzviy aloqador,

bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya'ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz.

Integratsiyalashtirish jarayonlari hozirgi zamon ilmiy bilimlarining o'zaro ta'siridan farqli o'laroq quyidagi yo'nalishlarda kechishi mumkin:

– alohida olingan fan doirasida ichki ilmiy rivojlanish sifatida;

– fanlararo o'zaro aloqadorlik doirasida, ya'ni bir yoki bir necha sohalar doirasida;

– maxsus yaxlit ilmiy bilimlar doirasida.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar uyg'unligini integrativ yondashuv sifatida tasavvur etish mumkin. Ikki va undan ortiq nisbatan mustaqil qismlarda kechayotgan jarayonlarni birlashtirish – integratsiyalashtirishning natijasi bo'lishi mumkin.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik deb ham ataymiz.

Fanlarni integratsiyalab o'rganish quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:

– mazmuni va uni amalga oshirish shart-sharoitlari va vositalarini o'rganish;

– nazariy va pedagogik-uslubiy asoslari bilan tanishish;

– bilish faolligi, mustaqilligi va bilimlar darajasini integrativ oshirishda bilimlarning dolzarbligini isbotlash;

– iqtisodiy, tashkiliy, ruhiy-pedagogik, texnik-texnologik bilimlarni sintezlash talablari, imkoniyatlarini aniqlash.

Ba'zan ta'lim-tarbiya ishida integrativ, tizimli va majmuaviy yondashuvlar sinonim sifatida talqin etiladi. Bu tushunchalarning umumiy tomonlarini o'rganilayotgan obyektlarning turli qirra, tomon va xususiyatlari tashkil etadi. Lekin ular bir-biridan mohiyatiga ko'ra ham farqlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit obyektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin.

Integratsiya muammosini didaktik jihatdan tadqiq etilishi – uni ta'lim prinsipi sifatida talqin etilishini talab etadi. Metodik nuqtayi nazardan olib qaraganda integratsiya ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi va ko'zlangan natijani kafolatlovchi shart-sharoit va usul deb tadqiq etilishidir.

Integrativ yondashuv ilmiylik, kasbiy yo'nalganlik, politexnizm, uzviylik, muntazamlik, tizimlilik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik, tabaqalashtirish kabi didaktik prinsiplar bilan aloqadorlik hamda uyg'unlikda amalga oshiriladi. O'z navbatida, integrativ yondashuv ham hech qachon boshqa didaktik prinsiplarga o'xshab o'qituvchiga biror tayyor retsept bermaydi, ammo undan foydalanilgan holda didaktik va metodik masalalar yechimini aniqlaydi.

O'quv materiali mazmunini integratsiyalash didaktik jarayon sifatida ko'p qirrali, ko'p o'lchovli, tizim shaklidagi tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Uni tahlil qilish (o'rganish) tizimli-tuzilmaviy yondashuvni talab etadi.

Chunki uning funksiyasi, tarkibi, tuzilishi va shu kabi muhim xususiyatlarini o'rganish ko'zda tutiladi. Maxsus fanlarni integratsiyalashda ulardagi barcha xarakterli xususiyatlarni sintezlash emas, balki eng muhim va umumiy g'oyalar, muammolarni sintezlash ko'zda tutiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o‘quv rejalar va dasturlarga o‘tish davrida jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabat o‘rnatish va shakllanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy didaktika va metodikada ta’kidlanishicha, o‘quvchilarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchani shakllanganligini, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo‘lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog‘liq.

Ta’limdagi integratsiya o‘quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko‘rib chiqiladi.

O‘quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘li bo‘lib, predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv – differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo‘lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo‘naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o‘qituvchilarga yordam berishdir. Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o‘rganib, keyin boshqa fanlarni o‘rganishga qiynaladi, ularda mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o‘xshash yoki yangi vaziyatlarga ko‘chira bilish ko‘nikmalari yetishmaydi.

Bularning hammasi dars jarayonida turli fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarning o‘zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo‘lmoqda. Bu holatda integratsiya bir predmet bo‘yicha bilimlarni ikkinchisiga ko‘chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo‘nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir.

Ma’lumki, Ona (O‘zbek) tili fani o‘quvchilarga boshlang‘ish ta’limdan boshlab o‘qitiladi. Aynan shu davrda o‘quvchilarda dunyoni anglashga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi. Yuqori sinflarda esa o‘z dunyoqarashini o‘rganayotgan bilimlari asosida oshib boradi. O‘quvchilarda bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda Ona (O‘zbek) tili fanining tutgan o‘rni ham beqiyosdir. Ayniqsa, o‘quvchilar 5-sinfga qadam qo‘ygan davrda ularning ongi va dunyoqarishida bo‘layotgan o‘zgarishlar kengayadi. Uning eng asosiy sababi adabiyot, tarix, geografiya, matematika, fizika, botanika va boshqa fanlarni o‘rganishda yangi so‘zlarga duch kelishidir. Bu so‘zlarga 5-sinf “Ona tili” fanida “Tilning boyish yo‘llari”, “Eskirgan so‘zlar”, “Yangi so‘zlar”, “Ilmiy atamalar”, “Kasbiy atamalar”, “Shevaga xos so’zlar” va “Olinma so‘zlar” kabi darslarida keng ma’lumot va tushuncha beriladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mulohazalarga asoslangan holda “yangi uchrayotgan so‘zlar” mazmunini 5-sinf Ona tili fanini adabiyot, tarix, geografiya, botanika va boshqa fanlarda uchrayotgan so‘zlarni birlashtirish – integratsiyalashtirishning natijasi bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda biz o‘qituvchilarning asosiy vazifamiz o‘sib kelayotgan avlodni ma’naviy yetuk, mustaqil, erkin fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalashimiz eng dolzarb masalalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuni qayd etish kerakki, hozirgi kun o‘quvchilari juda ziyrak, izlanivchan, harakatchan, zimmalaridagi mas’uliyatga jiddiy yondashishi lozim. Fikrlarimizni qanchalik

oddiy, sodda misollar orqali tushuntirsak, o‘quvchilar shunchalik oson qabul qilishadi.

Shu o‘rinda, umumta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Ona tili” darsligi asosida tayyorlangan “Jadvalni to‘ldiring” usulini (1-jadval) misol sifatida keltirish mumkin. Bu esa, o‘zaro aloqadorlikda o‘qitishda va undan ko‘zlangan maqsadga erishishda qo‘l keladi.

Avvalo, o‘qituvchi mavzu ustida ishlash uchun qaysi fanga murojaat qilishni aniqlab, o‘quvchilarga yo‘nalish beradi.

Unda keltirilgan so‘zning qaysi tildan olingani, ma’nosi, sohasi, mazmuni, ahamiyati va boshqa jihatlari nazarda tutilishi lozim.

Jadvalni to‘ldirish 5 bosqichni o‘zida qamrab oladi:

1-bosqich. Muayyan so‘zni ajratib olish.

2-bosqich. Qaysi tildan olinganligini aniqlash.

3-bosqich. Leksik (lug‘aviy) ma’nosini bilib olish.

4-bosqich. Qaysi sohada qo‘llanilishini aniqlash.

5-bosqich. So‘zdan foydalanib gap tuzish.

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING BOYISH MANBALARI

Ayrim misollar:

“Eskirgan so‘zlar”– rayon, oblast.

“Yangi so‘zlar”– monitor, internet.

“Ilmiy atamalar”– arxeologiya, etnografiya.

“Kasbiy atamalar”– zootexnik, agrotexnik.

“Shevaga xos so‘zlar”– uchak, go‘rmak, inak.

“Olinma so‘zlar”– radio, televizor, tramvay, kollej, litsey.

*1-jadval.*

**“Jadvalni to‘ldiring” usuli ustida ishlash namunasi**

| № | BOSQICHLAR | SO‘Z |
|---|---|---|
| 1. | Muayyan so‘zni ajratib olish. | Arxeologiya |
| 2. | Qaysi tildan olinganligini aniqlash. | yunoncha “arxayos” – qadimgi, “logos” – fan, degan so‘zlardan tashkil topgan |
| 3. | Leksik (lug‘aviy) ma’nosini bilib olish. | ashyoviy manbalarni o‘rganuvchi va ular bo‘yicha tarixiy o‘tmishni qayta tiklovchi fan |
| 4. | Qaysi sohada qo’llanilishini aniqlash. | Tarix |
| 5. | So‘zdan foydalanib gap tuzish. | Mustaqillik yillarida arxeologiya fani ancha rivoj topdi. |

O‘quvchilarga yangi so‘zlarni shu usulda ular onggiga singdirish nafaqat so‘zlarni mazmunan o‘rganishi uchun, balki aloqador fanni yanada chuqur anglashiga ko‘mak beradi.

Shuning uchun ham ta’lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o‘zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta’sirida shaxs kamolotini ta’minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim muassasalarida o‘quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asos-

larining o‘quvchilar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Fan o‘qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o‘quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko‘rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Kichik yoshqagi o‘quvchilar so‘zning qanday qismlardan tuzilganligini va har bir qismning mohiyatini ongli o‘zlashtirishga qiynaladilar. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda so‘z tarkibi haqida tushuncha berish osonlikcha amalga oshmaydi.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘strishga yordam beruvchi omillarni aniqlashga imkon beradigan nazorat usullari, nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish kabi samarali ishlarga o‘rin ajratilganligi ijobiy holatdir.

Yuqoridagi fikrlarga xotima yasab aytganda, tizimli, majmuaviy va integrativ yondashuvlarning umumiylik jihatlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos tafovutlarga ham egadir. Umuman olganda, integrativ yondashuvga tizimli va majmuaviy yondashuvlarning natijasi sifatida qarash mumkin.

Demak, integratsiya – o‘quvchining turli fanlar bo‘yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbayi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.*

*2. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: O‘qituvchi, 1995.*

*3. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009.*

*4. J. Michael Spector: Foundations of Educational Technology: Integrative Approaches and Interdisciplinary*

*5. Perspectives (Interdisciplinary Approaches to Educational Technology), 2nd Edition. Routledge, 2016.*

*6. Tom Kubiszyn and Gary D. Borich: Educational Testing and Measurement: Classroom Application and Practice, 11th Edition. John Wiley and Sons, Inc. 2009.*

**Mashxura BOYCHIBOYEVA,**
Namangan viloyati Uchqurg'on tumani
27-maktab o'qituvchisi

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI NATIJALARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalarning dars jarayonidagi afzalliklari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik mahorati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Axborot-kommunikatsion texnologiyalar, poydevor, tenglama, undoshlar, tahlil, taqlid, lider, test, samaradorlik.

В статье  отмечается положительное влияние использования информационно-коммуникационых технологий в процессе урока и на повышение квалификации педагогов.

**Ключевые слова.** Информационно-коммуникационые технологии, основа, уравнение, анализ, подобие, лидер, тест, эффективность.

Article notes the positive impact of the use of information and communication technologies in the process of the lesson and on the improvement of the qualifications of teachers.

**Key words.** Information and communication technologies, basis, equation, analysis, similarity, leader, test, efficiency.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga berilayotgan ta'lim sifatiga katta e'tibor berilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tak'kidlaganidek, "Biz farzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga erishishdek oliy maqsadlarimiz ruhida tarbiyalashimiz, ularni ana shu maqsadlar sari yetaklashimiz kerak".

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ham bu vazifalar kuchli mas'uliyat talab qiladi. Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi ilk maktab yoshidan boshlanganda ijobiy natija berishini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki boshlang'ich sinf bamisoli poydevor, poydevori mustahkam bino esa pishiq va samaralidir. Oilasi, el-yurti tinch, Vataniga hurmat ruhida tarbiyalanayotgan bugungi kun yoshlari esa o'z bilim va tafakkurlari, izlanish va intilishlari, hayot bilan hamnafas ekanliklari, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan

boxabar ekanliklarini namoyon eta olishlari biz erishayotgan yutuqlarimizni sarhisob etib bera oladi.

Har bir dars jarayonida mashg‘ulotni qiziqarli va mazmunli tashkil eta olish, o‘quvchilar diqqatini jamlay olishda AKTdan foydalanish samarali natija bermoqda, chunki axborot oqimidan oqilona foydalanish o‘quvchi fikr doirasining kengayishiga amaliy yordam beradi. O‘quvchilarda uzluksiz o‘z ustida mustaqil ishlash imkoniyati tug‘iladi. Ular o‘rgangan manbani “tahlil qilish” va “taqqoslash” xususiyatlarini ham mustaqil ong orqali bajarishadi.

Hozirgi kunda respublikamiz maktablarining 80 foizidan ortig‘i eng zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari, kompyuter sinflari, elektron darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar bilan jihozlangan.

Gap shundaki, kompyuter texnikasi faqatgina tor doirada “Informatika” fanidagina emas, balki uni boshqa fanlarni o‘qitish jarayoniga, ayniqsa, elektron darsliklar asosida harakatli, didaktik, ko‘rgazmalik, tovushli, sermazmun tarzda qo‘llash ustida ketmoqda.

AKTdan maktabda erkin foydalanish, ya’ni maktab kutubxonalarida tashkil etilgan axborot resurs markazlari (ARM) zamonaviy texnika vositalari hamda kompyuter bilan ta’minlanganligi, AKTdan maktab rahbariyati tomonidan ish yuritish tizimini boshqarishda foydalanish ko‘zda tutilgan.

Bu tabiiyki, xalqaro internet tizimi, elektron pochta, turli rasmiy ish yuritish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Fan xonalarida o‘qituvchining AKTdan foydalanishi, o‘z malakasini muttasil oshirib borishi va o‘quv jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi, ko‘rgazmali qurollar va o‘quv materiallar tayyorlashi uchun yakka kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun o‘qituvchilar, mutaxassislar bevosita AKTdan foydalanishni mukammal bilishlari va o‘quvchilarni AKT imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishlari kerak.

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘p qismi maktabga chiqmasdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishmoqda. Ular kompyuter orqali har xil o‘yinlarni o‘ynashni, kompyuter qismlaridan qanday foydalanishni bog‘cha yoshidanoq o‘rganib olmoqda. Shularni e’tiborga olib, boshlang‘ich ta’limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda. Har yili o‘tkaziladigan avgust kengashlarining shu’ba yig‘ilishlarida ham aynan muhokama qilinishi kerak bo‘lgan masalalar qatoriga “Boshlang‘ich sinflarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusi kiritilgan. O‘qish, ona tili, matematika, tabiat, musiqa, texnologiya darslari bo‘yicha dasturlar asosida tayyorlangan animatsiyali, syujetli, videoroliklardan, slaydlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, boshlang‘ich sinflarda atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik darslarida AKTni qo‘llash o‘quvchilar uchun o‘z hududi va bolani o‘rab turgan tabiatga bo‘lgan mehr va muhabbatini anglagan holda ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Ona tili va o‘qish darslarida mavzuning aniq ma’lumotlarini tushunib olishga, kalit so‘zlar bilan tanishishga, matnda asar qahramonlari, voqealar ketma-ketligi bilan tanishishga imkon beradi. Texnologiya darslarida yangi g‘oyalarning vujudga kelish imkonini beradi. Musiqa va salomatlik darslarida videoroliklar, slaydlar o‘quvchilarning mavzuni jonli o‘zlashtirishlari uchun samarali natija beradi. Ushbu yilda boshlang‘ich sinf, jumladan, 1-sinflarning predmetlari uchun ta’lim markazi va multimedia markazi tomonidan multimediali elektron qo‘llanmalar tayyorlandi. Multimediali elektron qo‘llanmaning afzallik tomonlaridan biri mavzularga tegishli animatsiyalardan gipermurojaatlash yordamida foydalanish imkoniyati mavjud. Animatsiyalar harakat va ovoz bilan boyitilishi evaziga o‘quv materi-

allarining mazmunini kengroq va tushunarli tarzda yoritib beradi. Yosh bola, go‘dak telefondan taralayotgan kuyni tinglab, uni beixtiyor qo‘li bilan ushlashga intiladi, yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari AKT orqali namoyish etilgan multfilmni ko‘rayotganlarida go‘yo o‘zlarini o‘sha olamga tushib qolgandek his etib qolishadi.

O‘quvchidan ko‘rganlarini aytib berish so‘ralganda u bemalol hikoya qilib berishi orqali bolada tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi.

2-sinf o‘quvchilariga matematika darsida tenglama mavzusi kompyuter orqali tushuntirildi va tenglamali misollar ketma-ketligi vazifa qilib berildi. Doskadagi misolni to‘g‘ri ishlagan o‘quvchi kompyuterdan tenglamani yozib olish huquqiga ega. O‘quvchi misolni tez va to‘g‘ri bajarishga intildi va kompyuterdan tegishli misolni ko‘chirib oldi, so‘ng keyingi o‘quvchiga “sen ham uddalay olasanmi” degandek g‘ururlanib qarab qo‘ydi. Demak, ular bir-birlarini ham izlanishga majburlayapti (ixtiyoriy ravishda).

O‘qituvchi mustaqil tayyorlagan ko‘rgazmasini monitor (ekran) orqali namoyish etganda birinchidan eng orqadagi bola, o‘quvchi bemalol ko‘ra oladi va hamma bilan bir vaqtda uni bajarishga harakat qiladi. Masalan, do‘st, go‘sht, g‘isht...kabi so‘zlardagi talaffuzda tushib qoladigan undoshlar muammoli tarzda namoyish etilsa, o‘quvchi darhol uni ish daftarida bajarishga intiladi. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchining o‘z qobiliyatini yuzaga chiqarishga intilayotganini darhol sezadi va nisbatan o‘zlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchilarni aniqlab, ular bilan alohida ishlash uchun o‘ziga reja tuzadi. Yoki rus tili, ingliz tili darslarida ham ko‘rib va eshitib o‘rganish, taqlid qilish orqali o‘quvchida bilim manbayi o‘sib boradi. E’tiborli tomoni shundaki, o‘quvchi yangilikka qiziquvchan bo‘lganligi sababli monitorda berilgan savollarga do‘stlaridan oldin javob berishga intiladi.

Informatika xonasida test olish jarayonida o‘quvchilar garchi AKT olamiga endi kirib kelgan bo‘lsalarda bemalol savollarga javob berish va “keyingi” tugmasini bosib, qisqa vaqtda aniq va to‘g‘ri javob berishga harakat qiladilar. Chunki o‘quvchi sinfda har sohada “lider” bo‘lishga intiladi.

O‘quvchilarga “Ziyonet” saytidan “Kutubxona” sahifasiga kirib, elektron darslikdagi misol va masalalar ko‘rsatilganda, ular darslikdagi mavzularni monitorda ko‘rib, qiziqish bilan darsda faol ishtirok etdilar.

Demak, zamonaviy ta’lim berishning eng ilg‘or yo‘nalishidan biri deb AKTdan o‘z o‘rnida keng qo‘llay olish, foydalanishni ayta olishimiz mumkin.

“Kompyuter savodxonligi” yuqori deb ta’kidlab o‘tilayotgan ziyo maskanlarida avvalo, o‘qituvchi kompyuterni puxta bilishi va undan dars vaqtida mustaqil keng qo‘llay olishi o‘quvchilarni shu yo‘ldan borishga undaydi. Masalan, bir marta kompyuterda test bajargan o‘quvchi keyingi safar qachon test bajarishini intizor bo‘lib kutadi. Sababi, o‘qituvchi test natijalari (qog‘oz varianti)ni keyingi darsda e’lon qilsa, kompyuterda esa test yakunida o‘z balini biladi va hattoki, ijobiy ball ola olmasa qayta topshirib ko‘rishni so‘raydi. O‘quvchilar o‘rtasida dars jarayonida raqobat rivojlanadi. Raqobat bor joyda esa o‘sish bo‘ladi, o‘sish esa o‘z natijasini ko‘rsatadi.

Odatda pedagog “bola yetaklovchi” deb e’tirof etiladi. Shunday ekan, u hamisha bolani zeriktirmay, charchatmay yetaklamog‘i lozim. Buning uchun pedagog yuksak saviyali, bilimdon, har qanday sharoitda ham muammoli vaziyatdan chiqib ketishga shay turishi lozim.

O‘quv-tarbiya faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi. Kompyuter o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida vosita bo‘lib xizmat qiladi.

AKTdan foydalanishda o'quvchilar yoshiga va fiziologik xususiyatlariga mos manbalardan foydalanishimiz o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida 70-80 foizgacha samaradorlikka erishishimizga olib keladi. Shuningdek, imkoniyatdan kelib chiqqan holda DVD va VSD pleyerlardan samarali foydalanishimiz orqali o'quv materialini to'liq o'zlashtirilishiga erishish mumkin.

Biroq o'quvchilarga axborot davrida yashayotganligimizni uqtirib o'tish jarayonida internetning turli sayt va sahifalaridan ehtiyot bo'lib foydalanish zarurligini, undan ezgu niyat yo'lida va jahon andozasiga javob bera oladigan kuchli tafakkur egalari bo'lib foydalanish zarurligini, kelajakda turmush tarzining manfaat keltiradigan sohalarida foydalanish mumkinligini, hayot uchun xavfli deb baholangan, axloqsizlik va bema'ni xorijiy xurujlardan saqlanish maqbul yo'l ekanini qayta-qayta o'quvchilarga uqtirib, yoshlikdan ular ongiga singdirib borish zarur ekanini yoddan chiqarmaslik kerak. Shundagina o'quvchilar yuqori sinflarga o'tganda (mobil telefonlardan foydalanmaydi deb ayta olmaymiz) internetdagi ma'lumotlarni to'g'ri anglab yetadi, vayronkor g'oyalarga moyil bo'lmay, aksincha, bunyodkor g'oyalarning insoniylik tamoyillariga tayanib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishlari, Vatan ravnaqi uchun muhim shaxs ekanliklarini anglab yetadilar, ijobiy yangiliklarning faol ishtirokchisiga aylanib, istiqbolli rejalarni amalga oshirish muhim ekanini tushunib yetadilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsion texnologiyalari o'quvchilarning mustaqillik va o'zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi, o'quvchining hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi. Asosiysi, u o'quvchilarning kommunikativ ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga va ular o'rtasidagi hissiy muloqotni o'rnatilishiga yordam beradi, kompyuter bilan ishlashga o'rgatadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, dars jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish dars mavzusining muammoli masalalariga diqqatni qaratish imkonini beradi. Axborot-kommunikatson texnologiyalarni o'quvchilarga ular maktabda ta'lim olishni boshlangan vaqtdan ommaviy ravishda o'qitishni boshlash kerak, chunki bu davrda o'quvchilarda ko'nikmalar tez shakllanadi. Xullas, dars jarayonini axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali tashkil etish o'ziga xos sifat va samaradorlikni ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.*

*2. Ergashev Sh., Kalantarov A. Umumta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion muhitni shakllantirish va rivojlantirishda elektron axborot-ta'lim resurslarning o'rni va ahamiyati. – T.: "Xalq ta'limi" jurnali, 2016-yil, 4-son.*

**Fotima PRIMOVA,**
Toshkent Davlat texnika universiteti
Falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti

# OLIY TA'LIMDA MODULLI O'QITISH TIZIMI VA UNING AFZALLIKLARI

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim asosidagi modulli o'qitish, uning o'quv-uslubiy asoslari, afzalliklari hamda bu borada ta'lim sifatini oshirishning istiqbollari va imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Modul, modulli topshiriqlar, oliy ta'lim tizimi, talaba, professor-o'qituvchi, o'quv jarayoni, reja va dastur, nazariy-uslubiy tahlil.

В статье изложены учебно-методические основы, перспективы, преимущества и возможности инновационного обучения в сфере модульной технологии и в повышении качества образования.

**Ключевые слова.** Модуль, модульные задания, система высшего образования, студент, профессор-преподаватель, учебный процесс, план и программа, научно-методический анализ.

Article outlines the educational and methodological foundations, prospects, advantages and opportunities for innovative training in the field of modular technology and in improving the quality of education.

**Key words.** Module, modular assignments, higher education system, student, professor-teacher, educational process, plan and program, scientific and methodical analysis.

Ta'lim tizimini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning o'quv-uslubiy, moddiy-texnika bazasini xalqaro talablar darajasiga ko'tarish, zamon talablariga javob beradigan, salohiyatli kadrlar tayyorlash va jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eng muhimi, xalqaro andozalarga javob beradigan ta'lim tizimini shakllantirish, uning o'quv-metodik bazasini yanada mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish, oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ushbu muassasalarda yoshlarning har tomonlama intellektual bilim olishlari uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, bilim va malakalarini yuksaltirish zarurligi tobora ayon bo'lmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonlarida ko'plab samarali texnologiyalardan foydalanib, ta'lim sifatini ko'tarishga erishilmoqda. Shunday texnologiyalaridan biri modulli o'qitishdir. Modulli o'qitish texnologiyasi modullarga asoslanadi.

Shu o'rinda modul tushunchasiga aniqlik kiritaylik. "Modul" lotincha so'z bo'lib, "qism" yoki "bo'lak", "blok" degan ma'noni bildiradi. Demak, modul – pedagogik

texnologiyani tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha modulni olishiga qarab tegishlicha darajadagi modullar deb atash mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng kichik modullari asosiy tushuncha bo'lib, ular go'yoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi “g'ishtcha”lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega. Bunda kichik modul, modul to'plami, birlamchi modul va modul darajasi degan tushunchalardan foydalaniladi.

Ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda dars mavzusi mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni talabalar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlar tuziladi. Har bir modul yakunida nazorat ishlari o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Modul texnologiyasining mohiyati – ta'lim jarayonini modullar (o'quv predmeti va uning bo'limlari mazmunini tartibga solish, ta'limning muayyan bosqichidan boshlab bo'linmaydigan kasbiy faoliyatni mantiqan tugallangan qismlarga ajratish) asosida loyihalashtirishdan iborat. So'ngra ajratilgan har bir modul bo'yicha shu modulning o'zigagina taalluqli bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'siri doirasi belgilanadi.

Modul texnologiyasi maqsadini ro'yobga chiqarish uchun modul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda sodir etilayotgan har bir harakatga o'quv elementi sifatida qaraladi. Modul texnologiyasi o'quv elementi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

– faoliyatning aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq nazariy va amaliy axborotlar;

– ta'lim uchun zarur bo'lgan faoliyatni ta'minlovchi materiallar haqidagi ma'lumotlar;

– maqsadlar identifikatsiyasi;

– o'quv materiallari;

– o'quv sharoitini nazorat qilish (o'quvchilarning ko'zlangan natijalarga erishishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, testlar, maqsad etaloni va boshqalar).

Shu tariqa joriy etilgan modulli o'qitish tizimi ta'limni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Umuman, o'qitishing modulli tizimida asosiy mezon – elektron faoliyatga asoslanadi, ya'ni o'qituvchi tomonidan tayyorlangan har bir fan bo'yicha ma'lumotlar bazasi (papkasi)ning elektron varianti oliy ta'lim muassasasi saytiga joylashtirilgan bo'lishi shart. Sababi undan nafaqat o'qituvchi, balki talaba ham foydalanishi lozim. Professor-o'qituvchi ma'lumotlar bazasiga quyidagi tartibda joylashtiriladi:

Birinchi ma'lumotlar bazasida – fanning o'quv uslubiy ta'minoti, ya'ni o'quv dasturi, tarqatma materiallari, mustaqil ta'lim mavzulari, fan yangiliklari, umumiy savollar, fan va ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar;

Ikkinchi ma'lumotlar bazasida – modulli topshiriqlar, ya'ni keys stadi, baholash tizimi, reyting bali natijalari, oraliq va yakuniy savollar;

Uchinchi ma'lumotlar bazasida – har bir mavzu bo'yicha ta'lim texnologiyalari, tarqatma materiallar, keys stadi, taqdimotlar va ma'ruzalar matni bo'lishi lozim.

Mazkur tizimning o'ziga xos ajralib turuvchi jihatlari quyidagilardir:

– talabaning oliy ta’lim muassasasi sayti orqali har bir mavzu yuzasidan topshiriqlarni bajarish va uning natijalarini bilish uchun o‘qituvchining elektron manzilidan zarur ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega ekanligi;

– talaba tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni ma’lumotlar bazasidan tezkor va sifatli olish imkoniyatining mavjudligi;

– talabaning o‘z bilimini doimiy mustahkamlash va o‘zini-o‘zi nazorat qilishda elektron jurnal, elektron dekanat, elektron vedomostga tayanishi;

– talabaning o‘zlashtirilayotgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni doimiy ravishda nazorat qilish, solishtirish imkoniyatlarining mavjudligi;

– talabaning o‘quv yili yoki semestr jarayonida olgan bilimlari natijalari, o‘quv fani bo‘yicha to‘plagan reyting ballari, olgan baholari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lib borishi;

– o‘quv jarayonining har bir semestri oxirida umumiy to‘plagan ballari natijalarini ma’lumotlar bazasidan elektron tarzda tekshirish imkoniyatlarining mavjudligi;

– an’anaviy ta’lim berish usulidan, ya’ni eski pedagogik faoliyat jarayonlaridan texnik, metodik hamda uslubiy jihatdan farq qilishi;

– oliy ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan ma’lumotlar bazasidan o‘qituvchining o‘quv-uslubiy faoliyatini elektron tizim asosida obyektiv tarzda (ya’ni, har qanday qog‘ozbozliklardan xoli) doimiy nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi.

Modulli tizim avvalambor quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutadi. Bular – talabaning vaqtdan unumli foydalanishi va professor-o‘qituvchi faoliyatiga ham baho berish imkoniyatining yuzaga kelishi, talabaning intellektual jihatdan yuqori darajada rivojlanishini ta’minlaydigan, o‘qituvchi bilan o‘zaro hamkorlikni yaqinlashtiradigan, o‘zini o‘zi nazorat qilishga yetaklovchi eng tezkor muqobil variantdir. U talabaga o‘z faoliyati doirasida yangiliklar yaratish imkoniyatini ham beradi.

Ushbu tizim professor-o‘qituvchiga ham bir qancha imkoniyatlarni yaratadi. Ular quyidagilar bilan tavsiflanadi. Ya’ni, talabani tezkor nazorat qila olish, o‘z kasbiy faoliyatini tizimli tahlil etish, o‘z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lish, metodik, ilmiy faoliyatini baholay olish, mutaxassisligi bo‘yicha yangiliklarga ega bo‘lish, o‘z g‘oya va maqsadlarini kasbiy faoliyatda tezkor mujassamlashtirishga intilish kabilardir. Shuningdek, o‘qituvchining innovatsion faoliyatini takomillashtirish, yangiliklarni tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish imkoniyatlarini ham beradi.

Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida bugungi kundagi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, reja va dasturlar mazmunini mazkur tizim asosida shakllantirish zarurati tug‘ilmoqda. Bu jarayonda modulli tizim asosida o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish va to‘g‘rilash hamda samarali baholash imkoniyatlaridir. Buning uchun bizningcha quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim:

– oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonining sodda va muqobil yo‘nalishlarini shakllantirish;

– o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil etgan holda ish olib borish;

– o‘quv fanlarining o‘quv-uslubiy majmualari, keyslar to‘plami va amaliy topshiriqlarni yangicha mazmunda tashkil etish kabilardir.

Garchand mazkur tizim zamonaviy axborot texnologiyalari, texnik jihatdan axborot kommunikatsiyalari va ta'limni elektron tarzda boshqarishga asoslangan bo'lsa-da, oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'z ma'naviy-axloqiy dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalash, kitobga oshno qilish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Bu esa barcha fanlarni yangicha asoslarda o'qitishni hamda yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Bizningcha, bu borada fanlarni o'qitishning muhim ikki ustuvor yo'nalishini belgilab olish lozim deb hisoblaymiz:

*Birinchi vazifa* – nazariy-uslubiy yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish. Zero, jamiyatda aniq bilim va tasavvurga ega, ma'naviy, axloqiy masalalarni hal qilish uchun oliy ta'lim tizimida talabalar ongida bugungi zamon, globallashuv jarayonlari talablariga javob beradigan nazariy tushunchalar va dunyoqarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda ta'limga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident asarlari, ma'ruza va nutqlari nazariy yo'llanma bo'la oladi. Shu bilan birga, tarixiy-ma'naviy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ulkan ma'naviy merosi ham biz tayanishimiz zarur bo'lgan muhim nazariy manbalardir.

Ayniqsa, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish masalalarining aks etganligi sohaga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Ta'lim tizimini bugungi davr talablari darajasiga ko'tarish, zamon talablariga javob beradigan hamda bilimli kadrlar tayyorlash va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirish Harakatlar strategiyasida aks etdi. Shubhasiz, bunday imkoniyat modulli o'qitish tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyatdir.

*Ikkinchi vazifa* – amaliy yo'nalishdagi ishlar. Bunda yoshlarning olgan bilimlarini o'z sohasida, umuman, hayotda izchillik va qat'iyat bilan amalga oshirishlarida, ularning o'z bilimlariga sodiq va mustahkam fuqarolik pozitsiyasida tura olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi fan, ishlab chiqarish, texnika sohalaridagi shiddatli o'zgarishlar, globallashuv sharoitida iqtisodiyot, ijtimoiy sohalar, fan va madaniyatni rivojlantirishda va uni amaliyotda qo'llay bilishning ahamiyati beqiyosdir.

Chunki odamlar bu jarayonni hayotda amalga oshirmas ekanlar, mamlakatimizning rivoji, tinchligi va totuvligi mustahkam bo'la olmaydi. Bunda mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan bunyodkor xalqning xavfsizligi va barqarorligi ta'minlanmasa, xalq ham baxt-saodatga erisha olmaydi. Shu boisdan modulli o'qitish tizimini yanada takomillashtirish uchun, uni mamlakatimiz, jamiyatimizning ichki imkoniyatlari hamda shart-sharoitlaridan kelib chiqib har ikkala yo'nalishda ham quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi:

- bilimlarni shakllantirish;
- yoshlarni bilim olishga, kitob o'qishga qiziqtirish;

● yoshlarda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;
● bilimlarga nisbatan hurmatni tarbiyalash;
● bilim va ko‘nikmalarni amalga oshirish va amaliyotga tatbiq etish.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ta’limda modulli o‘qitish tizimi talabaning mustaqil faoliyati uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois mustaqil faoliyatda bilimlar egallanishi bilan birga, mustaqil idrok, ijodiy ko‘nikmalar shakllantiriladi. U o‘z vaqtini tejaydi, biror maqsadga yo‘naltirilgan masalalarni yechish chog‘ida bajarilgan ishni, undagi dalillarni tavsiflash asosida voqea va hodisalarni aniq bayon qilish yoki o‘rganilayotgan obyekt va hodisalardagi o‘zgarishlarning sababini aniqlash hamda ifodalash imkoniyati yuzaga keladi.

Talabalarning bilish (idrok qilish) faoliyati avval o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, uning mazmuni hamda tuzilmasini qayta ishlash, boyitish va yangilashga yo‘naltiriladi. Bunday usul o‘rganilayotgan masalani tahlil qilish, vazifani turli usullarda bajarish, ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan shiddatli o‘zgarishlar bizdan talabalar ongida bugungi davr o‘zgarishlariga hamohang ta’limga modulli o‘qitish tizimi va innovatsion o‘qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etishni hamda uning yangicha modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimiga innovatsion ta’lim asosidagi modulli o‘qitishning joriy etilganligi uning yangi bosqichga va darajaga ko‘tarilganligidan dalolatdir. Shubhasiz, mazkur tizim kelajakda oliy ta’lim sohasida yetuk, bilimli, salohiyatli kadrlar tayyorlash ishiga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral.*

*2. Olimov Q.T. Ashurova S.Y. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – T., 2007.*

*3. Avliyoqulov N.X. O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. – Buxoro, 2000.*

***Tahririyat:*** *Modulli o‘qitish doim rivojlanib, takomillashib boradigan jarayon. O‘qituvchi-pedagoglar hamma vaqt ham modulli o‘qitishdan dars jarayonida foydalanmaydi. Chunki modulli o‘qitish haqida ma’lumotga, bilimga ega emas. Mazkur maqola ayni mana shu bo‘shliqni to‘ldiradi va o‘quv jarayonini modulli o‘qitish asosida tashkil etadigan o‘qituvchilarga nazariy va amaliy yordam berishga xizmat qiladi.*

**Zebo ISAQOVA,**
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi
Bosh ilmiy metodik markaz katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

# TA'LIM MUASSASALARIDA ZAXIRADAGI RAHBAR KADRLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI

**Annotatsiya**

Bugungi kunda rahbar kadrlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Maqola zaxiradagi rahbar kadrlar faoliyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularni namoyon bo'lish bosqichlarini izohlashdan iborat.

**Kalit so'zlar.** Rahbar kadr, zaxira, malaka, ta'lim muassasasi, boshqaruv madaniyati, omil, uzluksiz ta'lim tizimi, ichki boshqaruv.

Сегодня особое внимание уделяется мерам по совершенствованию деятельности управленческих кадров. Цель статьи раскрыть факторы воздействия на формирование ресурсов управленческих кадров и этапы их деятельности.

**Ключевые слова.** Кадры управления, резерв, квалификация, учебное заведение, культура управления, фактор, непрерывная система образования, внутреннее управление.

Today, special attention is paid to measures to improve the performance of management personnel. The purpose of the article is to disclose the factors influencing the formation of resources of management personnel and the stages of their activities.

**Key words.** Management personnel, reserve, qualification, educational institution, management culture, factor, continuous education system, internal management.

Ma'lumki, mustaqillik yillari O'zbekistonda o'ziga xos uzluksiz ta'lim tizimi vujudga keldi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida yillab davomida amalga oshirilib kelayotgan islohotlarning samarasini ta'minlash, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallash kabi muhim masalalar turibdi. Shu o'rinda mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda rahbar kadrlarning mas'uliyati va roli haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzasida mamlakatimizni isloh etish va yangilash borasidagi ishlarni davom ettirish va yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini izchil yuksaltirib borish bo'yicha 2017-yilda va undan keyingi yillarda o'z oldimizga qo'yilgan yuksak, ayni vaqtda aniq maqsad va vazifalar, xususan, rahbar kadrlar tartib-intizomi va shaxsiy javobgarlik masalalariga e'tibor qaratib, "Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatil-

gan vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishni ta’minlashdan iborat. Shunday davr keldi”[1], deb alohida ta’kidladi.

Shu o‘rinda hozirda rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishga oid o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari xizmatlari nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarga nomzodlarni tanlash va tavsiya qilishda ayrim rahbarlar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan mas’uliyatsizlik to‘g‘risida” 2015-yil 6-noyabrdagi 321-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan zamonaviy talablar sharoitida ta’lim muassasalarini boshqarish bo‘yicha kasbiy mahorat va malakani rivojlantirish asosida oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari boshqaruv kadrlarining zaxirasini shakllantirish jarayonini takomillashtirish ishlariga alohida e’tibor berilayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir[2].

Davr bilan hamnafas rahbarlar, shu jumladan, ta’lim muassasalari rahbarlari ham, o‘z tashkilotida rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish omillarini barcha bo‘lim va alohida shaxslarni umumiy maqsadlar sari yo‘naltirish, xodimlar tashabbuskorligini oshirish, ishonchlilikni ta’minlash hamda muloqotni yengillashtirish imkonini beruvchi qudratli strategik vosita sifatida tahlil qiladi. Ta’lim muassasasining kadrlar zaxirasini shakllantirish omillari, boshqa sohalardagi kabi, tadqiqotchilar tomonidan ko‘p qirrali ijtimoiy fenomen sifatida tan olingan hamda rasmiy va norasmiy elementlar (bosqichlar, bo‘laklar) tizimi sifatida tahlil qilinadi.

Shunisi e’tiborga molikki, ta’lim tizimini boshqarish, rahbar kadrlarning faoliyatini takomillashtirish masalalari har doim ilmiy tadqiqotchilar markazida turgan. Xususan, ta’lim muassasasining ichki boshqaruvini rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish, uning kadrlar bilan ta’minlash va boshqaruv kadrlari zaxirasini tashkil etishga oid masalalar R. Ahliddinov, U. Inoyatov, M. Saidov, M. Sharifxodjayev, T. Kurilenko, V. Lazarev, A. Buve, U. Yox tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan.

Boshqaruv madaniyati ustida ko‘p ishlanishlar olib borgan va tashkilot psixologiyasi asoschisi Edgar Sheyn zaxira kadrlardan boshqaruv madaniyatining shakllanishi uch bosqichda yuzaga keladi, deya hisoblaydi. Birinchi, ***“yuzaki”, “ramziy” bosqich*** boshqaruvda qo‘llanadigan texnologiya, kuzatilayotgan xulq-atvor, kommunikatsiya vositalarida namoyon bo‘ladi. Navbatdagisi, ***“yuza ostidagi” bosqich*** tashkilot hujjatlarida ongli ravishda qayd etilgan hamda tashkilot xodimlarining kundalik faoliyatida asosiy hisoblanadigan qadriyatlar va me’yorlarni birlashtiradi. Uchinchi, ***“chuqurlashgan” bosqich*** umumiy taxminlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu boshqaruv madaniyatining o‘ziga xos, hamma nafas oladigan hidsiz, ta’msiz “havo”si[3] sanaladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari ustida olib borilgan kuzatishlar ta’lim muassasasida mavjud boshqaruv madaniyatiga ta’sir qiluvchi quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon berdi:

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. http://www.press-service.uz/uz/news/5451/

[2] Qarang: Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o‘qitishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y. 48-son, 608-modda.

[3] Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник. 3-е изд. – М.: Экономист, 2003. – С. 52.

1) ramzlar ("XXI asr – intellektual yoshlar asri" mazmunidagi shior, "Devoriy rasm", e'lonlar doskasi ko'rinishi, mukofotlar);

2) tashkilot qahramonlari ("Hurmat taxtasi");

3) an'analar (rituallar).

4) tashkilot tili (iboralar, ko'p ishlatiladigan so'z qoliplari, asosan, dars va hujjatlarga oid);

5) qo'llab-quvvatlanadigan e'tiqodlar hamda yakuniy maqsadning o'zaro mushtarakligi (talabalarga bo'lgan munosabat va h.k.);

6) Tashkilotda taqiqlangan narsalar: qimmatbaho taqinchoqlar, ko'zga tashlanuvchi makiyaj, o'ta kalta kiyimlar, qizlar va ayollar uchun shim kiyish;

7) tashkilotning faoliyati mazmuni va uning xodimlarga nisbatan munosabatini belgilovchi falsafa (missiya);

8) kasbiy qadriyatlar: Qaysi talabani men yaxshi deb hisoblayman? Qaysi o'qituvchini men yaxshi pedagog deb hisoblayman?;

9) umuminsoniy qadriyatlar, dunyoqarash (sog'lik, oilaviy hayot);

10) xulq-atvor me'yorlari (pedagog nima qilish va qanday qilish kerakligini aniqlaydigan standartlar va yondashuvlar);

11) tashkilotda ular bo'yicha faoliyat yuritilayotgan xulq-atvor qoidalari (rasmiy yoki norasmiy bo'lishi mumkin);

12) pedagogik jamoaning psixologik muhiti. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, psixologik muhitni me'yorda ushlab turishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri – nizolarni hal etish usuli sanaladi. Bu asosan, ikki usulda amalga oshiriladi: nizo ishtirokchilarning o'zlari tomonidan yoki tashqi ta'sir ostida hal etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan elementlar boshqaruv madaniyati omillari sifatida bir qator muhim funktsiyalarni bajaradi.

Birinchidan, tashkilot madaniyatining ichki integratsiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur holat pedagoglar harakatida muvofiqlikni hosil qiladi, ularning o'zaro bir-birini tushunishini, bir jamoa ekanliklari hissini kuchaytiradi. Bunda tashkilot madaniyati qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi samarali instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, pedagogik jamoaning tashkilot madaniyatining tashqi adaptatsiyasini ta'minlaydi, ta'lim muassasasining aniq bir imijini shakllantiradi, ta'lim muassasasi yuzini aniqlaydi. Tashkilot madaniyatiga ko'ra ta'lim muassasasida nima me'yor sifatida qabul qilingan, nima qabul qilinmagan, u yoki bu holatlarda xodimlar qanday yo'l tutishlarini tushunish mumkin.

Uchinchidan, zaxiradagi boshqaruv kadrlari kompetensiyalarini shakllantirishga, korporativ qadriyatlarni (talabalarga, ta'lim muassasasiga va boshqalarga bo'lgan munosabat) shakllantirishga va mustahkamlanishiga yordam beradi, pedagoglar qarashlari va maslaklarini determinlashtiradi, jamoaviy subyektning (pedagogik jamoa) yaxlitligi va birdamligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, zaxiradagi kadrlarni stimullashtiruvchi funksiyani bajaradi. Ta'lim muassasasi ishlariga chin dildan berilish, jamoaga mansublik va sadoqat hissini kuchaytiradi, korporativ vatanparvarlik, tashkilot manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishga bo'lgan xohish, korporativ muammolarni hissiy qayg'urish, jamoa manfaatlariga nisbatan sotqinlikni ongli ravishda qoralash kabi xislatlarni shakllantiradi.

Zaxiradagi rahbar kadrlar faoliyatini rivojlantirish to'g'risida fikr yurita borib shuni ta'kidlashimiz joizki, rahbar mas'uliyati, o'z ish faoliyati bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, malakasi, tajribasi haqida gap ketganda quyidagi muhim jihatlar sanab o'tilishi zarur:

• rahbarlikka mosligi;
• mas'uliyatni his etish darajasi;
• sadoqatliligi, mustaqillikka bo'lgan ishonchi;
• tashkilotchilik qobiliyati;
• ta'lim muassasasi vazifalarini amalga oshirishda xalq bilan o'zaro hamkorlikda ish yuritishi;
• rasmiyatchilikka berilmasligi;
• o'z bilimini muntazam oshirib borishi;
• yangicha tafakkur tarziga, fikrlar xilma-xilligiga ega bo'lishi;
• o'zgalar fikrini eshitishi va hurmat qilishi;
• o'z manfaatini boshqalar manfaati bilan uyg'un qo'yishi.

Bu fikrlar har bir rahbar uchun kundalik ish faoliyatida harakat dasturiga aylanishi kerak. Darhaqiqat, boshqaruv nihoyatda murakkab va serqirra jarayon, shuning uchun unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Bunda boshqaruvchi faoliyatini tashkil qilishning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari qatoriga:

*kompetentlilik* – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish;

*insonparvarlik* – o'quvchi, o'qituvchi, ota-onalarga do'stona munosabatda bo'lish. Ular hurmatini joyiga qo'yish, e'zozlash;

*o'z kasbini sevish* – o'ziga ishonch, optimizm, o'z faoliyatini mahoratli boshqarishga erishish;

*pragmatizm* – ishning pirovard natijasini ko'ra bilish va unga erishish, ish vaqtidan unumli foydalanish, barcha ichki va tashqi imkoniyatlarni ishga sola bilish;

*boshqaruvning ustuvor sohalari* – oldindan bashorat etish, ko'ra bilish. Rejalashtirishning ijro mexanizmini ishlash;

*konstruktivlik* – kuchlarni muvofiqlashtirish;

*nazorat* – o'quv ishini boshqarishlarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jamoadagi rahbar kadrlar malakalarini shakllantiruvchi vositalar xulq-atvorning aniq bir namunasi, ta'lim muassasasining an'analari nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq xulq modellarini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiluvchi bir butun me'yoriy-normativ hududni hosil qilishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining boshqaruv kadrlari zaxirasini maqsadli o'qitishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-yil 48-son, 608-modda*

*3. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris, 2012. 167-b.*

*4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Turon–Iqbol, 2006. 592-b.*

*5. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник. 3-е изд. – М.: Экономист, 2003. – С. 52.*

**Samandar BOZOROV,**
Navoiy viloyati IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi inspektori, kapitan

# VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

**Annotatsiya**

Maqolada voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga chek qo‘yish, shuningdek, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish borasida taklif va tavsiyalar berilgan. Bu vazifa davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari ekanligi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar.** Voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, nazoratsizlik, ta’lim muassasasi, mahalla, davomat, profilaktika, hamkorlik.

В статье предложены рекомендации по повышению эффективности мер по предотвращению правонарушений среди несовершеннолетних и молодёжи, а также определению, анализу и устранению причин и условий их совершения. Подчёркивается, что данная задача является основным направлением деятельности государственных учреждений и организаций.

**Ключевые слова.** Несовершеннолетние, правонарушение, образовательное учреждение, махалля, посещаемость, профилактика, сотрудничество.

Article suggests recommendations for increasing the effectiveness of measures to prevent offense among juvenile and youth, as well as identifying, analyzing and eliminating the causes and conditions for their commission. It is emphasized that this task is the main direction of activity of state institutions and organizations.

**Key words.** Juveniles, offense, control, educational institution, makhalla, attendance, prevention, cooperation.

Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga chek qo‘yish, shuningdek, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash borasidagi tadbirlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Ichki ishlar

vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi boshqaruvi tomonidan “Yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha hamkorlikdagi chora-tadbirlar Dasturi” ishlab chiqilib, ijrosi ta’minlanmoqda.

Shuningdek, hamkor vazirlik va idoralar tomonidan 2017-yil 11-sentabrda tasdiqlangan “Umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga qatnashish davomatini 100 foiz kafolatlash bo‘yicha fuqarolar yig‘inlari rahbarlari (mahalla oqsoqollari), profilaktika inspektorlari, Yoshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkilotlari hamkorlikdagi ish faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qaroriga asosan muntazam ravishda ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilar davomati o‘rganilib, darslarga sababsiz qatnashmagan o‘quvchilarni ta’limga qaytarish borasidagi tadbirlar davom ettirilmoqda. Shuningdek, davomatning sabablarini o‘rganish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar Dasturlari doirasida Ichki ishlar vazirligida vazirlik va idoralar mas’ul vakillarini jalb etgan holda alohida Ishchi guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Xususan, haftaning payshanba kuni huquqbuzarliklar profilaktikasi sifatida belgilangach, mahallalarda xonadonlarga uyma-uy kirib, oiladagi ma’naviy-ijtimoiy muhitni, ta’lim muassasalarida o‘quvchilar davomatini o‘rganish, sodir etilgan jinoyatlarni o‘sha kunning o‘zida muhokamasini ta’minlash, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning sayyor sud majlislarida ko‘rib chiqish amaliyoti joriy etildi.

Sodir etilayotgan jinoyatlar tahlilini qiladigan bo‘lsak, asosan, qarovsizlik va nazoratsizlik jinoyatlarning bosh omili bo‘lmoqda.

Tan olib aytish kerak, nazoratdan chetda qolgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularning oiladagi muhitini, yaratilgan shart-sharoitini, ota-onalar majburiyatini doimiy o‘rganib borish borasidagi ishlarimiz tizimli tashkil etilmayapti. Natijada qarovsiz, nazoratsiz voyaga yetmaganlar soni kamaymayapti.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish uchun birinchi navbatda o‘tkaziladigan tadbir bu – huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlarni aniqlab, profilaktik hisobga olish va sog‘lom turmush tarziga qaytarish hisoblanadi. Bunga nafaqat huquq-tartibot organlari, balki barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faollari birdek mas’ul bo‘lishi lozim.

Aytish joizki, bugungi kunda yakka tartibda profilaktik ishlar olib borilishi lozim bo‘lgan yoshlar asosan ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan hisobga olinmoqda, aksariyat ta’lim muassasalarida, mahallalarda bu holat salbiy ko‘rsatkich sifatida qaratilib, tarbiyasi og‘ir, huquqbuzarlik sodir etishga moyil yoshlar to‘g‘risida ichki ishlar organlariga o‘z vaqtida rasmiy xabar berilmayapti.

Mutaxassislar ota-onaning farzand axloqidagi salbiy o‘zgarishlar, uning fe’l-atvori, ta’lim-tarbiyasiga e’tiborsiz bo‘lishi bola kelajagi uchun jiddiy xavf tug‘diruvchi asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatga qo‘l urayotgan bolalar, asosan, notinch va nosog‘lom oilalarda voyaga yetmoqda. Oiladagi bunday muhitga moslashgan yoki moddiy ta’minotga muhtoj bola boshqalar bilan ko‘p janjallashadi, o‘g‘rilik, bezorilik kabi jinoyatlarga qo‘l uradi.

Shuningdek, o‘quvchilar tomonidan jinoyat sodir etishning sabablarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

– oiladagi va turmushdagi salbiy ta’sirlar;

– nosog‘lom turmush tarzi;

– yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo‘lish;

– o‘qimaydigan voyaga yetmaydiganlarning uzoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg‘ulot bilan shug‘ullanmaganligi;

– katta yoshdagi jinoyatchilar tomonidan huquqbuzarliklarga va turli g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilinishi;

– zo‘rlik ishlatishlar yozilgan turli kitob va videofilmlarning ta’siri;

– hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e’tiqodlarning turg‘un emasligi;

– ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;

– ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri;

– ayrim harakatlarga nisbatan romantik qarashlar va shunday harakatlarni sodir etishga moyillikning kuchayishi kabilardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bu boradagi faoliyatimizni tubdan o‘zgartirish, ishni yangicha tizimda tashkil qilish kerak. Biz voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish borasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olganmiz:

**Birinchidan**, Namangan shahar “Orzu” mahalla fuqarolar yig‘inida qo‘llanilgan ijobiy tajriba asosida har bir mahallada profilaktika inspektorlari o‘z xizmat faoliyatini mahalla raislari bilan hamkorlikda tashkil etib, hududida joylashgan ta’lim muassasalarida o‘quvchilar davomatini o‘rganishdan boshlaydi va soat 08.00-10.00 oralig‘ida to‘liq o‘rganib chiqadi.

O‘quvchilarning uzrli sabablarsiz dars mashg‘ulotlariga kelmaslik yoki muntazam ravishda qatnashmaslik holatlarining haqiqiy sabablari aniqlanadi. Ota-onalarga ko‘rilayotgan ta’sir choralari keskin kuchaytiriladi. Agarda o‘qituvchilar tomonidan darsga qatnashmagan o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirish, ataylab noto‘g‘ri ko‘rsatish, sinf jurnallariga darsga kelmagan o‘quvchilarni mashg‘ulotlarga qatnashayotganligi to‘g‘risida belgi qo‘yish yoki boshqa sabablar bilan o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qatnashmasdan yurishiga sharoit yaratib berish holatlari aniqlangan taqdirda voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarda muhokama qilinib, tegishli ta’sir choralari qo‘llaniladi.

**Ikkinchidan,** qarovsizlik va nazoratsizlikning oldini olish borasidagi tadbirlarni yanada kuchaytirish lozim.

Bu borada qarovsizlik va nazoratsiz bolalar to‘g‘risidagi axborot almashinuvining sustligi ham hamkorlikdagi tadbirlarimizga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Shu maqsadda bugungi kunda viloyatda “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari”ni o‘zaro bog‘laydigan, shuningdek, Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha viloyat idoralararo komissiya, prokuratura, Ichki ishlar, Xalq ta’limi vazirliklari, Kasb-hunar ta’limi markazi va uning joylardagi quyi tizimlari bilan ulangan holdagi elektron tizimni yo‘lga qo‘yish, har bir aniqlangan bola to‘g‘risida o‘sha zahoti uning yashash va o‘qish joyiga xabar berish va aniqlik kiritish tizimi yaratilmoqda.

**Uchinchidan,** ota-onalar bilan ishlash, ularning farzandi oldidagi mas’uliyatini oshirish lozim.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarni, u yerda yashayotgan voyaga yetmaganlarning turmush tarzini muntazam ravishda o‘rganib borish, bolalari tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ota-onalarni aniqlab, mahallalarda, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalarda muhokamasini ta’minlash ham bolalar jinoyatchiligining oldini olishda o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Shuningdek, ota-onalar mas’uliyatini yanada oshirish, bola tarbiyasiga mas’uliyatsizlik bilan qaragan, ko‘rilgan ma’muriy choralardan o‘ziga tegishli xulosa chiqarmagan ota-onalarga nisbatan keskin choralar qo‘llash yuzasidan qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

**To‘rtinchidan,** ta’lim muassasalari bilan o‘zaro oshkora hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kerak.

Barchamizga ma’lumki, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun, birinchi navbatda, hamkorlikda bu toifa voyaga yetmaganlarni aniqlash lozim, keyinchalik esa tegishli mutasaddi idoralar bilan birgalikda yakka tartibdagi profilaktik ishlar amalga oshirilib, sog‘lom turmush tarziga qaytariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim va Xalq ta’limi vazirliklarining 2014-yil 4-noyabrdagi qo‘shma qarorida ta’lim muassasalari tomonidan ichki ishlar organlariga huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog‘liq boshqa holatlar haqida xabar qilishi shartligi belgilab qo‘yilgan.

**Beshinchidan,** voyaga yetmaganlar va yoshlarni huquqbuzarlik sodir etmasdan avval erta aniqlash, sodir etganlariga esa ijobiy tomonga o‘zgartirishga qodir bo‘lgan shaxslarni biriktirib, sog‘lom turmush tarziga qaytarishdir.

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida qo‘llanilgan ijobiy tajribadan kelib chiqib, viloyat hududida mahallalar kesimida voyaga yetmaganlar va yoshlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi shakllantirilmoqda.

Mazkur holatda voyaga yetmaganlar va yoshlar xuddi svetoforning uch chirog‘i singari uchta toifaga, ya’ni qizil chiroq – jinoyat sodir etganlar, sariq chiroq – huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, o‘qimasdan, ishlamasdan, qarovsiz, nazoratsiz yurganlar va yashil chiroq – namunali tarbiyaga ega bo‘lganlar toifalariga ajratiladi.

Har bir toifa bilan aniq maqsadli tadbirlar amalga oshiriladi. Jinoyat sodir etgan yoki huquqbuzarliklar sodir etishga moyil, o‘qimasdan, ishlamasdan, qarovsiz, nazoratsiz yurgan voyaga yetmaganlarning har biriga mahalla faollaridan, “Nuroniy” jamg‘armasidan mas’ullar biriktiriladi. Ularning faoliyati tahliliy baholab boriladi va shu yo‘l bilan bu toifa yoshlarning namunali tarbiyaga ega bo‘lganlar toifalariga ajratiladi.

O‘ylaymizki, ichki ishlar organlarida o‘tkazilgan islohotlar o‘zining kutilgan natijasini beradi.

Buning uchun hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda quyidagi yo‘nalishda olib borilayotgan tadbirlar samaradorligini yanada oshirish lozim:

– mahallalardagi Voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyalar, ta’lim muassasalaridagi “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi hamkorligi” Jamoat kengashlarining faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ular faoliyatini yaxshilashga qaratilgan manzilli amaliy metodik yordamlar ko‘rsatish, yoshlar bilan ishlashdagi mas’uliyatini oshirish, ular tomonidan mahallalardagi har bir oilani, u yerda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlar va yoshlarni turmush tarzini o‘rganib borish;

– doimiy ravishda ota-onalarga umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi, qonunga itoat qilmagan ota-onalar ma’muriy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirish;

– har chorakda kamida bir marotaba maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini mashg‘ulotlarga qatnashmasdan, vaqtlarini turli ko‘ngilochar maskanlarda o‘tkazishlarini oldini olish maqsadida tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda maqsadli profilaktik tadbirlar o‘tkazib borish;

– voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni ijtimoiy muhofazasini ta’minlash, bu borada amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar, ilg‘or ish tajribalarini ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borish;

– hududda faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektorlarini o‘quv-seminar mashg‘ulotlariga jalb qilish, ularda pedagoglar, shifokorlar, jurnalistlar, mahalla faollari, namunali oilalar ishtirokini va profilaktika inspektorlariga dars o‘tishini ta’minlash;

– huquqbuzarlikka moyil va hisobda turuvchi voyaga yetmagan yoshlarni turli madaniy, ko‘ngilochar tadbirlarga taklif qilish, mutaxassislar ishtirokida ularning madaniy-ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish va boyitish;

– voyaga yetmaganlar ishtirokidagi barcha tadbirlarni OAVda yoritish va h.k.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, farzand niholga o‘xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalasak, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta, oila, mahalla, jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. O‘zi, oilasi, xalqi, ma’naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lgan bola jinoyat ko‘chasiga qadam bosmaydi. Bunga erishish uchun jamiyatning har bir a’zosi zimmasidagi mas’uliyatni chuqur his etishi, burchini sidqidildan bajarishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008.*

*2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.*

*3. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 37-son, 938-modda.*

*4. Yoshlarga oid davlat sisyoatining huquqiy asoslarini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2008. 112-b.*

*5. Абзалов Э.М. Проблемы формирования правовой культуры молодежи. Автореф. На соискание канд.юрид. наук. – Т., 2000, – С. 16-17.*

**Usmonbay RADJAPOV,**
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri,
dotsent v.b.
**Fatxulla MIRAXMEDOV,**
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchi

# UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MILLIY HARAKATLI O‘YINLARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya**

Maqolada milliy harakatli o‘yinlar orqali bolalar nutqini o‘stirishda ularning aqliy estetik va emotsional holatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ijtimoiy pedagogik xususiyatlari va uni takomillashtirishning muammo va yechimlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Jismoniy mashqlar, milliy harakatli o‘yinlar, tarbiya turlari, emotsional holatlar, ommaviy axborot vositalari.

В статье рассматриваются особенности формирования эстетического, эмоционального развития детей в процессе национальных подвижных игр. Освещены педагогические особенности национальных игр,обозначены проблемы их организации и пути решения.

**Ключевые слова.** Физическая культура, национальные подвижные игры, виды воспитания, эмоциональное состояние, средства массовой информации.

Article considers the features of the formation of aesthetic and emotional development of children in the process of national motional games. Also highlighted the pedagogical features of the national games, indicated problems of their organization and ways of solution.

**Key words.** Physical culture, national motional games, types of upbringing, emotional state, mass media.

Jahondagi barcha davlatlar, xalqlar, eng avvalo, salomatlikni saqlash, jismonan baquvvat bo‘lish, uzoq umr ko‘rish va ular bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy hamda umummadaniy jarayonlarga jiddiy e’tibor bilan qarashadi. Bu tabiiy bir holdir.

Salomatlikni yaxshilash va jismoniy barkamollikni yuksaltirishda harakatli va xalq milliy o‘yinlarining xususiyatlari, fazilatlari va tarbiyaviy mohiyati muhim ahamiyatga ega.

Shu bois pedagogik ta’limning muhim bosqichlaridan biri – jismoniy tarbiya hisoblansa, uning zamirida xilma-xil mashqlar sport turlari, sayohatlar, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi (quyosh, suv, havo, gigiyenik talablar) omillari qatorida harakatli o‘yinlar mustahkam o‘rin egallaydi.

Harakatli o‘yinlar tarixiy jarayon bo‘lib, jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo‘lgan. O‘yin insonga go‘dakligidan to qariguncha hamrohdir. O‘yinga

faqat jismoniy tarbiya vositasi sifatida qarash noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki u shaxsning tarbiyasi va shakllanishiga umumiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois o‘yin doimo pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, san’atshunoslar, tibbiyot xodimlari va boshqalarning diqqatini o‘ziga tortib kelgan.

Bolaning o‘sishi va rivojlanishi bilan o‘yinlarning mazmuni o‘zgaradi: o‘yin faoliyati dastlabki bosqichlarda oddiy xarakterda bo‘lsa, keyinchalik u boyib boradi.

Iqtisodiyotda va mehnat jarayonidagi o‘zgarishlar o‘yinlarning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda eski o‘yinlar qayta ishlab chiqiladi va yangilari paydo bo‘ladi.

Harakatli o‘yinlarning mazmuni va tarbiyaviy jihatlarini hisobga olgan holda ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Jamoaviy o‘yinlar.
2. Umumiy ishtirokchilar o‘yini.
3. Yolg‘iz (yakka) tartibdagi o‘yinlar.
4. Juft bo‘lib o‘ynash va h.k.

Bunday harakatni tashkil qilish va o‘tkazishda qatnashchilarning yoshi, jinsi va jismoniy jihatdan tayyorgarligig alohida e’tibor beriladi. Ayniqsa, chaqqonlik, tezlik, kuchlilik, epchillik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni talab etuvchi jihatlarda o‘yinchilarni tanlash, guruhlarga ajratish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, o‘yinlarning o‘zaro hamkorlik, o‘rtoqlik, do‘stlik, jamoa uchun jonbozlik ko‘rsatish kabi his-tuyg‘ular va insoniy fazilatlarni tarbiyalashdagi mohiyatiga ham alohida e’tibor qaratish kerak.

Shu tariqa yoshlarning tabiiy harakatlari maxsus jismoniy mashqlar va milliy harakatli o‘yinlar orqali tarbiyalanib, ularning rivojlanishi va takomillashishiga xizmat qiladi. Deyarli barcha harakatli o‘yinlar aqliy, estetik, mehnat va axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Shu asosda bolalar nutqini o‘stirish, til boyligini kengaytirish, ruhiy emotsional holatlarni (zukkolik, quvnoqlik, shodlik, xursandchilik va h.k) rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Onglilik, ko‘rish, eshitish, his etish kabi tuyg‘ularni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bugun ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, tunda oy yorug‘ida “Oq suyak” o‘yinini yoshlar va katta yoshdagi kishilar aralashib o‘ynashgan. Bunda ko‘z yumuq holda uzoqqa otilgan suyakning yerga tushishini eshitish, his etish talab etiladi. Suyakni topib manzilga yetkazishda tezlik, epchillik va kuch zarur bo‘ladi. Chunki suyakni raqiblar tortib olishi mumkin.

“Ovchilar”, “G‘ozlar”, “Kartoshka ekish”, turli estafetali o‘yinlarda hatto harakatlar yugurish, yiqilishlar, to‘p tushirib qo‘yish va uni ushlab olish kabi holatlar raqiblarning zavqini oshirsa, jamoa a’zolarining jahlini qo‘zg‘aydi. Tomoshabinlarda esa ko‘tarinki kayfiyatni yuzaga keltiradi. “Oq terakmi, ko‘k terak”, “G‘ozlar” kabi o‘yinlardagi qo‘shiq, she’rlarning kuylanishi va aytilishi o‘yinchilarda nutqni o‘stirish, tomoq yo‘llarini chiniqtirishda o‘ziga xos tarbiyaviy jihatlar kasb etadi[1].

Harakatli o‘yinlarning eng muhim va ustuvor tomonlari shundaki, o‘yin joylari ma’lum chegara bilan belgilanadi hamda o‘yin qoidalariga to‘liq rioya qilishni talab etadi. O‘yin qoidalarini bilib-bilmay buzganlarga jarima yoki shartli jazolar beriladi.

O‘yinlarning tartibli, mazmunli va qiziqarli bo‘lib o‘tishida, o‘qituvchi va faol o‘quvchilarning roli g‘oyat kattadir. O‘yinlarni o‘tishini nazorat qilishda hakamlar (faol o‘quvchilar yoki jismonan ojiz bolalar) adolatli ish olib borishlari kerak bo‘ladi. Bu holatni milliy harakatli o‘yinlarning pedagogik jarayonlardagi ibratli tadbirlaridan biri deyish mumkin.

[1] Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. Harakatli o‘yinlar. – T., 1992.

Ko‘rgazmali, ya’ni didaktik tamoyillar (prinsip) va usullar, harakatli o‘yinlarni o‘rganish, ularni o‘tkazishda ko‘p qo‘llaniladi. Maydon yoki o‘yin joylarini chizib ko‘rsatish, qoidalarni qo‘llar bilan ifodalash, o‘yinchilarning texnik harakatlarini chizishda (rasm-sxema) ifodalashlar muhim ahamiyatga ega. Jadvallar, chizmalar (sxema), slaydlar, videotasvirlar va boshqa texnik vositalardan foydalanishda harakatli o‘yinlarning ijrosi to‘liq aks ettiriladi. Bu holatlarni bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari izchil va mukammal egallashlari lozim bo‘ladi.

O‘yinlarning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini mazmuniy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish ularni o‘quvchi-yoshlar, talabalar va katta yoshdagi kishilar o‘rtasida tashkil qilishda ana shu maqsadlarni belgilab beradi. Shu sababdan talabalar kurs, diplom (bitiruv) ishlarini tayyorlashda milliy harakatli o‘yinlarni chuqurroq o‘rganish, ularning tarbiyaviy jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi[2].

Harakatli o‘yinlarning asosiy mazmunini harakatlarning va o‘yinchilar faoliyatining xilma-xilligi tashkil etadi. O‘yinlarga to‘g‘ri rahbarlik qilinganda ular organizmning yurak-qon tomir, muskul va nafas olish tizimlariga ijobiy ta’sir etadi.

Harakatli o‘yinlar funksional imkoniyatlarni oshiradi, harakatlarni bajarishda tananing katta va kichik muskullarini ishga soladi, bo‘g‘inlar harakatchanligini oshiradi.

Harakatli o‘yinlarning sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati haqida gapirilganda o‘yinlarning qish va yoz fasllarida toza havoda o‘tkazilishi juda ahamiyatlidir. Toza havoda o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar modda almashinuvini, organizmni yetarli kislorod bilan ta’minlanishini yaxshilaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘yin davomida holatlarning tez o‘zgarishi, yuqori emotsionallik boshqaruvni qiyinlashtiradi. Shu sababli jismoniy harakatlarning optimalligini kuzatib borish lozim. Shug‘ullanuvchilar organizmga moslashishi uchun muntazam mashg‘ulotlardagi o‘yinlarni sekin-asta oshirib borish kerak. Harakatli o‘yinlar bolalar asab tizimiga ijobiy ta’sir etishi lozim.

Ma’lumki, aksariyat jismoniy tarbiya o‘qituvchilari harakatli o‘yinlarni ikkinchi darajali deb hisoblashadi. Shu tufayli sport o‘yinlari, gimnastika, yengil atletika, kurash kabi darslarda harakatli o‘yinlarni nomigagina (yuzaki) tashkil qilishadi.

Harakatli o‘yinlar uchun alohida ajratilgan (dasturda) soatlarni ham boshqa turlarga qo‘shib yuboradi. Shuningdek, milliy harakatli o‘yinlarning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari haqida yetarlicha ma’lumot berishmaydi, ayrimlar hatto eslamaydilar ham.

Kuzatishlar, suhbatlar, rasmiy murojaatlarning natijalariga asoslanilsa, umumta’lim o‘rta maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek xalq milliy o‘yinlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Chunki sof milliy o‘yinlar to‘plami hozirgacha ishlab chiqilmagan yoki ular nashrda tayyorlanmagan. Mavjud bo‘lgan “Harakatli o‘yinlar” to‘plamlarida (adabiyot ro‘yxatiga qarang) har xil millatlarga xos (tobe) bo‘lgan o‘yinlar ko‘proq berilgan va shu bilan birgalikda ular aralash-quralash holda joylashtirilgan.

Ta’kidlash lozimki, harakatli o‘yinlar mazmunida barcha jismoniy sifatlar mujassamlangan bo‘lsa-da, ularni turkumlarga ajratishda umumiy mulohazalar berilgan. Shu sababdan keyingi nashrlarda to‘plamlardagi milliy harakatli o‘yinlarni har bir jismoniy sifatlarga (tezlik, epchillik, kuchlilik chidamlilik, egiluvchanlik va h.k) alohida ajratish lozim. Bu, o‘z navbatida, o‘yinlarni darslarning turlari (gimnastika, yengil atletika, kurash, sport o‘yinlari) va sport mashg‘ulotlarining mazmuniga moslashtirib, qo‘llashda qulay-

[2] Usmonxo‘jayev T.S, Meliyev X. Milliy harakatli o‘yinlar. – T., 2000.

lik yaratadi. Shu bilan, birga, o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga qarab o‘yinlarni tashkil qilish imkoniyatlari yaratiladi.

E’tiborli tomonlardan yana biri shuki, tuman, shahar va viloyatlardagi malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurs-seminarlari, institutlarda milliy harakatli o‘yinlarning ijtimoiy pedagogik xususiyatlarini keng ko‘lamda izohlab berish, tinglovchilarni yangi o‘yinlarni yozib, ularni nashrga tayyorlash kabi faoliyatlarga jalb etish lozim.

Milliy harakatli o‘yinlarning jamiyat va davlat oldidagi ahamiyatini oshirish uchun aholining jismoniy tayyorgarliklarini yanada yaxshilash, o‘quvchi-yoshlar va talabalarning jismoniy barkamolligini oshirish va boshqa sohalardagi tadbirlarda mazkur muammolarni keng targ‘ib qilish zarur.

Bunda quyidagi imkoniyatlardan maqsadli foydalanish lozim bo‘ladi, ya’ni:

– ta’lim muassasalari, tashkilotlar, mahalla hamda qishloq joylarida “Sport” devoriy gazetasi va boshqa nomdagi mahalliy matbuotlarda milliy harakatli o‘yinlarning inson tarbiyasidagi afzalliklarini doimo yoritib borish;

– tuman, shahar radiolarida milliy o‘yinlarning turlari shakllari va mazmuniga keng o‘rin berish;

– viloyatlar va markaziy gazetalar, jurnallar hamda rasmiy to‘plamlar va teleradiolarda milliy harakatli o‘yinlar mazmunini yoritib borish;

– mutasaddi tashkilotlar, tegishli idoralar hamkorligida milliy harakatli o‘yinlarning to‘plamlarini ko‘proq chiqarish;

– Respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar dasturida milliy o‘yinlarga alohida o‘rin berish;

– ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanuvchilar, magistrlar va talabalarga milliy harakatli o‘yinlar bilan bog‘liq dolzarb muammolarni mavzu qilib berish va h.k.

Xulosa shundayki, milliy harakatli o‘yinlarning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari va ularni yanada takomillashtirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Ularning natijalarini esa, matbuot, nashriyotlar orqali ommalashtirishni hayotning o‘zi talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev.F. Harakatli o‘yinlar. – T., 1992.*

*2. Usmonxo‘jayev T.S, Meliyev X. Milliy harakatli o‘yinlar. – T., 2000.*

*3. Xo‘jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. Sport va harakatli o‘yinlar va o‘qitish metodikasi. Elektron versiya, 2008.*

*4. Normurodov A.N. O‘zbek milliy o‘yinlari. – T., 1999.*

*5. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. 1001 o‘yin. – T., 1990.*

**Otabek G‘AYBULLAYEV,**
Samarqand Davlat universiteti huzuridagi XTXQTUMO
hududiy markazi direktori
**Abdumajid ABDUMANNOTOV,**
Samarqand Davlat universiteti huzuridagi XTXQTUMO
hududiy markazi boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri

# PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

**Annotatsiya**

Maqolada pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini takomillashtirish omillari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Mualliflar malaka oshirish institutlari bilan oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muammolariga e’tibor qaratib, uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z takliflarini bildirgan.

**Kalit so‘zlar.** Malaka, qayta tayyorlash, kadr, uzluksizlik, uzviylik, kompetentlik, takomillashtirish, salohiyat, ijodkorlik.

В статье определены факторы совершенствования процесса повышения квалификации и переподготовки педагогических кадров. Особое внимание уделена проблемам взаимосотрудничества между институтами повышения квалификации и высшими учебными заведениями. Авторы дают свои предложения по устранению противоречий в данном вопросе.

**Ключевые слова.** Квалификация, переподготовка, кадры, непрерывность, компетентность, усовершенствование, потенциал, творчество.

Article identifies the factors for improving the process of professional development and retraining of teaching staff. Particular attention is paid to the problems of mutual cooperation between the institutes of advanced training and higher educational institutions. The authors give their suggestions on eliminating contradictions in this issue.

**Key words.** Qualification, retraining, personnel, continuity, competence, improvement, potential, creativity.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad – o‘sib kelayotgan yosh avlodni aqlan teran va jismonan yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bugungi kunda yosh avlod dunyoqarashida Vatanga muhabbat, istiqbolga ishonch tuyg‘ularini shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Bunda ta’lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta’minlash dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun jismonan va aqlan sog‘lom, estetik boy dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashga doir vazifalarga qaratilgan bo‘lib, ta’lim tizimini boshqarishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu dasturdan kelib chiqib, yurtimizda 2004 – 2009-yillarda “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”ning amalga oshirilishi natijasida maktablardagi ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi. Yurtimizda mavjud bo‘lgan o‘n mingga yaqin umumta’lim maktabining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta’lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o‘qituvchilarning mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bunday ta’lim tizimini boshqarishning insoniylashtirilishidan asosiy maqsad – kelajak avlod ongi va qalbida or-nomusli bo‘lish, Vatan va xalq oldidagi mas’uliyatni his qilish, yuksak axloq va estetik fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, boshqaruvni integratsiyalashtirish asosida 2011–2016-yillarda Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish doirasida 25 ta oliy ta’lim muassasasining 202 ta obyektida yangi qurilish, kapital ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari bajarildi.

Iqtisodiyotning real sektori talablaridan kelib chiqib, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish yo‘nalishlari va ixtisosliklari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish, uning umumiy soniga nisbatan 23 foizdan 33,2 foizga oshdi. Oliy ta’lim sohasida mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha yangilangan davlat oliy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari joriy qilindi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Bosh Qomusimiz qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”, deb ta’kidlagan edi.

Shu jihatdan olib qaraganda, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi ta’limning asosiy bo‘g‘inlaridan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarida ushbu sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Sababi, globallashuv sharoitida tez harakat qilish, zarur axborot va yangiliklarni tezda egallab olish va uni qayta ishlab, ta’lim jarayoniga tatbiq qilishni hayotning o‘zi taqozo qilmoqda. Shubhasiz, bu jarayon kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq.

Amaldagi qonun hujjatlarida “Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi”, deb qayd etilgan. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida bu sohani rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligi uqtirilgan:

– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

– yuqori malakali o‘qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va bu sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta’minlash;

– kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohadagi raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta’minlovchi normativ bazasini yaratish va boshqalar.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2017-yil 20-aprel. www.uza.uz.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun o‘tgan yillar mobaynida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida muayyan ishlar amalga oshirildi va ma’lum natijalar qo‘lga kiritildi. Ammo sohadagi islohotlar davr talablaridan orqada qolayotgani, ilg‘or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilayotganligi soha taraqqiyotiga to‘siq bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy institutlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, dars berish sifati, bugungi kun talablariga javob bermayotgani, xodimlarning ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanmayotgani, ularning faoliyatini tashqi baholash tizimi samarali yo‘lga qo‘yilmagani, xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimlari o‘rtasida uzluksizlik va uzviylik ta’minlanmagani, natijada umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari xodimlari faoliyati davomida fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim va tarbiya nazariyasi yangiliklaridan, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan, ilg‘or xorijiy tajribalardan bexabar qolayotganligi alohida ta’kidlandi.

Qarorga binoan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari tegishli hududdagi oliy ta’lim muassasalari tasarrufiga berildi. Tabiiyki, bu jarayonda ularning faoliyatiga, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga bo‘lgan talablar yanada kuchayadi. Binobarin:

– o‘qituvchi-pedagoglarning metodik ehtiyojlarini qondirish uchun ta’lim jarayoniga pedagogikaning ilg‘or shakl va usullarini joriy etish;

– ta’lim dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha pedagog kadrlarning o‘quv-metodik ishlarni bajara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– masofadan o‘qitish usullarini yanada takomillashtirish;

– tinglovchilarning kasbiy mahoratini oshirish uchun tegishli o‘quv-metodik resurslarni modernizatsiya qilish;

– tinglovchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirishdan keyingi faoliyatini takomillashtirishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash;

– pedagog kadrlarga bo‘lgan talabni to‘liq qondirish;

– tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari bo‘yicha zamonaviy metodik, axborot-ma’lumotnoma bazasini yaratish;

– ta’lim dasturlarini uzluksiz takomillashtirib borish;

– o‘quv-tarbiya jarayonini hamkorlik asosida oliy ta’lim muassasalarida tashkil etish;

– mashg‘ulotlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish va h.k. chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotlar jarayonini kuzatish, tinglovchilar bilan olib borilgan suhbatlar, ular tomonidan bajarilgan malakaviy bitiruv ishlari, yozma ishlar, test savol-javoblari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchilarning muayyan qismi ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi islohotlarning ijtimoiy mohiyatini to‘la anglab yetmasligi, ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq me’yoriy hujjatlarni yetarli darajada bilmasligi, pedagogik va axborot texnologiyalaridan amaliyotda to‘laligicha foydalana olmaslik, dars ishlanmalarini tayyorlashdagi kamchiliklari sezilib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalari

bilan ilmiy-metodik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish asosida mavjud muammolarni bartaraf etish masalalariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi omillarga e’tiborni qaratish lozim:

– hududiy markazlarda tajribali, ijodkor, mas’uliyatni chuqur his qiladigan professor-o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlarini olib borishi maqsadga muvofiq;

– amalda foydalanib kelinayotgan o‘quv dasturlarining mazmuni boyitilib va yangi kurslarni joriy etish;

– ta’lim-tarbiya jarayoniga oid me’yoriy hujjatlar: qonunlar, qarorlar, Farmonlar, DTS, o‘quv rejalar, dasturlar alohida modul sifatida o‘qitilishi;

– tinglovchilardagi bo‘shliqlar (metodik, AKTni bilishi, xorijiy tillardan birini bilishi, ijtimoiy-siyosiy bilimlari darajasiga qarab) inobatga olinib, alohida guruhlarga ajratib o‘qitilishi;

– tinglovchilarning kursdan keyingi faoliyatini o‘rganishni har doim ham talablar darajasida deb bo‘lmaydi. Bu borada so‘z va ish birligini ta’minlash zarur;

– hududiy markazlardagi axborot resurs markazlarining (ARM) moddiy bazasini mustahkamlash, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan darsliklarning yangi nashrlari bilan ta’minlashga e’tiborni qaratish;

– yetakchi oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan o‘quv va uslubiy qo‘llanma, tavsiya va ko‘rsatmalar, dars ishlanmalari hududiy markazlarga yetkazilib berilishini yo‘lga qo‘yish;

– ommaviy axborot vositalarida, jumladan, “Xalq ta’limi”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “Til va adabiyot ta’limi”, “Ma’rifat” kabi gazeta va jurnal sahifalarida pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bilan bog‘liq materiallarni tizimli ravishda yoritib borish;

– ushbu tizimda amalga oshirilgan ishlar va to‘plangan tajribalar tahlil qilinib, ilg‘or xorijiy tajribalar umumlashtirilib, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish va h.k.

Ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonining jamiyatdagi rolini kuchaytirish, ayniqsa, rahbar kadrlarni tanlov asosida boshqaruvga yo‘naltirish muhim vazifa sanaladi. Bugungi kunda pedagog kadrlar boshqaruvida, avvalo, rahbarning ma’naviy qiyofasi milliy g‘oyaga asoslangan holda bo‘lishi quyidagi ijtimoiy-ma’naviy omillar asosida rivojlantirilmoqda:

– rahbarning ijtimoiy qarashlari, uning siyosiy va huquqiy saviyasi, ma’naviy-axloqiy va estetik qiyofasi madaniyati va takomiliga bog‘liqligi namoyon bo‘lmoqda;

– rahbarning boshqaruvchilik mahorati jamiyat va shaxs ma’naviy tarbiyasi bilan o‘zaro dialektik aloqadorlikda taraqqiy etadi. Jamiyatdagi demokratik islohotlarga e’tibor pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim va birlamchi rol o‘ynasa, o‘z navbatida, rahbarning ma’naviy tarbiyasi jamiyat ma’naviyati taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi;

– pedagog kadrlarning malakasini oshirishning dolzarb masalalarini rahbar chuqur anglab yetishi, ta’lim tizimining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda erkinlik va ijodkorlik kayfiyatini olib kiruvchi kuchli ma’naviy omilga aylanmoqda;

– pedagog kadrlar malakasini oshirishning integratsiyalashuvi ma’naviy tarbiyani, ayni chog‘da, insonni sog‘lom turmush tarzi va komillik sari intilishidagi ma’naviy kuch-qudrat manbayi sanaladi.

Shuningdek, malaka oshirish tizimining normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg‘or texnologiyalar va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish masalalari o‘z ifodasini topadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, har bir fanning dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalari takomillashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida zamon bilan hamnafas bo‘lish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, xorijiy tajribalarni mukammal o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ta’lim tizimini boshqarishda malaka oshirishning yuqoridagi omillariga e’tibor qaratish yurtimizda shaxs va jamiyat ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasini rivojlantirishning g‘oyaviy-nazariy hamda amaliy negizi sifatida xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi, “Ma’rifat” gazetasi, 2016-yil 8-dekabr.*

*2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori: – T.: Sharq, 1997-yil, 20-28-betlar.*

*3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori: – T.: Sharq, 1997-yil, 31-61-betlar.*

*4. Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Ma’rifat” gazetasi, 2017-yil 27-sentabr.*

**Muqaddam TOVBAYEVA,**
Samarqand Davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
**Guldona ESHQOBILOVA,**
Samarqand Davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

**Annotatsiya**

Maqolada matematik bilimlar vositasida boshlang’ich sinf o‘quvchilarida voqelikni psixologik idrok etish, dunyoni mantiqiy asosda o‘rganish, mustaqil va zamonaviy fikrlashga undash va tafakkurni boyitish haqida ma’lumot berilgan. Mualliflarning fikricha, bolalarga matematika fanini o‘qitishda ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, mustaqil tavsiyalarni hosil qilish ta’lim sifat va mazmunini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar.** O‘yin, motivatsiya, maqsad, kichik maktab yoshi, psixika, tafakkur.

В статье освещены вопросы психологического восприятия детьми реального мира, логики и гармонии в мировом пространстве через овладение математическими знаниями, подчеркнута их роль в развитии современного мышления учащихся начальных классов. По мнению авторов, обучение детей математике с учётом их индивидуально-психологических особенностей помогает обогатить их самостоятельные представления и повышает качество обучения.

**Ключевые слова.** Игра, мотивация, цель, младший школьный возраст, обучение, психика, мышление.

Article deals with the psychological perception by children of real world, logic and harmony in the world through the acquisition of mathematical knowledge, emphasized their role in the development of modern thinking of primary school students. In the authors' opinion, teaching of children to mathematics, taking into account their individual psychological characteristics promotes to enrich their independent ideas and improves the quality of education.

**Key words.** Game, motivation, goal, junior school age, training, mentality, thinking.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Matematika fanini o‘qitish jarayonida turli xil noan’anaviy usullardan foydalanishdan maqsad ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarni faollashtirishdir.

Maktabda matematika fanini o‘qitishning o‘yin tarzida olib borilishi bu sohadagi yutuqlardan biri sanaladi. Bolalik davrlarida o‘yinlar yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin faoliyati va uning ahamiyati boshlang‘ich sinflarda ham yo‘qolmaydi. Bolalar o‘zlari o‘ylamagan tarzda matematika fanini o‘rgana boshlaydilar. O‘yin orqali o‘qitishning

yana bir jihati shundaki, a’lochi o‘quvchi ham, sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchi ham o‘yinda faol bo‘lishi mumkin. Hamma bilan tenglikni his qilish esa quvonch va zavq muhitini yaratadi hamda tortinchoqlikni yengishga yordam beradi. Mavzu oson o‘zlashtiriladi va bolada qoniqish hosil qiladi. Chunki matematika fanida o‘yinning ta’limiy imkoniyatlari keng bo‘lib, belgilangan mavzu bo‘yicha talab etilayotgan bilim, malaka va ko‘nikmalarga o‘yin orqali erishish mumkin. Ta’kidlash joizki, matematika fani bo‘yicha maxsus mashqlarni 4 yoshdan boshlab bolalarga o‘rgatish ijobiy natija beradi. Mana shu jarayonda maktab o‘qituvchilari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari maqsadga muvofiqdir.

Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish insonda o‘z vaqtida o‘zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o‘zini anglash tuyg‘usi qancha erta uyg‘onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o‘z huquqini his etish, o‘zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo‘ladi. Insondagi tashabbuskorlik hamda to‘siqlarni yengishga intilishni aniqlash va ularga yosh psixologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ruhiy turtki berish samarali natijalar beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, motiv bolada fanga qiziqishning alohida belgilarida namoyon bo‘ladi. Lekin u o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Qiziqishning paydo bo‘lishi uchun o‘qituvchining maqsadi motivlarga asoslangan, o‘quvchiniki esa, uni qabul qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart. Bilish motivlari shaxsning (subyektning) gnoseologik maqsadi sari, ya’ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltiriladi. Odatda bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhli tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo‘zg‘atuvchilar ta’sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o‘quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo‘lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o‘ta muhimroq, boshqa hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta’minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi tashqi motivlar ta’sirida ta’lim jarayonida bilim va ko‘nikmalarni egallash (o‘zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Masalan, boshlang’ich sinf o‘quvchilarining asosiy maqsadi o‘qish emas, balki ko‘proq o‘yin faoliyatiga moyillikdir.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya’ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradi, ular o‘quvchi shaxsida o‘qishga nisbatan individual maqsadni ro‘yobga chiqaruvchi qo‘zg‘alish negizida paydo bo‘ladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma’naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o‘xshash motivlarning ta’sirida o‘quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo‘lishiga qaramay, ba’zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimoli mavjud. Ta’lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o‘qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o‘quvchilar xulq-atvorini

shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi.

Inson ehtiyojlari bilan belgilanuvchi ichki manbalar. Organizmning tabiiy ehtiyojlarini namoyon qiluvchi tug'ma xususiyatli va jamoada shakllanuvchi ijtimoiy ehtiyojlarni vujudga keltiruvchi orttirma xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shunda aniq bo'ldiki, ish hajmi qo'yilgan vaqt bilan bog'liq. Agar ish maqsadsiz bo'lsa, u mutlaqo samara bermaydi yoki uning faollashishi qiyin bo'ladi. Shundan keyin bola ish bajarishdan bosh tortadi. Agar mashq aniq bo'lib, qisqa vaqt ichida bajarilsa, bola keragidan ko'proq ish bajarishga harakat qiladi. So'zsiz bu maqsad aniq yo'nalganligi va motivatsiya an'anasini boshqarilishi, uni aniq jarayonga yo'nalishiga psixologik omil borligini ko'rsatadi. Bundan ham yaxshiroq natija olish uchun esa, maqsad yo'nalganligi ish boshidan bo'lishi va samarasi ham shunga yarasha bo'lmog'i lozim. Bola bajaradigan ish maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, uning tomonidan zerikmasdan bajarilishi mumkin.

Maqsadning yo'nalganligi ishning hajmiga bog'liq bo'lib, uyg'onuvchi kuchni hosil qiladi. Agar ish haddan ortiq katta bo'lsa, maqsad bo'lmagandek tusga kirib oladi, kichik maktab yoshidagi bolalarda qiziqarsiz ish bilan maqsadsiz ish bir xil proporsiyaga ega[1].

O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun imkoniyati mavjud. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda me'yoriy talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'zi xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga normativ talablar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi mumkin. O'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladishadi va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladi. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy subyekt hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

Ta'lim jarayonining samarali va natijali bo'lishi o'qituvchining o'quvchilarni darsga qiziqtira olishiga bog'liq. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchi navbatda, o'quvchilarning matematika fanini tez o'zlashtirishi uchun ularning tejamkorlikka bo'lgan qiziqishini orttirishi zarur. So'zsiz, bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi – individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning o'quv maskanida muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. O'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan kichik maktab yoshidagi bolalar o'smirlardan

[1] G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – T.: O'qituvchi, 1994. 173-b.

farq qiladi. Ta’lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish kichik o‘quv maskani yoshdagi o‘quvchilarni kamol toptirishning garovidir[2].

O‘quv faoliyati psixik funksiyalarning yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o‘z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkabdir.

O‘quv faoliyati boladan berilgan o‘quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. O‘qituvchi o‘quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko‘rsatmalar beradi. O‘quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan, uning ishga bo‘lgan qiziqishi belgilab beradi. O‘quv materialini tushunish eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o‘qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so‘raydi. Bu holat, albatta, biron-bir yordamchi qurollar – predmetlar, maketlar, chizmalar bo‘lgan taqdirdagina o‘quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur qilishga qiynalishadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘qituvchisi bilan mustahkam emotsional bog‘liq bo‘ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, endi o‘z xohish-irodasi bilan zarur ma’lumotlar to‘plashga, o‘z oldiga aniq maqsad va vazifa qo‘yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanishini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Shu yoshdagi bola boshqa davrlarga qaraganda ko‘proq narsani o‘zlashtiradi.

Maktabda o‘quvchi tobora murakkabroq matematik masalalarni va o‘zi idrok qilayotgan misollarni hamda hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga, tasavvur qilayotgan yechimlar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslashni, analiz va sintez qilishni o‘rganib oladi.

Bolaning mustaqil ravishda bajarilgan harakatlar natijalarini o‘z xatti-harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o‘z-o‘zini nazorat etish xususiyatlarini ma’lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. O‘quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yo‘llari bilan tanishadi va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar.

Bolani maktabda o‘qitish jarayonida unda abstraktlash qobiliyati o‘sa boshlaydi. Arifmetikani o‘qitish vaqtida amaliy, konkret sanashdan abstrakt hisoblashga o‘tilgan vaqtda bu qobiliyat yanada o‘sadi. O‘quvchi bola analiz qilish, abstraktlash va taqqoslashni, mashq qilish yo‘li bilan narsalarning muhim belgilari bilan ahamiyatsiz belgilarini bir-biridan farq qilishni va muhim belgilarga qarab to‘g‘ri xulosalar chiqarishni o‘rganadi.

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko‘rganlariga tayanib, ta’lim olishga senzitiv bo‘lgan davr hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda bolaga matematik misollar mantiqiy hikoyalar bilan bog‘lab tushuntirilsa, bu ta’limiy imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Bola 7 yoshda – doira, kvadrat, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, ovallarni farqlaydi; maxsus shakllar to‘plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni yasay oladi; tayoqchalardan hosil bo‘lgan geometrik shakllardan bir nechta tayoqchani olish usuli bilan

[2] Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya (O‘quv qo‘llanma) – T., 2002. 126-b. 137-b.

ko‘rinishini o‘zgartirishga doir muammoli vazifalarni hal eta oladi, shar, kub va silindr kabi shakllarni oladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o‘qituvchiga ishonch hissi bo‘lib, bunda o‘qituvchining o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o‘qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O‘qituvchining obro‘si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a’zolari, qarindosh urug‘larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o‘qituvchining har bir so‘zini qonun sifatida qabul qiladi. Demak, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar rivojida yetakchi bo‘lgan o‘quv faoliyati o‘qituvchi shaxsi va o‘quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda katta.

Demak, bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirish yo‘lida barcha mas’uliyat saboq beruvchilarning, ya’ni o‘qituvchilarning zimmasiga tushadi. Shunday ekan, pedagoglardan o‘qish va izlanishdan erinmaslik, o‘ziga ham, o‘zgaga ham birdek talabchan bo‘lish, fanlarni o‘qitishda ta’limning eng samarali usullaridan foydalanish talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga matematika fanini o‘qitishda ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, mustaqil tasavvurni hosil qilish, ta’lim sifati va mazmunini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya (O‘quv qo‘llanma) – T., 2002. 126-b. 137-b*

2. *G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). –T.: O‘qituvchi, 1994. 173-b.*

3. *Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G‘, Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi , – T.: TDPU, 2005.*

4. *Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) – T.: IlmZiyo, 2005.*

5. *Jumayev M.E. Boshlang‘ich matematika nazariyasi va metodikasi (KHK uchun), – T.: Arnoprint, 2005.*

6. *Raxmonkulova Y.A., Kurbonova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. – T.: Muharrir nashriyoti, 2012.*

---

***Tahririyat:*** *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nafaqat bilim olishga, balki mehr-muhabbatga e’tiborga va rag‘batga muhtoj bo‘lishadi. Ular bilan ishlash jarayonida esa pedagog bolalar psixologiyasini yaxshi bilishi, mavzularni tez va oson o‘zlashtirishi uchun har bir bolaning ko‘ngliga yo‘l topa olishi lozim. Bu, albatta, mas’ulyatli va mashaqqatli jarayondir. Muallif ushbu maqolasi orqali matematika fanini o‘qitishda o‘qituvchida qanday psixologik yondashuv talab etilishini izohlagan. Maqoladagi tavsiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar uchun ahamiyatlidir.*

**Gulbarno SODIQOVA,**
Toshkent Islom universiteti 1-bosqich magistranti

# BOLANING MAKTAB TA’LIMIGA MOSLASHISHI VA TAYYORGARLIK JARAYONI

**Annotatsiya**

Maqolada bolaning maktab ta’limiga moslashishi va tayyorgarlik jarayoni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshiga alohida e’tibor qaratilganligi va ota-onaning bola ta’lim-tarbiyasiga hamda o‘qituvchining o‘quvchiga bo‘lgan munosabati asoslab berilgan.
**Kalit so‘zlar.** Bolaning maktabga moslashishi, tayyorgarlik jarayoni, birinchi sinf o‘quvchisi, ta’limga psixologik tayyorgarlik, intellektual yetuklik.

Статья посвящена вопросам адаптации и подготовки детей к обучению в школе. Особо подчеркнута необходимость уделить серьёзное внимание со стороны родителей и учителей детям младшего школьного возраста.
**Ключевые слова.** Адаптация детей к школе, процесс подготовки, младший школьный возраст, психологическая готовность в образовании, интеллектуальная зрелость.

Article devoted to the issues of adaptation and preparation of children for schooling. Emphasized the need to pay a serious attention by parents and teachers to children of primary school age.
**Key words.** Adaptation of children to school, the process of preparation, junior school age, psychological readiness in education, intellectual maturity.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda uning ma’lum bir yosh davridagi psixologik xususiyatlari ta’sirini bilish zarurdir. Hozirgi kunda bolaning maktab ta’limiga moslashishi va tayyorgarlik jarayoni dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoni o‘rganishning kerakligi jihati shundaki, bolada psixologik, asab-psixik kasalliklarining o‘sishi va funksional buzilishlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Bolalarni maktabga ijtimoiy-hissiy rivojlantirishda asosan psixologik tayyorlikka e’tibor qaratiladi. Bolalar muloqot qilishda nutqli va nutqsiz vositalardan, ifodali imo-ishoralardan foydalanishi, o‘z atrofidagi tanish odamlar bilan osonlikcha muloqotga kirisha olishi lozim. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar muammolarga duch kelganda yaqinlaridan yordam so‘rash yoki notanish, ilk bor ko‘rayotgan odamlari to‘g‘risida savollar bera oladi. Bolalarda xushmuomalalikni namoyish etishning oddiy ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi. Ular o‘z atrofidagilar (tengdoshlari va kattalar)ga salom berish, xayrlashish, minnatdorlik bildirish malakasiga ham ega bo‘ladi. Bolalarni maktabga ijtimoiy tayyorligi boshqalar bilan barqaror aloqalar o‘rnatishi, do‘stlar orttirishi, yordam berish, ovutish, katta yoshdagilar bilan suhbatlashganda savol berish va javob qaytarishi bilan namoyon bo‘ladi.

Bolaning maktab ta’limiga moslashuvchanlik jarayoni muhim bo‘lib, uning maktab ta’limiga moslashganligi yoki moslashmaganligini inobatga olmaslik natijasida aynan shu yosh davrida ko‘plab muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bola xulqidagi tajovuzkorlik, tez qo‘zg‘aluvchanlik, jahldorlik, depressiya, qo‘rquv, maktabga borish istagining yo‘qligi va boshqalar tufayli maktab muhitidagi ta’lim jarayoni samarasiz bo‘lishi kuzatiladi. Bu bolaning maktabga moslashmaganligini, uning uchun o‘quv faoliyati kutiladigan natija bermasligini va oqibatda bolada turli darajada psixologik, jismoniy va ijtimoiy muammolarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Bolaning maktab ta’limiga moslashmaganligi natijasida uning tanasining o‘sishi susayib, vazni kamayadi. Bolada jismoniy toliqish, ozish, kasallikka chalinish darajasining yuqori sinfdagilarga nisbatan ikki va undan ko‘p marta ortishi kabi bir qator salbiy holatlar namoyon bo‘ladi. Bolaning maktab ta’limiga moslashmaganligi, shuningdek, uning o‘quv faoliyatida ham salbiy ko‘rinishlarni namoyon etadi, ya’ni o‘quv materialini o‘zlashtira olmasligi, uyalish, hadiksirash, o‘qituvchidan qo‘rqib, darsga kirmaslikka harakat qilish hamda yolg‘on gapirish shular jumlasidan.

Bolaning maktab ta’limiga moslashganligi natijasida esa ushbu asosiy mezonlar kuzatiladi:

• bola salomatligining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy saqlanganligi;
• bolaning o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan aloqa o‘rnata olishi;
• bolada o‘quv faoliyati va o‘zaro munosabatlarda adekvat xulqning shakllanishi;
• bola o‘quv faoliyatining ko‘nikma va malakalarini egallashi.

Demak, maktab ta’limiga jalb etilgan bolaning o‘quv faoliyatini boshlashi va samarali davom ettirishida ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilishining sababi ham barkamol shaxsni kamol toptirishga asoslanadi.

Maktabga moslashganlik muammosi yuzasidan chet el psixologiyasida G.Getper, A.Kern, S.Shtrebel, Y.Yirasek va boshqalar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Amerika psixologlari asosan bolaning maktabga yetukligi va moslashuvchanligini keng ma’noda uning intellektual imkoniyatlarini ortishi bilan izohlaydi. Bu olimlar tomonidan bir qator testlar batareyasini uning idroki, diqqati, xotirasi, tafakkuri va boshqa psixik jarayonlarini aniqlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Amerikalik psixolog J. Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta’lim o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjudligini ta’kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o‘qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

MDH mamlakatlari psixologlaridan L.S.Vgotskiy, L.I.Bojovich, D.B.Elkonin, Y.Y.Kravsova bolaning maktabga moslashuvi muammosini o‘rganishgan. L.S.Vgotskiy bolani yozishga o‘rgatish misolida abstraktsiyaning yuqori bosqichi zarur bo‘lgan faoliyat turini egallashi, unda yozma nutqni egallash mobaynida shakllanishini ta’kidlab o‘tgan. Uning aytishicha, yozishga o‘rgatilayotgan bolada hali uni yozma nutqqa murojaat qilishiga undaydigan motivlari yo‘q, aynan motivatsiya har qanday faoliyatning harakatlantiruvchi kuchidir.

L.I.Bojovich maktabga yetilish va moslashganlik muammosini o‘rganishni ...bu o‘ziga xos yangi ijtimoiy munosabatlarga o‘tish deb aytadi. Chunki maktabgacha bolalik davri – bu bolaning maktabgacha ta’lim muassasasi bilan bog‘lanadi. Maktabga borishda esa bola ijtimoiy munosabatlarning yuqori darajasiga va shu orqali kelgusi mustaqil hayotiga yo‘llashi aytib o‘tilgan.

Jenevalik psixolog Jan Piajening ma’lumotlariga ko‘ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burilishlar ro‘y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo‘lib,

ma’lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko‘proq o‘zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladi. Shuning uchun ham ular ota-onalariga mavhum bo‘lgan matematik vazifalarni o‘qituvchisi o‘rgatganday bajara boshlaydi. Har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi real tashqi olamni, uning qanday bo‘lsa, shunday mavjud xususiyatlari doirasida idrok qilib, anglay boshlaydi.

Kichik maktab yoshi davriga 6-10 yoshli, boshlang‘ich (I – IV) sinflarning o‘quvchilari kiradi. Bunda o‘quvchi maktab uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Olti yoshli bolaning psixik tayyorligi ko‘pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko‘p qirrali maqsadga yo‘naltirilgan, o‘zaro mantiqiy borliq psixik o‘sish darajasi nazarda tutiladi.

Kichik maktab yosh davri uchun xos bo‘lgan ba’zi psixologik jihatlar orasida bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayoni oiladan tashqariga chiqib, keng jamoa ta’siri ostiga kiradi. Jamoa sifatida birinchi ta’sir o‘qituvchilar jamoasi bo‘lsa, ikkinchi ta’sir sinfdagi bolalar jamoasi hisoblanadi. Bundan tashqari bolaga shu davrgacha notanish bo‘lgan o‘quv rejasi asosida o‘tilayotgan darslar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday ta’sirlar natijasida bolada turli xil ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar yuzaga kela boshlaydi va buning natijasida bolaning har taraflama shakllanishi kuzatiladi. Bolaning kichik maktab yoshi davrida aqliy jihatdan rivojlanishi uchun asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Bolaning o‘qishi – bola bilmagan narsalarini aynan unga o‘tilayotgan fanlar orqali bilib boradi.

2. Bolaning mehnat faoliyati bilan band bo‘lishi – bolaga ham oilasida, ham maktabda o‘ziga mos bo‘lgan ba’zi vazifalar topshiriladi. Bu esa, unda mas’uliyat va javobgarlikni shakllantirish bilan birgalikda aqliy jihatdan kamolotiga ham turtki bo‘la boshlaydi.

3. Bolaning atrofidagilar bilan bo‘ladigan muloqoti va mazmunini kengaytirish. Chunki bola atrofdagilar bilan munosabat va muloqotga kirishar ekan, ulardan o‘zi uchun zarur bo‘lgan juda ko‘p narsalarni o‘rgana boshlaydi. Bu esa uning aqliy taraqqiyoti uchun juda muhimdir. Ayniqsa, bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muloqoti natijasida unda kattalarga nisbatan taqlid yuzaga keladi. Shuningdek, kattalar orasidan topgan ideal obrazlari bola uchun xilma-xil bilimlarini o‘zlashtirish manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Kichik maktab yoshidagi bolalarning atrofidagi katta yoshlilar – bobo va buvilari, ota-onasi bilan birgalikda o‘qituvchi va tarbiyachilari ham bolaning muloqotiga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun hamkorlikda harakat qilishlari ayni muddao bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o‘qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o‘qituvchning bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati juda katta. Bola o‘qituvchini aqlu idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O‘qituvchi siymosida o‘zining ezgu niyati, orzu-istagi, ajoyib his-tuyg‘ularini ruyobga chiqaruvchi mo‘tabar shaxsni ko‘radi. Ulning obro‘si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a’zolari, tanish-bilishlarining nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o‘qituvchining har bir so‘zini qonun sifatida qabul qilishadi.

Boshlang‘ich sihf o‘quvchisi ko‘pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta’lim so‘z, mantiq xotirasini taqozo etadi. Tajribadan ma’lumki, bola ma’nosiz so‘zlardan ko‘ra ma’nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga

ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna olib, o'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi va aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi.

Bola maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishining subyektiv tomoni ham mavjuddir, uning maktabda o'qishga xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir. Bolada shu davrga kelib o'qish, bilim olish haqida to'g'ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyil bo'ladi. O'qishga bo'lgan salbiy munosabat ko'pincha kattalarning qo'rqitishlari oqibatida vujudga keladi. O'qishga salbiy munosabatdagi bolalar ta'lim muhitiga kirishishga qiynalib, qator ruhiy to'siqlarga duch kelishadi.

Birinchi o'quv jarayoni bolada qiyinchliklarni yuzaga keltirib chiqarib, noodatiy tartib, berilgan vazifalarni tez va yaxshi bajarishga harakat qiladi. Bolaning maktabga moslashishi har xil kechadi. Ba'zilari birinchi chorakdayoq moslashishadi va salomatligida hech qanday muammolar yuzaga kelmaydi. Ayrim bolalarning sog'lig'i sabab o'quv dasturlarini to'liq o'zlashtira olmasligi ham kuzatiladi.

Bolaning maktabga kelgan kunidan boshlab uni tengdoshlaridan orqada qolmasligi, o'qishga bo'lgan munosabatida qo'rquvni his qilmasligi uchun unga yaxshi sharoit yaratib berish kerak. Bolaning maktabga qabul qilinishi uning hayotida juda katta ahamiyat kasb etadi. An'anaviy tarzda bolani maktabga uchta jabhaga ajratish mumkin: intellektual, emotsional va ijtimoiy.

Intellektual yetuklik deganda fondan figurani ajratib olish, diqqat konsentratsiyasini o'z ichiga olgan differentsiallashgan idrok, hodisalar orasidagi asosiy bog'liqliklarni tushunish qobiliyatida namoyon bo'ladigan analitik fikrlash, mantiqiy eslab qolish malakasi, qo'lning nozik harakatlari va sensomotor koordinatsiya nazarda tutiladi. Intellektual yetuklik ma'lum ma'noda bosh miya tuzilmalari funksional yetukligni aks ettiradi.

Emotsional yetuklik asosan impulsiv reaksiyalarni kamayishi va uzoq vaqt davomida unchalik qiziqtirmagan topshiriqni bajarish tushuniladi.

Ijtimoiy yetuklikka esa bolaning o'z tengdoshlari bilan muomala qilishga bo'lgan ehtiyoji va o'z xulq-atvorini bolalar guruhi qonunlariga bo'ysundirishi, o'quv vaziyatida o'quvchi rolini bajarish qobiliyati nazarda tutiladi.

Bolaning maktabga tayyorligida asosan uning intellektual imkoniyatlari ustun ekanligi kuzatildi va buni amerikalik tadqiqotchilar ham ta'kidlashgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, bolaning tafakkuri, xotirasi, idroki va boshqa psixik jarayonlari rivojlanishi muhim.

Psixologik tayyorlik deganda, bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanib, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq, muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglashda namoyon,

bo‘ladi. Bola o‘z diqqatini muayyan obyektga yo‘naltirish, to‘plash, taqsimlash bo‘yicha ma’lum darajada ko‘nikmaga ega bo‘lib, o‘z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to‘plashga intiladi. Uning xotirasi ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, endi o‘z xohish-irodasi bilan zarur ma’lumotlarni olishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi.

Bolani odatiy darslar bilan birga mashg‘ulotlarga adaptatsiya qilishni ham o‘rgatish kerak. Adaptatsiya – bu bolaning yangi muhitga moslashishidir. Adaptatsiya jarayoni bolaning asab tizimi uning temperamenti, xarakter xususiyatlari va rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolalar maktabga kelishganda o‘zlarini yangi muhitda noqulay va tashvishli his qilishadi. Tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan nizolar kelib chiqib, bola o‘zini anglash jarayonida maktabga va o‘qishga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ladi. Maktabga borish arafasida, birinchi sinfda yoxud o‘qishning dastlabki kunida aksariyat bolalar darslarga juda qiziqib kirishadi va keyinchalik esa ularning ayrimlarida o‘qishga qiziqish so‘nib ketadi. Bolalardagi bunday holat tarbiyadagi kamchiliklar yoki kattalarning xatolariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Maktab psixologining bu holatdagi vazifasi – ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borib, bolaning maktab haqidagi tasavvurini to‘g‘ri shakllantirish lozim. Birinchi sinfda psixologik va fiziologik moslashish davri 4-6 xafta, ortda qolgan bolalarda esa bu davr 8 haftani tashkil qiladi.

Birinchi sinf o‘quvchilarining adaptatsiya jarayoni quyidagi asosiy o‘zgarishlar bilan belgilanadi:

– birinchi sinf o‘quvchilarining kun tartibi ularning organizmida funksional tizimlar fiziologik moslashuviga olib kelishi;

– bolada yangi faoliyat turlari va usullari shakllanadi, o‘qish jarayoniga o‘rganishning amalga oshishi;

– birinchi sinf o‘quvchilarining emotsional muhiti uning atrofidagi o‘zgarishlarini subyektiv qulay-noqulay tarzda baholab, shu bilan ularning yurish-turishini belgilaydi.

Birinchi sinf o‘quvchisining maktabga adaptatsiyasini umumiy darajasini baholashda bu o‘zgarishlarning shartli ko‘rsatkichlarini bilishi kerak.

Bu dasturni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

| Adaptatsiya komponentlari | Empirik xususiyatlar |
|---|---|
| Organizmning fiziologik moslashuvchanligi | Adaptatsiya davrida kasallanmaslik. Psixosomatik alomatlarning yo‘qligi. Organizmni ko‘p kuch sarflashi qobiliyati |
| Yangi yo‘l va usullarni o‘rganish | O‘qish jarayonini o‘zlashtirish |
| Yangi ijtimoiy holatni emotsional qabul qilish | O‘qish jarayonini emotsional ijobiy qabul qilish |
| | O‘qituvchiga emotsional ijobiy munosabat |
| | O‘ziga nisbatan emotsional ijobiy munosabat |
| | Sinfdoshlari bilan emotsional ijobiy munosabat |

Xulosa qilib aytganda, oilada maktabgacha ta’lim muassasalari bilan birgalikda bolalarni maktabga tayyorlash ishlari va bola nima uchun maktabga moslasha olmayotganligining sababi aniqlanishi kerak. Buning uchun ota-onalar va o‘qituvchilar bilan birga ishlash lozim. Bu jarayon esa ota-onadan katta mas‘uliyat talab qiladi. Ota-onaning bir-biriga bo‘lgan va bolaning ta’lim-tarbiyasiga nisbatan munosabati, o‘qituvchi-

ning o‘quvchiga bo‘lgan munosabati bolaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Aksariyat maktablarda sinf xonalarning yoki o‘qituvchilarning yetishmasligi kabi ba’zi “sabablar” bilan kichik maktab yoshidagi bolalar kuniga 2-3 soatdan o‘qiganlaridan so‘ng uyga qaytarib yuboriladi. Ular bilan kerakli rivojlantiruvchi o‘yinlar, mashg‘ulotlar o‘tkazilmaydi. Bu vaqtda bola rivojlanishida boy berilgan imkoniyatlarning o‘rnini qoplash uchun keyinchalik haddan tashqari ko‘p vaqt, kuch-quvvat kerak bo‘ladi yoki bu davrda boy berilgan imkoniyatlar keyinchalik mutlaqo tiklanmasligi mumkin. Bu davrda bolada o‘qishga, bahoga intilish motivatsiyasi yuqori darajada bo‘ladi.

Biz, o‘z navbatida, pedagog, tarbiyachi, psixolog va ota-onalarga ushbu tavsiyalarni bildirishimiz mumkin:

1. Birinchi sinf o‘quvchisining maktab hayotiga mos kun tartibini tashkil etib chiqish.
2. O‘quvchiga predmetli fazoviy muhitni yaratish.
3. Sog‘lomlashtiruvchi-profilaktik ishlarni tashkil etish.
4. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun adaptatsiya muddatida o‘quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish.
5. Birinchi sinf o‘quvchilarining o‘qishdan tashqari vaqtini tashkil etish.
6. O‘quv dargohidagilar bilan o‘zaro hamkorlik va bog‘liqlikni o‘rnatish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Божович Е.Д. Развитие языковой компетенции школьников: проблемы и подходы. // Вопросы психологии, 1997, – С.1.*

*2. Вопросы психологии способностей школьников / Под ред. В.А. Крутецкого. – М., 1964.*

*3. Добрович А.Б. Анатомия диалога / Хрестоматия по педагогической психологии. Сост. А. Красило, А.Новгородцева. М.: Международная педагогическая академия, 1995. – С. 182-216.*

*4. Дубровина И.В. Психологическая служба школы. –М.: Международная педагогическая академия, 1995.*

**Zulfiya MAMARAJABOVA,**
Nizomiy nomli TDPU Korreksion pedagogika kafedrasi oʻqituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

# ESHITISHIDA NUQSONI BOR OʻQUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

**Annotatsiya**

Maqolada eshitishda nuqsoni bor oʻquvchilarning nutqini rivojlantirishda pedagogik tizimning ahamiyati yoritilgan. Muallif eshitishida nuqsoni bor oʻquvchilarning xususiyatlarini aks ettiradigan maxsus tamoyillar guruhini ajratib oʻtgan.

**Kalit soʻzlar.** Adabiy taʼlim, jarayon, oʻquvchi, nutq, rivojlantirish, pedagogik tizim, komponentlar, tamoyillar, metodlar, shakllantirish, malakalar kompleksi.

В статье освещено значение системы развития речи детей с нарушениями слуха в процессе обучения литературе. Раскрыты принципы, методы педагогической системы развития речи детей с нарушениями слуха.

**Ключевые слова.** Процесс обучения литературе, учащийся, речь, развитие, педагогическая система, компоненты, принципы, методы, формирование, комплекс умений.

Article highlights the importance of the system of speech development for children with hearing impairment in the process of teaching literature. Also revealed the principles, methods of pedagogical system of speech development for children with hearing impairment.

**Key words.** The process of teaching literature, student, speech, development, the pedagogical system, components, principles, methods, formation, a complex of skills.

Jahon miqyosida maxsus taʼlim insonparvarlik, demokratizatsiyalashuv, korreksion yoʻnalganlik asosida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy-madaniy moslashuvi va taʼlimiy integratsiyasi uchun shart-sharoitlar yaratishni koʻzda tutadi. Eshitishida nuqsoni bor oʻquvchilarni boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatga ega boʻlishini taʼminlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, toʻlaqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, oʻzlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. 2017-yil 1-avgustdagi “Nogironlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi nogironlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, ularni toʻlaqonli taʼlim olishi, jamiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, ularni sogʻlomlar qatorida jamiyatga uygʻunlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni koʻzda tutadi. 2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasining toʻrtinchi ustuvor yoʻnalishida “aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron,

aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi”ni kuchaytirishga alohida e’tibor berildi[1].

2017-yil Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e’lon qilinishi yosh avlod, xususan eshitishda nuqsoni bor shaxslarni og‘zaki nutqini muloqot quroli sifatida rivojlanitirish orqali ularni ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko‘lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo‘lda safarbar etish lozimligi bilan ifodalanadi.

Zamonaviy maxsus ta’lim tizimining nazariy asoschisi L. S. Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo‘lmasligini keltirib chiqarsa, o‘z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida qayd etadi. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni atroflicha o‘rgangan R .M. Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbatan oz buzilishi – shivirlashni, idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me’yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to‘sqinlik qilishini ko‘rsatib o‘tadi[2].

Eshitishida muammosi bor bolalarni nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirish va rivojlantirish ularni abilitatsiya va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali ijtimoiy moslashuviga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyat va omillarini aniqlashtirish, adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirishning metodik-pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish, takomillashtirish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining yaxlitligi tashqi va ichki omillar bilan ifodalandi. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish samaradorligi ta’lim jarayonida uchta turdagi didaktik, maxsus va o‘ziga xos tamoyillarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Ularni tasniflash eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilarning ruhiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklari, maxsus maktab o‘quvchilari nutqini shakllantirishning butun o‘quv jarayoniga ta’sir o‘tkazadigan xususiyatlari, o‘quv fani sifatida adabiy ta’limning o‘ziga xosliklarini hisobga olish bilan ifodalanadi. Shunga ko‘ra pedagogik tizimning alohida komponentlarini ishlab chiqishda, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va munosabatlarni aniqlashda, ilmiylik, tushunarlilik, ko‘rgazmalilik, izchillik va tizimlilik, faollik va mustaqillik kabi o‘qitish jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradigan didaktik tamoyillarga asoslandi.

Didaktik tamoyillardan tashqari eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarning xususiyatlarini aks ettiradigan maxsus tamoyillar guruhi ajratildi. Bu guruhda surdopedagogikada ma’lum bo‘lgan kommunikatsiya, nutqiy amaliyotni maksimal darajada

---

[1] O‘zbekiston Reespublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. 39-b.

[2] Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха. – М.: Просвешиение, 1998. – С. 18.

boyitish, o'qitishning vaziyat bilan bog'liqligi, nutq va tafakkurni o'stirishning birligi, ta'limni nutqning holati haqidagi ma'lumotlar asosida qurish tamoyillari tashkil etadi. Spetsifik (o'ziga xos) tamoyillar maxsus tamoyillarning o'qishning o'quv fani sifatidagi o'ziga xosliklari bilan belgilanadigan o'ziga xos tarzda aniqlashtirildi. Pedagogik tizim doirasida adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarni nutqini rivojlantirishni reglamentlovchi (tartibga soluvchi) o'ziga xos tamoyillar tizimiga *adabiy-badiiy tamoyil*ning kiritilishi adabiy o'qish darslarida adabiyotning barcha, eng avvalo, matnlarni so'z san'ati hodisalari sifatida idrok qilishga undash va o'quvchilarni muallif asarlari olamiga g'arq qilish, hissiyotlar, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish mumkin bo'lgan muhitni yaratishda namoyon bo'ladigan estetik funksiyasini amalga oshirish bilan bog'liq.

Badiiy asarni yaxlit o'rganish tamoyili, bunda badiiy asarning har bir ahamiyatli elementi badiiy yaxlitlik tiklanishi va rivojlanishining ma'lum daqiqasi sifatida qaraladi, adabiy o'qish darslarida adabiy matn tahliliga qarashlarni o'zgartiradi. O'qishga o'rgatishning an'anaviy metodikasi sharoitida matn tahlilida eshitishda nuqsoni bor o'quvchining e'tibori matnni qurish qonuniyatlari va o'ziga xosligini anglash emas, balki ko'proq muallif matnini uzatish, undan nusxa olish va qayta yaratishga qaratiladi.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimda badiiy asarni yaxlit o'rganish natijasi kitobxonlarning badiiy-ijodiy faoliyati bo'ladi, u badiiy asarni va o'z fikrlarini yaratish jarayonini idrok qilish qonuniyatlari bilan belgilanadi. *Badiiy asarni o'rganishning tizimliligi tamoyili* o'quvchilar badiiy asar matni bilan ishlaganda egallaydigan adabiyotshunoslikka oid bilimlar va adabiy-ijodiy malakalar tizimini nazarda tutadi. Bu tamoyilni amalga oshirish o'rganilayotgan badiiy material bilan uni tushunish uchun zarur bo'lgan, adabiy ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish pedagogik tizim bosqichlarida shakllantiriladigan, kitobxonlik hamda adabiy-ijodiy malaka o'rtasida muvofiqlikka erishishni nazarda tutadi.

Adabiy o'qish darslarida o'rganishning asosiy birligi badiiy matn bo'lgani sababli adabiyotshunoslik va tilshunoslik materialini saralash boshqa bir spetsifik tamoyil – *matnning adabiyotshunoslik va tilshunoslik fenomeni sifatidagi o'ziga xosliklarini hisobga olish* asosiga qurildi. Adabiy matnlar bilan tanishishning nazariy asosini quyidagi tushunchalar guruhlari tashkil qildi: "asar olami", "janrlar", "matn", "nutq tiplari", "nutq uslublari", "tilning obrazli vositalari". Ajratib ko'rsatilgan tushunchalar eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarni badiiy asar bilan tanishtirishga ko'maklashadi, faqat amaliy darajada kiritiladi va bolalar tomonidan o'zlashtiriladi.

*Emotsionallik* spetsifik tamoyili bolaning tabiati va faoliyatidan kelib chiqadi. Intellektual emotsiyalarni faollashtirish adabiy ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish pedagogik tizim sharoitida o'quvchilarda mutolaa bo'yicha o'quv-bilish faoliyatida intellektual-emotsional ehtiyojlarni shakllantirishga ko'maklashadi. U o'quvchi shaxsining emotsional sohasi rivojlanishini rag'batlaydi, ta'lim jarayonida mustaqil ijodiy faoliyatdan estetik qoniqishning tiklanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Tadqiqotning maqsadli vazifalarini hal qilishni ta'minlashda navbatdagi qadam adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining asosiy *maqsadli, mazmuniy, faoliyatli, baholash-natijaviy* komponentlarini (tarkibiy qismlarini) ajratishdan iborat bo'ldi.(1-jadval)

*1-jadval*

| Maqsadli komponent | | |
|---|---|---|
| **Mazmunli komponent** | **Faoliyatli komponent** | **Baholash-natijaviy komponent** |
| Nutqiy va kitobxonlik malakasi | Ta'lim tamoyillari | Badiiy asar mazmunini idrok etish |
| Matnni mazmunli idrok etish usullari | Ta'lim metodlari | Badiy asar og'zaki mazmunini bayon etish |
| Nutqiy muloqot va ijodiy faoliyat tajribasi | Ta'limni tashkil etish shakllari | Bibliografik kompetentlik |
| Kitobxonlik va emotsional baholash faoliyati tajribasi | Ta'limni boshqarish va nazorat qilish | Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni motivatsiyalash |

Metodlarni tanlashda Y.K. Babanskiy tomonidan taklif qilingan tasnifga (o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari; o'quv-bilish faoliyatini rag'batlash va motivatsiyalash metodlari; o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'zidan o'zi nazorat qilish metodlari) asoslandi. Bu tasnif "faoliyatga yaxlit yondashuv metodologiyasiga" asoslangan. Eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarning adabiy ta'lim jarayonida rivojlanishini ta'minlaydigan metodlarni ishlab chiqishda u yoki bu muayyan metodni tanlashning shartlarida: o'quv fanining xarakteri va mazmuni, didaktik vazifalar, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning nutqiy rivojlanishiga bog'liq ekani haqidagi qoida e'tiborga olindi.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishni ta'minlaydigan metodlarga o'qilgan asar mazmunini qayta tiklashga qaratilgan perseptiv metodlar kiritildi. Gnostik metodlar mustaqil intellektual, nutqiy faoliyat rivojini belgilaydi, aqliy rivojlanishga ko'maklashadi va bolalarda ijodiy tasavvurni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu guruh metodlari ichida *bolani ijodiy rivojlantirish metodi*ga alohida ahamiyat qaratamiz. Bu metod o'qituvchi o'qitishning turli vositalari yordamida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi, o'quvchilar fikr yuritadi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar qiladi, to'qiydi, ta'lim kitobxonlik faoliyatiga qiziqishning yuqoriligi bilan kechadi, ta'lim o'quvchilarning estetik, bilishga oid va o'zini-o'zi rivojlantirish motivlarini belgilaydi va yo'naltiradi, bular kitobxonlik fikrlash doirasining rivojlanishi va shaxsiy rivojlanishga ko'maklashadi. Ajratib ko'rsatilgan tavsiflar o'qitish amaliyotida kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatga o'quvchilarni jalb qilishning turli usullarini muvaffaqiyatdan quvonchni his etish uchun sharoit yaratishda qo'llash imkonini beradi.

Bolani ijodiy rivojlantirish metodini qo'llashda individual kechinmalar, kuzatishlar, tahliliy fikrlar, kitobxonlik taassurotlari, badiiy iqtidorni, nutqiy ijodni, o'quvchilarning adabiy matnlar bilan ishlashga ehtiyojini rivojlantirish imkoniyatini ko'ramiz. Metodlarning bu guruhida *muloqotning nutqiy vaziyatlarini yaratish* metodi ahamiyatli hisoblanadi [3]. Bu metod o'quvchilarga o'qish vaziyatlariga yo'nalganlik (nima uchun ular o'qishga o'rganyapti, o'qish ularga nima beradi, kitob tanlashda nimalarga rioya qilish kerak) imkonini beradigan o'quv vaziyatlarini yaratish, o'zining shaxsiy hayotiy taassurotlarini anglash, til vositalari, qahramonlarni mustaqil tanlash, ular harakat qiladigan

[3] Морозова Н.Г. Воспитание сознательного чтения у глухонемых школьников. – М.: Учпедгиз, 1993. – С.84.

vaziyatni o‘ylash, o‘z jumlasi kompozitsiyasini qurish bilan mustaqil jumla qurishga bo‘lgan istakni hosil qilishga qaratilgan. Shu guruhga kiritilgan boshqa bir metod – *prognozlash metodi*ning mohiyati nafaqat asarni bevosita idrok qilish vaqtida uning mazmuni va muallif g‘oyasini tushunish, balki hali boshlanmagan hodisalar, xatti-harakatlar, voqealarni oldindan fahmlash va ko‘ra bilishdan iborat. Eshitishda nuqsoni bor kitobxonning prognostik faolligi bilan birga kechadigan mutolaa uning tasavvurida asarning yaxlit tasviri, o‘z fabulasi yaratilishiga olib keladi.

Asarning nomi, illyustratsiyalar ustida ishlash, notanish so‘zlarga e’tibor qaratish, matnda yashirin savollarni izlash orqali o‘quvchilarda matn mazmunini oldindan fahmlash imkonini beradigan va matnning keyingi idrokini boshqaradigan ustanovkaning shakllanishiga erishamiz. Metodlarning bu guruhida *loyihalar metodi* ajratildi, uning asosini o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati u yoki bu nazariy yoki amaliy muammoni hal qilishda olinadigan natijaga yo‘naltirilganligi haqidagi g‘oya tashkil qiladi. Loyihalar metodi o‘quvchilarga bilim va malakalarni, topshiriqlarni rejalashtirish va mustaqil bajarish jarayonida egallash imkonini beradigan o‘quv-bilish usullari yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Savodli tarzda tashkil qilingan loyihalash faoliyati eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning rivojlanishida sezilarli pedagogik samara beradi. Tajriba-sinov o‘qitish doirasida loyihalash metodi adabiy o‘qish darslarida (asarlarni qiyoslash) va sinfdan tashqari o‘qish darslarida (qo‘lyozma va elektron kitobchalar chiqarish, multfilmlar yaratish, fotoalbomlar tuzish, teatr tomoshalari sahnalashtirish) qo‘llanildi.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishni ta’minlaydigan metodlar guruhini realizatsiyalashning asosiy usuli *tayanch ko‘rgazmalilik* hisoblanadi. Mazkur usuldan ta’limda savollar yoki frazalar strukturasidan foydalanish, asosiy aloqa va munosabatlarni ifodalash, mikromavzularni, turli tipdagi matnlarni, fikrlar, dialoglarni tuzish va sxemalarni ajratish imkonini beradigan asoslarni konstruksiyalashga asoslangan bilimlar manbayi sifatida foydalaniladi.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni shakllantirish, rag‘batlash va motivatsiyalashga qaratilgan metodlarning ikkinchi guruhida *bilishga qiziqishni shakllantirish metodi* yetakchi o‘rin tutadi. Bu metodni ta’limda amalga oshirish kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatga, uning mazmuni, amalga oshirish shakl va metodlariga nisbatan ijobiy hislar shakllanishini ta’minlaydi. Emotsional holat hamma vaqt to‘lqinlanish, hayajon: javob, hamdardlik, quvonch, jahl, hayrat kabilarni kechirish bilan bog‘liq. Ta’kidlash muhimki, o‘quvchilarni chuqur ichki kechinmalarga diqqat, eslab qolish, anglash jarayonlariga jalb qilish bu jarayonlarning kechishini erishiladigan natijalar nuqtayi nazaridan yanada jadal samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bilishga qiziqishni shakllantirishning asosiy usullari: muvaffaqiyat, yangilik, qiziqarlilik, hayratlanish vaziyatlarini yaratish, o‘yinli vaziyatlardan foydalanish sanaladi.

Adabiy-ijodiy faoliyat ustidan nazoratni ta’minlovchi metodlar guruhiga *matnni mukammallashtirish metodi* kiradi. Bu metodni realizatsiyalashning asosiy usuli *tahrirlash* bo‘lib, uning ahamiyatliligi usul fikrlash, emotsional-irodaviy sohani rivojlantirishning faol vositasi ekani bilan belgilanadi. O‘z jumlalarini tahrirlash davomida o‘quvchilar sarlavha jumlasini g‘oyaga muvofiq to‘g‘rilash; mavzuga va aytilayotgan asosiy fikrga mos bo‘lmagan bir yoki bir necha gapni istisno qilish; mavzu va asosiy g‘oyani ochib berishga ko‘maklashadigan gaplarni qo‘shishga oid mashqlarni bajaradi. Tahrirlar usulini qo‘llashning ahamiyati uning eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolani o‘z nutqi rivojlanishi yo‘lida ilgari olib borishi bilan belgilanadi.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish mazmunini o'zgartirish o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning yangi shakllaridan foydalanishga ham olib keladi.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining faoliyatli komponenti doirasida an'anaviy frontal darslar kabi qiziqarli: "dars-bayram", "dars-konsert", "dars-viktorina", "dars-sayohat", "dars-taqdimot" kabi o'yinlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tizimda adabiy o'qish darsi bilan darsdan tashqari faoliyat o'rtasida qat'iy chegaralashning mavjud emasligi tamoyili yangilik hisoblanadi.

Fikrimizcha, adabiy o'qish darslarida va sinfdan tashqari paytda o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning turli shakllaridan foydalanish adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimni qo'llash uchun optimal sharoit yaratadi, eshitishida nuqsoni bor o'quvchilarga kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatida yuqori darajalarga erishish imkonini beradi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimning strukturaviy komponentlarini ishlab chiqishda navbatdagi qadam *baholash-natijaviy komponent*ini ishlab chiqish bo'lib, uning mohiyatini pedagogik jarayonning samaradorligini aks ettirish va qo'yilgan maqsadga muvofiq erishilgan siljishlarni namoyon qilish bilan ifodalandi.

Baholash-natijaviy komponentni ishlab chiqishda adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish darajasi ko'rsatkichlarini kompleks diagnostikalashga tayanamiz, diagnostika nafaqat o'qish texnikasi, balki asarni idrok qilish darajasi, mustaqil jumla yaratish, bibliograf kompetentlik hamda kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatning motivtsion bahosini aniqlashni nazarda tutadi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida o'qitish natijalari diagnostik xulosalarning aniqligi, to'liqligi va o'z vaqtida qilinganiga to'g'ridan to'g'ri va bevosita bog'liq. Ishlab chiqilgan adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining (maqsadli, mazmunli, faoliyatli va baholash-natijaviy) komponentlari bir-biriga o'zaro bog'liq, birgalikda tizimning ahamiyati va mazmunini hamda kommunikativ, kitobxonlik va adabiy-ijodiy malakalarning shakllanishini belgilaydigan elementlarni o'z ichiga olgan tizimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // www.uza.uz. 2017-yil 7-fevral.*

*2. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха. – М.: Просвещение, 1998. – С.8.*

*3. Морозова Н.Г. Воспитание сознательного чтения у глухонемых школьников. – М.: Учпедгиз, 1993. – С.84.*

**Shavkat QOSIMOV,**
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

# AMALIY KASBIY TA'LIMDA LABORATORIYA ISHLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH METODIKASI

**Annotatsiya**

Maqolada laboratoriya ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi masalalari bayon etilgan. Laboratoriya mashg'uloti talabalarning nazariy bilimlari, mahorati va ko'nikmalarini o'quv-tadqiqotchilik xususiyatidagi yaxlit jarayonda integratsiyalovchi mustaqil ish turlaridan biri hisoblanishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar.** Laboratoriya, nazariy ta'lim, amaliy ish, metod, tadqiqotchilik ishi, mustaqil ish, tajriba, funksiya.

В статье освещены вопросы организации и методики проведения лабораторных работ. Лабораторная работа – это один из видов самостоятельных работ, которая объединяет в один процесс теоретические знания, навыки и способности учащихся научно-исследовательского характера.

**Ключевые слова.** Лаборатория, обучение теории, практическая работа, метод, исследовательская работа, самостоятельная работа, опыт, функция.

Article deals with the organization and methods of conducting laboratory works. Laboratory work is one of the types of independent work that combines the theoretical knowledge, skills and abilities of students of a research character into one process.

**Key words.** Laboratory, teaching theory, practical work, method, research work, independent work, experience, function.

Laboratoriya ishi amaliy tayyorgarlik shakllaridan biri bo'lib, didaktikada o'qitish shakli va metodi sifatida qaraladi. "Laboratoriya", "laboratoriyaviy" atamalari lotinchadan labor – mehnat, ish, qiyinchilik; laboro – mehnat qilmoq, harakat qilmoq, tashvish chekmoq, qiyinchiliklarni yengib o'tmoq degan ma'noni anglatadi. Laboratoriya ishlari ilmiy va kundalik turmushdagi masalalarni hal qilishning ilgari ma'lum bo'lmagan yo'llari va vositalarini izlab topish bo'yicha aqliy hamda jismoniy harakatlarni qo'llash bilan bog'liq mashg'ulotdir.

Laboratoriya ishi – bu zaruriy kasbiy mahoratni shakllantirishga qaratilgan o'qitish shaklidir. Laboratoriya mashg'ulotlari davomida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida yoki mustaqil ravishda nazariy bilimlari chuqurlashtirish, mustaqil tajriba o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadlarida amaliy ishni bajarishadi. Laboratoriya mashg'uloti, laboratoriya ishi umumiy o'rta ta'lim, maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim

muassasalarida o‘tkaziladigan o‘quvchilarning mustaqil amaliy va tadqiqotchilik ishlari turlaridan biridir[1].

Laboratoriya mashg‘uloti – bu talabalarning nazariy bilimlari, mahorati va ko‘nikmalarini o‘quv-tadqiqotchilik xususiyatidagi yaxlit jarayonda integratsiyalovchi mustaqil ish turlaridan biridir[2].

“Laboratoriya ishi” va “laboratoriya mashg‘uloti” tushunchalari agar laboratoriya ishi butun mashg‘ulot davomida o‘tkaziladigan bo‘lsa, aynan o‘xshash tushunchalardir. Laboratoriya ishi o‘qitishning boshqa murakkab shakllari tarkibiga kiritilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda laboratoriya ishi o‘qitish metodi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘quv faoliyati turlaridan biri sifatidagi laboratoriya mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilar o‘rganilayotgan o‘quv mavzusi mazmuni bilan mos holda bitta yoki bir nechta laboratoriya ishlarini o‘qituvchi rahbarligi ostida bajarishadi.

O‘qitish metodi sifatida laboratoriya ishlarining mohiyati nimadan iborat? Laboratoriya ishi – bu shunday o‘qitish metodi hisoblanadiki, bunda talabalar o‘qituvchi rahbarligi ostida oldindan belgilab olingan reja bo‘yicha ma’lum bir amaliy topshiriqlarni bajarishadi va ularni bajarish davomida yangi o‘quv mavzuni fikran anglab oladi, o‘rganilgan mavzuni mustahkamlaydi, amaliy masalalarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo‘llaydi, u yoki bu vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishadi.

S.I. Arxangelskiyning fikriga ko‘ra, laboratoriya mashg‘ulotining bosh vazifasi bo‘lib maxsus jihozlangan xonalar – laboratoriyalarda tajribaviy tadqiqotlar asosida nazariya va amaliyot aloqadorligini o‘rnatish sanaladi[3].

Laboratoriya ishlari o‘quv fani asoslarini chuqurlashtirilgan holda o‘rganishga, o‘qitishning eng yangi texnik vositalarini qo‘llash bilan tajriba o‘tkazishning zamonaviy metodlari va ko‘nikmalarini egallashga mo‘ljallangandir. Laboratoriya mashg‘uloti oldida turadigan vazifalarga bir qator mualliflar talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, shuningdek, murakkab bo‘lmagan ijodiy tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirishni ham kiritishadi.

Ko‘pchilik hozirgi zamon tadqiqotchilari laboratoriya mashg‘uloti yordamida nafaqat tajribaviy ko‘nikmalarni, balki o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtirish jarayoni rivojlantirilishi ham zarur deb hisoblaydilar.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining maqsadi – bu talabalar tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv fanining ilmiy-nazariy qoidalari o‘zlashtirilishi, ularning mos holdagi ilm-fan tarmog‘idagi eng yangi tajriba texnikalarni o‘zlashtirishlari, olingan bilimlarni instrumentallashtirish, ya’ni, bilimlarni o‘quv-tadqiqotchilik masalalarini, keyinchalik esa tajribaviy va amaliy masalalarni hal qilish vositasiga, boshqacha aytganda esa nazariyaning amaliyot bilan aloqadorligini o‘rnatish vositasiga aylantirishdir.

Laboratoriya mashg‘ulotlari o‘rganilayotgan o‘quv fani mavzulari ustidan talabalarning ishini faollashtiradi. Shu narsa ko‘p ta’kidlanadiki, talabalarning semestr davomidagi eng intensiv va ritmik ishlari laboratoriya mashg‘ulotlariga ega bo‘lgan o‘quv fanlari bo‘yicha olib boriladi. Laboratoriya ishining funktsiyalari quyidagilardan iborat:

---

1 Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’limni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2014, 160-b.

2 Avazov Sh., Muslimov N. Qosimov SH., Xodiyev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari (chizmalar, jadvallar va suratlarda). Metodik qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2014. 300-b.

3 Xodjaboyev A.R., Qosimov Sh. Amaliy kasbiy ta’limni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2007. 148-b.

1. O'quv funksiyasi (o'quv mavzulari o'zlashtirilishi jarayonini tezlashtiradi).

2. Rivojlantiruvchi funksiya (tasavvur qilish, xotira, fazoviy fikrlash, ijodiylik, diqqatni rivojlantiradi).

3. Tarbiyaviy funksiya (xarakterning turli qirralariga – tashkilotchilik, mas'uliyatlilik, mustaqillik va shu kabilarga ta'sir ko'rsatadi).

4. Motivatsion-rag'batlantiruvchi funksiya (bilish faoliyatini faollashtiradigan o'quv axborotlarini faol tadqiq qilish va ularni qayta o'zgartirish bo'yicha faoliyatga o'quvchilarni jalb qilish uchun vaziyat yaratadi).

5. Refleksiv funksiya (o'quvchilarning boshqalar bilan solishtirganda o'zlarini anglashlariga; o'z harakatlarini nazorat qilish va tahlil qilish mahoratini rivojlantirishga, o'z xatolarini topish va ularni to'g'rilashga, o'z harakatlari natijalarini baholash va ularni to'g'rilab borishga imkon beradi).

6. Diagnostik funksiya (o'qituvchiga o'quvchilar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni, ularning bilim va mahoratni egallab borish darajasini aniqlashga imkon beradi).

Laboratoriya ishlarining yetakchi didaktik maqsadi – ma'lum bir nazariy qoidalar (qonuniyatlar, bog'liqliklar)ni tajriba yo'li bilan tasdiqlash va ularni tekshirib ko'rish hisoblanadi. Shuningdek, amaliy mahoratni – kasbiy (kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan ma'lum bir harakatlarni, operatsiyalarni bajara olish mahorati) va o'quv (keyingi o'quv faoliyatida zarur bo'ladigan o'quv masalalarini hal qila olish mahorati) mahoratini shakllantirish sanaladi. Ko'pchilik hollarda bu har ikkala didaktik maqsadlar jips bog'lanib ketadi, shuning uchun ham ayrim bir nechta o'quv mashg'ulotlari uchun "amaliy-laboratoriyaviy mashg'ulot" atamasi qo'llaniladi.

**Laboratoriya ishlarini o'tkazish metodikasi.** Laboratoriya ishlari o'quv dasturining nisbatan murakkab bo'limlari bo'yicha o'tkaziladi. Ularga nazariy va amaliy o'qitish (ishlab chiqarish ta'limi) orasidagi aloqadorliklarni o'rnatishda, mustaqil kuzatish va turli xil qonuniyatlarni, pedagogik jarayondagi aloqadorliklarni tahlil qilish asosida o'zlashtirishda, bajarilgan ishlar natijalari bo'yicha xulosalarni tizimlashtirishda muhim o'rin ajratiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, hozirgi vaqtlargacha ularni o'tkazishning turli xil metodikalari ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar an'anaviy laboratoriya ishlarini o'tkazish usullaridan farq qilgan holda laboratoriya mashg'ulot ishlarini bajarishda formalizmni bartaraf etishga, nazariy mavzuni yanada kengroq tushunishga, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim texnologiyasini yaratishga intilishadi. Ularni bajarish uchun ajratiladigan laboratoriya va amaliy ishlar ro'yxati, soatlar miqdori o'quv fanining ishchi dasturida ko'rsatib o'tiladi. Laboratoriya ishi uchun topshiriqlar tarkibi shunday hisob-kitob qilinishi lozimki, bunda laboratoriya ishlari uchun ajratilgan vaqt davomida ular ko'pchilik o'quvchilar tomonidan bajariladigan bo'lishi lozim.

O'quvchilarning mustaqil faoliyatidan tashqari laboratoriya ishlarining zaruriy tuzilmaviy elementlari – o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan instruktaj (yo'riqnoma berish), shuningdek, bajarilgan ishlarni tahli qilish va baholash, talabalarning rejalashtirilgan mahoratni egallaganlik darajasini aniqlash kabilar hisoblanadi. Laboratoriya ishlarini bajarishdan oldin talabalarning bilimlarini, nazariy tayyorgarligini tekshirib chiqish amalga oshiriladi, o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda maxsus jihozlangan xonalarda, laboratoriya ishlarini bajarishda esa – o'quvchilar bilan laboratoriya ishlarini bajarish davomida mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish, yong'in

va elektrotexnika xavfsizligi bo'yicha instruktajlarni o'tkazish bajariladi. Laboratoriya mashg'ulotlarining umumiy tuzilmasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) Kirish qismi: mashg'ulot boshlanishini tashkil etish (o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotiga yetib kelishlari va ularning ishni bajarishga tayyorgarliklari tekshirib chiqiladi); umumiy instruktajdan o'tkazish (laboratoriya mashg'uloti mavzusi, uning maqsad va vazifalari tushuntiriladi; talabalarning topshiriqni bajarishga tayyorgarligi muhokama qilinadi, ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan nazariy bilimlar bo'yicha qisqacha takrorlash o'tkaziladi, laboratoriya topshirig'ini bajarish bo'yicha harakatlar sxemasi tanlab olinadi);

2) Talabalarning mustaqil ishlari (laboratoriya topshirig'ini bajarish yo'llari belgilanadi, uni aniq namuna asosida bajarishning asosiy algoritmlari ko'rib chiqiladi; topshiriq bajariladi; talabalarning ishlari ustidan o'qituvchi nazorati va kuzatuvi amalga oshiriladi, joriy instruktaj o'tkaziladi; hisobotlar tuziladi);

3) Yakuniy qism (laboratoriya ishi natijalari tahlil qilinadi, topshiriqni bajarish davomidagi xatoliklar aniqlanadi va ularning paydo bo'lish sabablari belgilanadi, talabalar tomonidan o'z harakatlar refleksiyasi o'tkaziladi).

Laboratoriya mashg'ulotlarining innovatsiyaviyligi quyidagilar bilan shartlanadi:

1. Rivojlantiruvchi va o'qitish maqsadlarining ro'yobga chiqarilishi, ularning tarmoq tayyorgarligi fanlari bo'yicha o'qitish vositalarini loyihalashtirish, tuzish va ishlab chiqish sohasida talabalarda umumiy va kasbiy kompetentsiyalar shakllantirilishiga yo'naltirilganligi.

2. Muammoli-rivojlantiruvchi o'qitish metodlarini, shuningdek, pedagogik texnika tamoyillari va usullarini tanlab olish va ularni ro'yobga chiqarish.

3. Mashg'ulotda mustaqil ishni, unga tayyorlanishni tashkil etish.

4. Metodik mahoratni egallash darajasini tahlil qilish va uning metodik refleksiyasini amalga oshirish.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda talabalarning quyidagi faoliyat turlaridan foydalaniladi:

– laboratoriya topshiriqlarini bajarish bo'yicha individual ishlash;

– topshiriqlarni bajarishda o'zaro bir-biri bilan o'rganish va o'zaro bir-birini tekshirish bilan juft bo'lib ishlash;

– metodik muammolarni jamoa bo'lib muhokama qilish;

– laboratoriya topshiriqlarini o'qituvchi rahbarligi ostida bajarish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, laboratoriya mashg'uloti mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, mavzu bo'yicha tushuncha va iboralarni egallash, o'z fikrini bayon etish, xulosalash ko'nikmalarini shakllantirish kabi bir qator muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. Avazov SH., Muslimov N., Qosimov Sh., Xodiyev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta'lim metodikasi va texnologiyalari (chizmalar, jadvallar va suratlarda). Metodik qo'llanma. – T.: Navro'z, 2014. 300-b.*

*2. Xodjaboyev A.R., Qosimov SH. Amaliy kasbiy ta'limni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. 148-b.*

*3. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2014, 160-b.*

**Abdusalim KENJABOYEV,**
**Muslima BOZOROVA,**
Termiz Davlat universiteti dotsentlari

# XALQ PEDAGOGIKASI – MILLIY TARBIYANING ASOSI SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqola xalq pedagogikasi namunalari asosida yosh avlodni tarbiyalash, ularni komil insonlar qilib voyaga yetkazish masalalariga bag‘ishlangan. Mualliflar bu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, taklif va tavsiyalar bergan.

**Kalit so‘zlar.** Xalq pedagogikasi, milliy tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, etnopedagogika, oila, insonparvarlik, oliy ta’lim muassasasi.

Статья посвящена раскрытию роли народной педагогики в национальном воспитании подрастающего поколения. Авторами предложены рекомендации по данному вопросу.

**Ключевые слова.** Народная педагогика, национальное воспитание, устное народное творчество, обычаи и традиции, этнопедагогика, семья, гуманизм, высшее образовательное учреждение.

Article devoted to the disclosure of the role of folk pedagogy in the national education of the young generation. The authors offered recommendations on this issue.

**Key words.** Folk pedagogy, national education, oral folk art, customs and traditions, ethno-pedagogy, family, humanism, higher educational institution.

O‘zbek xalq pedagogikasi qamrovi nihoyatda keng, serqirra tushuncha bo‘lib, u shu xalq paydo bo‘lgan butun bir davrni o‘z ichiga oladi. Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlari – xalq og‘zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo‘nalishlarini, diniy axloqiy ta’limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi.

Tarixdan ma’lumki, har bir xalq o‘z tarixini anglashi, u bilan faxrlanishi jamoa va shaxs rivoj topishining omilidir. O‘zlikni anglash ma’naviy qadriyatlarning poydevoridir. Bo‘lajak raqobatbardosh pedagog kadrlarni xalqimizning muqaddas qadriyatlari asosida tarbiyalash pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari oldidagi asosiy vazifalardandir.

Tarbiya ijtimoiy-tarixiy zaruriyat va ehtiyojdir. Shu bois har bir millatning etnopedagogik xususiyatlariga xos bo‘lgan milliy tarbiyasi o‘sha millatning yashash jarayonida, oila ehtiyojlari asosida yuzaga keladi. Bu xususiyatlar asrlar sinovidan o‘tib, sayqal topib, mukammallashgan va shu millat manfaatlarini himoya qilishga qodir bo‘lgan milliy tarbiyaga aylangan.

Milliy tarbiyaning etnopedagogik xususiyatlarining maqsad va manfaatlari inson farzandining baxtli-saodatli, mehr-oqibatli bo‘lishiga xizmat qilgan. Shu bois o‘zbek

xalqining tarixiy an’analari, urf-odatlari, udumi, rasm-rusumlari, ma’naviy qadriyatlari, muloqot ko‘rinishlari mukammalligi, nodirligi, betakrorligi bilan muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Milliy tarbiya bolalar ongini o‘zi yashagan muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish, rivojlantirish jarayoniga aylanib, kishilarning iqtisodiy, madaniy hayotda faol ishtirok etishi kabi barcha ijobiy ta’sirlarning majmuasi hisoblangan.

Har bir millat o‘z tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og‘zaki meros (ertak, doston, qo‘shiq, topishmoq, tez aytish, masal, matal, maqol, rivoyat, hikoya) yaratgan va ulardan tarbiyaviy vosita sifatida foydalangan, natijada xalq og‘zaki va yozma yodgorliklari eng muhim tarbiyaviy vosita manbaiga aylangan hamda ulardan tarbiya jarayonida foydalanilgan.

Etnopedagogik ta’limotga ko‘ra, milliy tarbiya ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan bola tarbiyasiga oid bebaho xulosalar, yechimlar aks etgan bitmas-tuganmas xalq durdonalari hisoblanmish rivoyat, ertak, afsona va dostonlarga murojaat etish, undan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Etnopedagogika shunday saboq beradiki, sharq xalqlari, jumladan, o‘zbeklar bolalar tarbiyasiga befarq qaramagan, hayotdagi har qanday xatti-harakatning ham oqibati to‘g‘ri baholangan. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ijobiy ta’sir ko‘rsatish yo‘li va vositalari yaratilgan. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, deb bejiz aytilmagan. Noaxloqiy xatti-harakatlarni qisqa, ammo o‘ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan “yomon bo‘ladi” iborasi bilan tavsiflashgan. Masalan, xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq qoidalariga ko‘ra, nonga hurmat ulug‘langan va non ushog‘i bexosdan yerga tushib ketsa “uvol bo‘ladi” deb, uni qo‘lga olib, ko‘zga surilgan yoki chetga olib qo‘yilgan.

Suvga tuflash “gunoh” bo‘ladi, “yomon bo‘ladi” deb bolalarga tushuntirilgan. Qadim-qadimdan hovuzlarning suvi haftalab, oylab toza turgan. Biror kishi uni “harom” qilishga botina olmagan.

Otaga tik qarash, ters javob berish, qizlarga, xotin-qizlarga behayolik qilish “yomon bo‘lishi”ni bolalarga yoshlik paytlaridan tushuntirilgan. Bunda bolaning yoshi, xatti-harakatlari, o‘zlariga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ayrimlariga noaxloqiy harakatlarning yomonligi hadisi shariflardan misollar keltirish, hikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-onalar, mahalla-ko‘y, qo‘nu qo‘shnilarning ibratli hayotlari namunasida tarbiyalangan. Masalan, musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa “yomon bo‘ladi”, bu kundalik rizqimizdan benasib qolamiz deganidir kabi iboralar bolalarni erta turishga, shu o‘rinda mehnatsevarlikka undagan. Hayvonlarga, parranda-qushlarga tosh otma, ozor berma, ekinlarni payhon qilma “yomon bo‘ladi”, iborasi orqali ona tabiatga hurmat va mehr, uni avaylab-asrashga da’vat etilgan.

Saranjom-sarishtalik uyning bezagi, tejamkorlik farovonlik kaliti, to‘g‘rilik, halollik ko‘ngil xotirjamligi ekanligini xalqimiz unutmagan va oilada bolalarni ana shunday fazilatlar asosida tarbiyalashga doimo vaqt topisha olgan.

Ulug‘ ajdodlarimizdan xalqimizga meros qolgan saxiylik, mehmondo‘stlik, rostgo‘ylik, tetiklik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy xulq-atvorning eng muhim xususiyatlari hisoblanadi. Ushbu fazilatlar milliy tarbiya orqali bolalar ongiga, jismi-joniga singdirilgan, bola ruhiyatini xalq donishmandligi durdonalari bilan boyitishgan.

O‘zbek xalqida bolalar bilan bog‘liq juda ko‘p yaxshi an’analar bor. O‘zbek xalqi etnopedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, parvarish qilish, ta’lim va tarbiya berish, ehtiyotlash kabi insoniy qarashlarni targ‘ib qilib kelgan.

Oilada yangi inson – farzandning dunyoga kelishini barcha xalqlar qadim-qadimdan kishi hayotidagi eng quvonchli hodisa sifatida nishonlab kelishgan. Xalqimiz shu quvonchni ifoda etuvchi urf-odatlarni ijod etishgan. O‘zbeklarning qadimiy urf-odatlariga ko‘ra, yangi chaqaloqning dunyoga kelishi faqatgina uning ota-onasi uchungina emas, balki hamma qarindosh-urug‘lari va mahalla-kuy uchun sevinchli hodisa hisoblangan. Hozirga qadar saqlanib kelayotgan xalqimizning etnopedagogik urf-odatlaridan yana biri – yangi chaqaloq sharafiga mevali daraxt ko‘chati o‘tqazilishidir. Bu bilan xalqimiz vakillari yangi chaqaloqning dunyoga kelishini an’anaviy marosimga aylantirish va tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otibgina qolmasdan, balki kelgusi avlodlar hayotining farovonlashishini ham ko‘zlashgan.

O‘zbek oilasida an’anaviy tarbiya hamisha bosh mezon bo‘lib kelgan va undagi ma’naviy muhit muhim o‘rin tutadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deyilgan xalqimizning mashhur maqoli aynan oiladagi ma’naviy tarbiyani, muhitni shakllatirishda muhim vositadir. Ota-onaning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlaridan bola andoza oladi va o‘zi ham shunga intiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oiladagi ma’naviy tarbiyani shakllantirishdagi omillardan quyidagilarni tavsiya sifatida ko‘rsatish mumkin:

– farzandlarda ota-onaga, aka-ukaga, opa-singil, qarindosh-urug‘larga, keksa kishilarga hurmat hissini shakllantirish;

– ularning madaniyat va san’atga e’tiborini jalb etish, badiiy-estetik tarbiyasiga ahamiyat berish;

– yoshlarga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan dasturxon odobi, mehmondorchilik, muomala odobi singari ko‘nikmalarni singdirish;

– oilada ijtimoiy, ma’naviy-muhitni sog‘lomlashtirish yo‘lida olib borilayotgan tadbirlarni amalga oshirishda farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor berish;

– oiladagi ma’naviy muhitni shaklantirishda umumiy tarzda ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindoshlarga bo‘lgan yaxshi munosabatlarni o‘zlashtirishni bosh mezon deb tushunish va h.k.

Xullas, etnopedagogik nuqtaii nazardan qaraganda milliy tarbiyamizda oilaviy turmushdagi va ijtimoiy hayotdagi shaxs xislatlari asosiy mezon bo‘lib kelgan va hozirgi kunlarda ham bolalarni tarbiyalashda bu mezonlarga amal qilinadi. Chunki ming-ming yillardan buyon tajribada sinalgan, mustaqil Vatanimizda ulug‘ qadriyatga aylangan milliy tarbiyaviy mezon yanada rivojlanib boraveradi.

Insonparvarlik – bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga yotdir. O‘zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug‘lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg‘usiga hamdardlik mujassamlashgan.

Xalqimizning ma’naviy qiyofasini belgilaydigan mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, serfarzand oilalarga g‘amxo‘rlik qilish, to‘y va marosimlarda o‘zaro yordamlashish, hashar, oilada bir-birlariga ko‘maklashish, himmatlilik, oila buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi udumlar insonparvarlikning asosini belgilaydi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy vazifasi insonparvarlikni amalga oshirishga qaratilgan. Ularning maqsadi odamlarga mehr-shafqat, muruvvat, qiynalganlarga madad, muhtojlarga yordam, xayr-ehson, mehr-muruvvat ko‘rsatishdir. Ijtimoiy himoya davlatimiz siyosatining beshta tamoyilidan biridir.

Bu yaxshi tashabbus, albatta. Chunki insof, odamgarchilik, mehr-shafqat, xayr-ehson kabi ming yillar davomida kishilikning ezgulik ishlari bo'lib kelgan tushunchalar odamlar orasida keng o'rin olishi lozim.

Bugungi global rivojlanish davrida xalq pedagogikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ya'ni yosh avlodga milliy mafkuramizni singdirish va ularda xalq pedagogikasi yo'nalishlari bo'yicha mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi. Xalq pedagogikasi yosh avlodni tarbiyalash, ularni mehnat faoliyatiga tayyorlashning juda ko'p vositalari, metodlari va usullariga ega. Xalq pedagogikasida tarbiyalanuvchilarni ishontirish, ko'niktirish, ular xulqi, mehnati va xatti-harakatlarini rag'batlantirish hamda baholash metodlari ham qadimdan ma'lum.

Tarbiyalanuvchining xatti-harakatlari xalq ma'naviyatiga muvofiq bo'lishi uchun birinchi galda o'z xulqi to'g'riligi va noto'g'riligiga ishontirish, unda axloqiylik va axloqsizlik, adolat va adolatsizlik haqida aniq tasavvur hosil qilish lozim. Tarbiyalanuvchilarni ishontirish uchun xalq estetik me'yorlarini tushuntirish, o'gitlar berish, eslatish, iltimos, istak bildirish, talab qilish, maslahat va boshqa tadbirlarni qo'llash kerak. Xalq pedagogikasida iltimos va istaklardan talab sifatida foydalanilgan. Ota-onalar aksariyat hollarda o'z bolalariga iltimos tariqasida topshiriqlar berishgan.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasida ko'proq xalqimizning milliy tarbiya metodlari, qadriyatlaridan va boy madaniy merosidan foydalanishni o'zlarining ma'ruzalarida va suhbatlarida qayta-qayta ta'kidlamoqdalar. Shunday ekan, bugungi oilalar, mahallalar va ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar, murabbiylar bu sohaga katta e'tibor berishlari lozim.

Xo'sh, bu sohada asosiy muammolar nimalardan iborat? Mazkur muammolar doirasiga, avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonlarida faoliyat yuritayotgan ota-onalar, mahallalar, o'qituvchi murabbiylarning milliy tarbiya, uning tub o'zagini tashkil qiluvchi urf-odatlar, marosimlar, qadriyatlarning mazmun-mohiyatini o'zlari qay darajada bilishadi degan savol ko'ndalang turadi. Xalq pedagogikasidagi ibrat-namuna metodi ta'lim-tarbiya jarayonining bir butun tizimida asos bo'lishini nega bugun unutayapmiz? Mehr-oqibat, vijdon va burch, or-nomus, ibo-hayo, sadoqat va vafo kabi tuyg'ular bugun yoshlar tarbiyasida qanday o'rin egallayapti?

Bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida oilaning o'rni yuqoridagi ijtimoiy maqomga erishish uchun ko'proq negativ holatlarni tarbiya uchun ibrat qilmayaptimi? Masalan, ota-o'g'ilning mulk talashishi, onaning farzandlarini tashlab ketishi, aka-uka o'z farzandlari oldida bir-birini meros uchun sudga berishi, ota farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanish o'rniga uylanish dardida yurishi, qo'shnilarning bir-birini kaltaklashi, qo'shnisining uyida aza bo'lsa, yon qo'shnisi to'y qilishi – bularning barchasi yoshlarga "hayot mana shunday" degan "ibrat"ga, "namuna"ga asos emasmi? Onalar alla aytmay qo'ydi, bobo-momolar ertak, rivoyat aytishni bilmayaptilar, o'qituvchi darslikdan tashqari ma'lumot o'qimaydi, natijada o'quvchi ibratni kimdan o'rgansin? Muammolar talaygina, yechimini yana o'zimizdan topamiz, buning uchun quyidagi vazifalarga e'tibor qaratishni istardik:

– pedagogika oliy ta'lim muassasalarining talaba tanlovi fanlari, qo'shimcha fanlar bloklariga ajratilgan o'quv soatlariga "Milliy tarbiya asoslari", "Xalq pedagogikasi", "Ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari", "Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlar" kabi o'quv kurslarini tashkil etish;

– umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar orasida "Ertaksevar", "Hozirjavob", "Zakovatli zukko" kabi tanlovlarni xalq og'zaki ijodi janrlari va milliy qadriyatlar asosida

tashkil etish;

– "Mening ertakchi momom", "Mening ertakchi bobom" nomli insholar tanlovini har bir maktabda oʻtkazish;

– kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari oʻquvchi talabalarining mustaqil ishlarida xalq pedagogikasi namunalari asosida taqdimot, referat, animatsiya, multimediaga asoslangan mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish;

– mahallalarda "Ibratli oila" tanlovlarini oʻtkazish;

– yosh oʻqituvchilarni oʻzbek xalqining qadimiy qadriyatlarida ifodalangan fazilatlar bilan qurollantirish va ularni yoshlar tarbiyasiga tayyorlash;

– uzluksiz ta'lim tizimida milliy tarbiyaga oid axloqiy-mafkuraviy va jismoniy yetuklik, imon-e'tiqod borasida ilk ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassislarni tayyorlash va ular orqali milliy gʻoyalarni yoshlarga yetkazish;

– xalq ogʻzaki ijodi tom ma'noda odobnoma boʻlib, xalq pedagogikasining ajralmas qismi ekanligini, bugungi kunda xalqimiz tomonidan yillar davomida shakllangan xalq ogʻzaki ijodi namunalarini keyingi avlodga yetkazish mexanizmlarini rivojlantirish;

– xalq sayillari, bayramlarni keng nishonlash va ularda ifodalangan urf-odat va marosimlarni qadriyat sifatida yoshlar ongiga singdirish va h.k.

Zero, hayot tezkor va shiddatkor. Biz texnika asrining ilgʻor avlodi boʻlishimiz uchun avvalo, millatimizga xos tarbiyali, chidamli, bardoshli, qanoatli, eng asosiysi vijdonli inson boʻlishimiz va farzandlarimizni ham shunday tarbiyalashimiz kerak. Xalqimiz aytganidek, "Nimani eksang, shuni oʻrasan", "Oʻz uyida xamir uzmagan, oʻzga uyda umoch uzipti" kabi maqollarni har birimiz qayta va qayta oʻqishimiz, uqishimiz kerak.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlashni istardikki, "Oʻzbek xalq pedagogikasi" va uning asosiy manbalaridan boʻlmish xalq ogʻzaki ijodida inson ma'naviy-ruhiyatidagi yaxshilik, ezgulik, ahillik, qadr-qimmat va sha'nini ulugʻlovchi sahifalar rang-barangdir. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, oʻz oldiga qoʻygan maqsadlarga erisha oladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


*1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.*

*2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston NMIU, 2017.*

*3. Ziyomuxammadov B. Milliy pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbigʻi va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi oʻrni. – T.: Mumtoz soʻz, 2010, 240-241-betlar.*

*4. Milliy pedagogika mohiyati. Umumta'lim maktablari oʻqituvchilari uchun qoʻllanma. – T., 2013, 61-162-betlar.*

*5. Kenjaboyev A.E. Xalq pedagogikasining yoshlar tarbiyasidagi oʻrni // Barkamol avlodni tarbiyalashning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – T., 2010, 7-11-betlar.*

**Raxmatulla MUSURMONOV,**
“Fizika, matematika, informatika”
ilmiy-uslubiy jurnali bosh muharriri o‘rinbosari, p.f.n.

# AKADEMIK R. X. DJURAYEVNING ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI

**Annotatsiya**

Maqolada ta’lim-tarbiya sohasiga tinimsiz mashaqqatli va sermahsul mehnati bilan munosib hissa qo‘shgan pedagogika fanlari doktori, professor Risboy Djurayevning davlatimiz tomonidan pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha ilk bor O‘zbekiston fanlar akademiyasining akademigi unvoni bilan taqdirlangani bayon etilgan. Akademikning ijod va hayot yo‘liga nazar tashlangan.
**Kalit so‘zlar.** Akademik, pedagogika, chet el tajribasi, kasb-hunar kollejlari, kasb-hunarga yo‘naltirish, baholash tizimi, interfaol resurs, darslik.

В статье изложена информация о получении доктором педагогических наук, профессором Рисбоем Джураевым звания академика по педагогическому направлению, являющегося почетной степенью, вручаемого Академией наук Узбекистана за его вклад в развитие республики в сфере образования.
**Ключевые слова.** Академик, педагогика, зарубежный опыт, профессиональный опыт, профессиональный колледж, профессиональная направленность, система оценки, интерактивный ресурс, учебник.

Article contains information about the receipt by the doctor of pedagogical sciences, professor Risboy Djuraev of the title of academician in pedagogics, which is an honorary degree awarded by the Academy of Sciences of Uzbekistan for his contribution to the development of the republic in the field of education.
**Key words.** Academician, pedagogy, foreign experience, professional experience, professional college, vocational orientation, evaluation system, interactive resource, textbook.

Pedagogika fanlari doktori, professor Risboy Xaydarovich Djurayev davlatimiz tomonidan pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha ilk bor O‘zbekiston fanlar akademiyasining akademigi unvoni bilan taqdirlandi. Albatta, bu ulkan muvaffaqiyatni ustozimizning ta’lim-tarbiya sohasidagi tinimsiz mashaqqatli va sermahsul mehnati samarasi sifatida baholash lozim. Zero, uning pedagogika faniga ham amaliy, ham ilmiy-nazariy jihatdan qo‘shgan hissasi juda kattadir. Uning ta’lim amaliyotiga qo‘shgan hissasi mehnat faoliyatida amalga oshirgan ishlarining salmog‘i bilan o‘lchanadi, albatta.

Risboy Xaydarovich uzluksiz pedagogik mehnat faoliyati davomida nihoyatda mas’uliyatli, ta’lim-tarbiyaning negizlariga bevosita taalluqli lavozimlarda xizmat qilib kelmoqda. Nufuzli va mas’uliyatli ishlarda faoliyat yuritar ekan, hamisha xalq manfaatlarini himoya qilishga, Respublikamizdagi ta’lim-tarbiya taraqqiyoti yo‘lida o‘zini

ayamay mehnat qilishga intildi. Uning olim sifatidagi ilmiy-amaliy qarashlari hayot haqiqati chig'irig'ida toblanib, bevosita amaliyotga tatbiq etila bordi.

Jumladan, 1989-1992 yillarda Risboy Xaydarovich O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining madaniyat, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i lavozimida ishlar ekan, xorijiy davlatlar oliy o'quv yurtlari attestatsiya va akkreditatsiya tizimini o'rganib, chet el tajribalarini respublikamiz ta'lim tizimiga tatbiq etishning ta'sirchan shakl, usul va yo'llarini ishlab chiqdi. Mazkur tajribalarning mamlakatimizdagi 19 ta oliy o'quv muassasasida katta muvaffaqiyat bilan qo'llanilishiga erishdi.

Guliston davlat universiteti rektori sifatida faoliyat yuritganida esa o'quv-tarbiya ishlarining takomillashuviga, uning zamon talablari darajasida bo'lishiga erishdi. 1992–1998-yillar davomida Risboy Xaydarovich Djurayevning bevosita rahbarligida ushbu ilm maskanida respublikamiz ta'lim tizimida birinchilardan bo'lib test-reyting usuli joriy etildi. Uning professor-o'qituvchilar safini kengaytirish, magistratura va bakalavriat ta'limini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim sifatini yaxshilashga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan 1993-yilda Guliston davlat universiteti qoshida aspirantura ochildi.

1998–2000-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi markazida vazirning birinchi o'rinbosari – Markaz direktori sifatida faoliyat ko'rsatgan davrida u respublikamizdagi barcha kasb-hunar kollejlarini jahon andozalari darajasida jihozlanishi, xususan, o'quv xonalarini zamonaviy mebel, kompyuter, multimedia vositalari, o'quv laboratoriya jihozlari, o'quv xonalarini esa stanok, zaruriy asbob-uskunalar va kerakli xomashyo materiallari bilan ta'minlanishiga erishdi. Buning negizida Risboy Xaydarovich o'z faoliyati davomida og'ishmay amal qilgan va uning ilmiy-amaliy faoliyatining yetakchi mezoni hisoblangan ta'limni amaliyot va ishlab chiqarish mehnati bilan aloqada tashkil etish, o'quvchilarda amaliy kompetensiyalarni tarkib toptirish g'oyasi yotar edi.

R.X.Djurayevning ilmiy-amaliy faoliyatida 2000-2017-yillar alohida o'rin tutadi, mazkur yillarda u O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, O'zPFITI direktori va turli innovatsion ilmiy loyihalarning rahbari sifatida ta'lim sohasining rivojlanishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishiga katta hissa qo'shdi. Barcha umumta'lim muassasalariga maktab amaliy psixologi lavozimini kiritdi. Uning tashabbusi va boshchiligida xalq ta'limida mutlaqo yangi maqsad va mohiyatga ega bo'lgan, butun dunyoda noyobligi tan olingan "Kadrlar tayyorlash milliy modeli" talablariga mos ravishda, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash tizimi yaratildi va bu tizim samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bularning barchasida ta'limning ilmiylik tamoyili muhim o'rin tutishini amaliyotchi pedagoglarga yetkazishda uning "O'quv faoliyatini ilmiy tashkil etish" (2008) maxsus kursi dasturi salmoqli ahamiyat kasb etdi.

Risboy Xaydarovichda ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni "professional his qilish" xususiyati mavjud. Ustozning ilmiy loyihalar doirasida olib borayotgan ishlari nihoyatda keng qamrovli bo'lib, integrativ va interaktiv ta'lim texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Shuning uchun ham, ustoz so'nggi yillarda ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'ta muhim o'rin tutgan davlat ahamiyatiga molik hujjat hisoblangan "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat ummumilliy dasturi"ni tayyorlashda bevosita ishtirok etgan.

Aytish joizki, Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini uzluksizlik, uzviylik nuqtayi nazaridan takomillashtirishda R.X.Djurayevning xizmatlari beqiyos. Ko‘plab tajribali mutaxassis, o‘qituvchilar va metodist olimlarning astoydil qilgan mehnatlari evaziga xalq ta’limi muassasalarida 2010-yilga kelib baholash tizimi tubdan yangilanib, u o‘qituvchi uchun tushunarli va foydalanishga qulay holda amaliyotga joriy etildi. Bunda Risboy Xaydarovichning “Проектирование качества образования (мониторинг и управление)” (“Ta’lim sifatini loyihalash (monitoring va boshqaruv)” nomli monografiyasi (2009) dasturulamal bo‘lib xizmat qildi.

Ta’limni modernizatsiyalash, uni ilg‘or ilmiy-pedagogik tajribalar negizida yuksaltirish masalalari chuqur ilmiy-amaliy asosga ega muammo hisoblanadi. Bu avvalombor maktab amaliyotiga interaktiv resurslarni tatbiq etishni taqozo etadi. Shu sababli R.X.Djurayev tomonidan yaratilgan maktab ta’limi amaliyotiga interaktiv resurslarni tatbiq etish va umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun interaktiv elektron o‘quv majmualar ishlab chiqish hamda undan foydalanish metodlariga oid ilmiy-metodik qo‘llanma (2012) ta’lim muassasalarini axborotlashtirish, maktabda axborot-ta’lim muhitini vujudga keltirishdek muhim amaliy muammoning ilmiy-metodik yechimiga qaratildi va pedagogik jamoatchilik hamda amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan yuksak baholandi.

So‘nggi yillarda R.X.Djurayev va u boshchilik qilgan ilmiy jamoa tomonidan pedagogik jamoada madaniy-ijodiy muhitni shakllantirish, bunda loyiha metodidan foydalanishning afzallik jihatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-amaliy qo‘llanmalar chop etilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yetkazildi. Tadqiqot jarayonida maktablarda pedagogik jamoani rivojlantirishning shart-sharoitlari, bunda xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanish, loyiha metodini qo‘llashning shakl, usul va vositalari atroflicha tahlil etildi. Tadqiqotning natijasi sifatida qator ilmiy-metodik tavsiyalar taqdim etildi.

Ustozning keyingi ilmiy ishlari natijalari 3 ta darsligi, 2 ta elektron o‘quv qo‘llanmasi va 2 ta elektron darsligida o‘z ifodasini topdi (O‘zRVM huzuridagi Patent idorasining DCU 02704 guvohnomasi, 2014). R.X.Djurayev rahbarligida “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarish uchun lozim bo‘lgan interfaol ta’lim metodikasi, dasturiy mahsuloti va jihozlari” mavzusidagi amaliy loyiha samarali ilmiy-ijodiy faoliyat olib bordi. Uning ilmiy tafakkuri bilan O‘zbekiston ta’lim sharoitiga ko‘ra, zarur metodik ishlanmalar bilan ta’minlangan elektron interfaol doska Respublika “Fan va ta’lim sohasida eng yaxshi innovatsiya loyihasi” nominatsiyasi bo‘yicha IV innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasida g‘olib deb topildi.

Ustoz pedagogika fani konsepsiyasi, pedagogik ensiklopediya, darslik va dasturlar tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga bevosita rahbarlik qilish bilan birga, respublikamizning nufuzli ilmiy-pedagogik nashrlari – “Uzluksiz ta’lim” jurnali bosh muharriri, “Xalq ta’limi”, “Maktab va hayot”, “Kasb-hunar ta’limi” jurnallari tahririyat a’zosi sifatida ushbu nashrlar sifati va saviyasini oshirishga hissa qo‘shmoqda.

U umumiy pedagogika, pedagogika va ta’lim tarixi ixtisosligiga oid doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoyasi bo‘yicha Maxsus kengash raisi lavozimlarida xizmat qilar ekan, yosh olimlarning butun bir avlodini shakllantirdi. U uzluksiz ta’lim sohasida ilmiy maktab yaratgan va uni rivojlantirgan yuksak salohiyatli pedagog

olim hamdir, hozirga qadar R.X.Djurayev rahbarligida 12 nafar pedagogika fanlari nomzodi va 7 nafar pedagogika fanlari doktori yetishib chiqqan. Ta’lim tizimining turli bosqichlarida samarali faoliyat olib borayotgan yetuk mutaxassis pedagoglar orasida uning shogirdlari prinsipial rahbar va yetuk olim sifatida alohida o‘rin tutib kelmoqdalar. Ya’ni ustoz o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan pedagogika fani yetakchilaridan hisoblanadi.

R.X.Djuraevning bevosita rahbarligida 55 dan ortiq ilmiy monografiya, darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalar nashr etilgan. 450 dan ortiq ilmiy-metodik maqolalari respublikamizning nufuzli jurnallari va ilmiy to‘plamlarida, 20 dan ortiq pedagogikaning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan maqolalari xorijiy davlatlar jurnallarida chop etilgan.

Respublikamiz ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va keng joriy etilishida R.X.Djurayevning olim sifatida alohida o‘rni mavjud. Zero, uning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: birinchi bosqich haqida o‘ylar” (2001), “Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash” (2004), “Yangi pedagogik texnologiyalar” (2005), “Ta’limda interfaol texnologiyalar” (2010), “Современные технологии совершенствования обучения” (2010) kabi qator ilmiy-uslubiy qo‘llanmalari ushbu jarayonning samarali tatbiqiga qaratilgan edi.

Aksariyat mutaxassislar maktab ta’limining mazmuni fan-texnika taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy talablaridan bir qadar orqada qolayotganini aytgan bir vaqtda, olim ta’lim mazmunidagi mana shu bo‘shliqni to‘ldirish uchun ta’limda interfaol texnologiyalarning ahamiyati va mazmunini yoritishga harakat qildi. Ta’limga texnologik yondashuv o‘quv jarayoni ustidan aniq instrumental boshqaruvni va qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga kafolatlangan darajada erishishni nazarda tutishini hisobga olgan holda, pedagogik texnologiya tuzilmasi, pedagogik texnologiyaning boshqa pedagogik tushunchalar bilan o‘zaro munosabati, uning asosiy xususiyatlari va turlarini ko‘rsatib berdi. Boshqacha qilib aytganda, amaliyotchi o‘qituvchi va pedagoglarga ilmiy asoslangan va tushunarli tilda bayon etilgan metodikani taqdim etdi.

Ta’limda o‘ta muhim o‘rin tutgan muammolardan biri bo‘lgan yoshlarni kasbga yo‘naltirish va kasbiy tayyorlash masalalari ham R.X.Djurayevning hamisha e’tiborida turgan masalalardan hisoblanadi. Chunki ularning yechimi mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, ishsizlikning bartaraf etilishi, kadrlar salohiyatini oshirish kabi muhim muammolar yechimiga qaratiladi. Shu sababli uning “Kasbga yo‘naltirishning rivoji va uning mehnat samaradorligining oshirishdagi ta’siri”, “O‘rta hunar-texnika bilim yurtlarida maxsus va umumtexnik fanlardan zamonaviy dars”, “O‘rta hunar-texnika bilim yurtlarida avtomatlashgan ishlab chiqarish kasblarini o‘rganayotgan o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish”, “Hunar-texnika bilim yurtlarida o‘quv jarayonini intensifikatsiyalashning nazariya va tajribasi” kabi risola, monografiya, qo‘llanmalari ko‘pchilik mutaxassislarning e’tiboriga tushdi.

Ustoz bugungi kunda ham ulkan muvaffaqiyat bilan ma’rifiy faoliyatini davom ettirmoqda: ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar davlat attestatsiyasida ishtirok etmoqda, ilmiy pedagogik jamoatchilik tomonidan shaxsiy yutuqlari va ilmiy natijalari, kasbiy ta’lim va xalq ta’limi sohasida ilmiy-texnik muammolarni hal etishdagi faol ishtiroki, jamoa tarkibida ishlab chiqqan ilmiy-uslubiy ishlanmalari, ilmiy-pedagogik jamoaga

rahbarlik qilish orqali erishgan ulkan natijalari tufayli pedagogika fanini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan yetuk olim sifatida e’tirof etilmoqda.

So‘nggi yillar davomida u qator ilmiy loyihalarni boshqarib kelmoqda, xususan, 3 ta fundamental va 3 ta amaliy loyihaga rahbarlik qildi, shuningdek, UNICEFning 2 ta xalqaro ilmiy loyihasiga ilmiy rahbarlikni amalga oshirdi. Uning hammualliflligi va rahbarligida fizika, ingliz tili, geometriya va boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha elektron darslik va multimedia o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. U ta’lim standartlarini ishlab chiqish va modernizatsiyalashda, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim bo‘yicha darsliklar yangi avlodini yaratishda bevosita ishtirok etib kelmoqda. R.X.Djurayev tomonidan kasbiy ta’lim o‘quv muassasalarida kasbiy tayyorgarlik tizimini intensifikatsiyalashning tashkiliy-pedagogik asoslari tadqiq etilmoqda.

Ilmiy-pedagogik ishlarining amaliyotga tatbiq etilganlik darajasiga ko‘ra ham R.X.Djurayev pedagogika fanining peshqadam olimlaridan hisoblanadi. Olim tomonidan 600 dan ortiq nashr ishlari tayyorlangan: jumladan, 20 ta monografiya ishlab chiqilgan, dasturiy mahsulotlar bo‘yicha 14 ta patentlikka ega, uning rahbarligida maktablar uchun qator jihozlar – Xalqaro innovatsion yarmarkada ishtirok etib, “Yilning eng yaxshi innovatsion g‘oyasi” nominatsiyasi faxriy yorlig‘iga sazovor bo‘lgan “Sense-Box” elektron interaktiv doskasi, XXI asr chaqiriqlariga mos yangi avlodni tarbiyalashning zarur shart-sharoiti sifatida o‘quvchilarda ijodiy-kognitiv layoqatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta’limning Konseptual modeli, bolalar bilan do‘stona munosabatga asoslangan maktablar konsepsiyasi (UNICEF loyihasi) ishlab chiqilgan. Olingan ilmiy natijalari O‘zbekiston ta’lim muassasalariga joriy etilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Djurayev R.X. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. – T.: O‘qituvchi, 2004 y.*

*2. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Qo‘llanma. – T.: Voris nashriyoti, 2006 y.*

*3. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: Sano-standart MCHJ, 2010.*

*4. Djurayev R.X. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun interaktiv elektron o‘quv komplekslar ishlab chiqish va undan foydalanish metodlari. – T., 2014.*

*5. Purma’no hayot zarvaraqlari: Risola / Risboy Xaydarovich Djurayev. – T.: Noshirlik yog‘dusi, 2016.*

*6. Р.Х. Джураев. Внедрение интерактивных ресурсов в практику школьного образования. Научно-методическое пособие. – Т.: Сано-стандарт МЧЖ, 2012.*

**Murodilla BARATOV,**
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi
Oliy o'quv kursi katta o'qituvchisi, yuridik fanlari doktori, professor

# INFORMATSION TAHDIDLARNING OLDINI OLISHDA HUQUQIY-ME'YORIY TA'MINOTNING AHAMIYATI

**Annotatsiya**

Maqola fuqarolarning axborot olish huquqiga oid milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati va ularning kelajak avlod tarbiyasidagi o'rni xususida. Muallif informatsion va boshqa turdagi tahdidlarga qarshi farzandlarimizda mafkuraviy immunitet hosil qilish lozimligini ta'kidlagan.

**Kalit so'zlar.** "Ommaviy madaniyat", axborot olish, ta'lim-tarbiya, informatsion tahdid, farzand tarbiyasi, mafkuraviy immunitet, internet saytlari.

В статье раскрыто значение национальных и международных нормативно-правовых документов о правах граждан на получение информации и их роли в воспитании подрастающего поколения. Автор отмечает необходимость формирования идеологического иммунитета у нашей молодёжи против информационных и других видов угроз.

**Ключевые слова.** "Массовая культура" информация, образование-воспитание, информационная угроза, воспитание ребенка, идеологический иммунитет, сайты интернета.

Article reveals the importance of national and international normative legal documents on the rights of citizens to receive information and their role in the upbringing of the young generation. The author notes the need to form ideological immunity in our youth against information and other types of threats.

**Key words.** "Mass culture" information, education, upbringing, information threat, education of the child, ideological immunity, internet sites.

Mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayni paytda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari barchamizga yangi vazifalarni yuklamoqda. "Axborot asri" deb nom olgan XXI asrda mamlakat va hududlar o'rtasida axborot almashinuvi va kengayishi tezlashdi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga qo'ygan ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, hozirgi globallashuv sharoitida fuqarolarning axborot olishga bo'lgan huquqlarini kafolatlash borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Fuqarolarning axborot olish huquqiga oid bo'lgan milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Har kim fikrlash, soʻz va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim oʻzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir”, deb belgilangan.

Fuqarolarning axborot olishga boʻlgan huquqlarini kafolatlashga oid mazkur konstitutsiyaviy tamoyil bilan birga, asosiy qonunimizning bir qator moddalari ushbu sohadagi munosabatlarni bevosita va bilvosita tartibga solishga qaratilgan. Unda huquq subyektlarining axborot munosabatlaridagi asosiy huquq va majburiyatlari mustahkamlangan boʻlib, ular axborot ochiqligi prezumsiyasi va shaxs erkinligi tamoyillariga asoslanadi. ( Oʻzbekiston Respublika Konstitutsiyasi, 5-11-boblar)

Albatta, zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalarning imkoniyatlari cheksiz, u shiddat bilan rivojlanib, axborot uzatish tizimi ham kundan-kunga takomillashmoqda. Axborot makoniga nazar tashlaydigan boʻlsak, jamoatchilikni tashvishga solib kelayotgan muammolardan biri, shubhasiz, farzandlarimizning odob-axloqiga salbiy ta’sir koʻrsatuvchi yot gʻoyalar, “ommaviy madaniyat” xurujlari, mafkuraviy va ma’naviy tahdidlar va ularning shiddat bilan rivojlanishidir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zoʻravonlik, individualizm, egotsentrizm gʻoyalarini tarqatish, kerak boʻlsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qoʻymaydi” deya ta’kidlab oʻtganlar. Shunday ekan, milliy mentalitetimizga, tarbiyamizga zid boʻlgan, jamiyatimizni oʻz xavf-xatarlari bilan tashvishga solayotgan yot gʻoyalar, ommaviy madaniyat xurujlari, informatsion tahdidlarga qarshi immunitet har birimizda rivojlangan boʻlishi lozim.

Bugungi kunga kelib qonunchiligimizda yoshlarni ma’naviy yetuk, har tomonlama barkamol boʻlib tarbiyalanishi va turli yot gʻoyalar va nosogʻlom axborot xurujlaridan muhofaza qilishga qaratilgan yetarli huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Bunga misol tariqasida Oʻzbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi $188^{2}$-moddasida “Voyaga yetmagan shaxsning koʻngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda boʻlishiga yoʻl qoʻyish eng kam ish haqining oʻn baravaridan oʻn besh baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab boʻladi”, deb qayd etilgan.

Ma’lumki, Oʻzbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonunda belgilangan qoidalarga muvofiq, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir koʻrsatuvchi, zoʻravonlik yoki shafqatsizlikni targʻib etuvchi barcha xatti-harakatlar taqiqlangan. Bu me’yorni yanada takomillashtirish va aniqlashtirish maqsadida, Ma’muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks yangi, ya’ni $189^{1}$-modda bilan toʻldirildi. Unga koʻra, zoʻravonlikni yoki shafqatsizlikni targʻib qiluvchi mahsulotni, shuningdek, uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish vositalarini musodara qilib, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻlishi belgilab qoʻyilgan. Shuningdek, “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunga binoan, behayolik, shafqatsizlik va zoʻravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir koʻrsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab boʻluvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlar namoyish etish taqiqlanadi (16-modda).

“Axborot-kutubxona faoliyati toʻgʻrisida”gi qonunga asosan, oʻquvchi yoshlarning, shuningdek, aholining axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga, ularni Oʻzbe-

kiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosidan bahramand etishga qaratilgan universal axborot-kutubxona muassasalari tashkil etilib, unda bunday faoliyat olib borishning huquqiy mexanizmi ko‘rsatilgan.

Ma’naviy axloqimizga zid jinoyatlar sodir etgan shaxslar uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda tegishli qonunchilikni takomillashtirish hozirgi davrda dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda.

Jinoyat kodeksining 130-moddasining yangi tahririga asosan, pornografik mahsulotni tayyorlash, tarqatish va namoyish etish bilan bog‘liq harakatlarga nisbatan jazo choralari kuchaytirilib, yangi kiritilgan $130^1$-moddaga asosan olti oydan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazo belgilanishi bu boradagi jinoyatchilikning kamayishiga hamda barkamol avlod kelajagining huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda internet hamda ommaviy axborot vositalarining ta’siri kuchliligini aytib o‘tish lozim. Internet insoniyatning ulkan yutug‘i bo‘lib, bugungi hayotimizda katta imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, bu mo‘jiza kuchli mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish vositasiga aylanib, jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani ham hech kimga sir emas. Internet saytlarida yoshlarga kuchli ta’sir etuvchi axborotlarni quyidagicha tasniflash mumkin, bular:

– yot, buzg‘unchi g‘oyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik g‘oyalari, millatchilik, irqchilik);

– G‘arb hayot tarziga xos, o‘zbek mentalitetiga zid odatlar;

– pornografik axborotlar;

– tekshirilmagan, o‘z isbotiga ega bo‘lmagan turli hujjatlar, axborotlar.

Ma’lumki, yoshlarning aksariyati yangiliklar olish maqsadida internetdan foydalanishadi, bo‘sh vaqtlarini ham internet klublarida o‘tkazishadi. Bu quvonarli, ammo kishini tashvishga soladigan tomoni ham borki, yoshlarimiz bizning ezgu g‘oyalarimizga qarshi bo‘lgan bo‘hton gaplar, axloqsizlik, behayolik illatlarini internet orqali ko‘rib, bilib-bilmay ularning ta’siriga tushib qolishyapti. Internet o‘yinlariga mo‘ljallangan shoxobchalarda ko‘p hollarda jangari, odam o‘ldirishni targ‘ib qiladigan o‘yinlarni o‘ynayotgan maktab o‘quvchilarini uchratamiz. Bunday holatlar hammamizni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Ta’kidlash joizki, axborot xuruji g‘arazli nosiyosiy manfaatlarni amalga oshirish yo‘lida turli kuchlar tomonidan keng qo‘llanmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda tezkor usullar yordamida u yoki bu voqea, hodisa haqidagi xabar bir zumda yer yuzining barcha nuqtalariga yetkazib beriladi. Bunday holat siyosiy kuchlarning dunyoning yirik tele va radiokanallariga, internet saytlariga turli siyosiy kuchlarning bosim o‘tkazishga intilayotganini, ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinayotganini ko‘rsatmoqda.

Global tarmoqdan foydalanuvchilar auditoriyasining ko‘pchiligi yoshlar ekanligi, ularning ongini va dunyoqarashini yot mazmundagi g‘oyalar bilan zaharlashga qaratilgan ma’lumotlar internet kontinentining katta qismini tashkil etadi. Shu bois axborot xurujining asosiy nishoni, obyekti yoshlar hisoblanadi. Ularning ongini mana shunday nopok yo‘l bilan “zaharlash” ancha yengil, buni ana shu qing‘ir yo‘l egalari juda yaxshi bilishadi.

Zararli axborotlarni tarqatuvchilarning aksariyati hayotda o‘z o‘rnini topmagan, ma’nan qashshoq, o‘z manfaati yo‘lida hech kim va hech narsani tan olmaydilar. Shuni aytib o‘tish kerakki, axborot qurolini ishlab chiqishning qimmat emasligi va bu ishni turli soha mutaxassislari bajarishi mumkinligi; hujumning oldini olish qiyinligi; zararni hisoblab chiqishning murakkabligini vahshiy yo‘l egalari juda yaxshi bilishadi.

Shunday ekan, zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, internetdan foydalanganda uning salbiy ta'siri mavjudligini har doim yodda tutmoq darkor. Zero, hushyorlik insonni muvaffaqiyatga eltuvchi eng muhim omillardan biridir.

Farzand tarbiyasi barchaning kechiktirib boʻlmas birlamchi vazifasidir. Agar farzandlarimiz bilan oʻzimiz shugʻullanmasak, ularning qiziqishiga, yurish-turishida boʻlayotgan kamchiliklarga vaqt ajratmasak, albatta, ular bilan har doim "shugʻullanadigan shaxs" topiladi. Shu bois farzandlarimizda, eng avvalo, yomon oqimlar, yot mafkuralar, keraksiz axborotlar hamda gʻoyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim.

Yoshlarda informatsion va boshqa turdagi tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish yoʻlida, avvalo, quyidagilarga e'tibor berish kerak:

– bolalarimizga vaqt ajrata olaylik, dunyoni bolalar koʻzi bilan ham koʻraylik, ularning qiziqishlari bilan ham hisoblashaylik;

– manfaatdor idora va tashkilotlar tomonidan voyaga yetmaganlarni turli informatsion xurujlardan himoyalash maqsadida internet tarmogʻidan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqilishi;

– "oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi doirasida ushbu salbiy holatlarga barham berish maqsadida jamoatchilik nazoratini tizimli, jonli tashkil etish;

– ta'lim maskanlarida, mahallalarda yoshi ulugʻ, koʻpni koʻrgan, katta hayotiy tajribaga ega boʻlgan otalarimiz, onalarimiz ishtirokida jonli muloqotlarni uyushtirish;

– ta'lim maskanlarida, mahallalarda turli darajadagi deputatlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari vakillari ishtirokida jonli muloqotlarni tashkil etish;

– ta'lim maskanlarida, mahallalarda olimlar, ijod ahli bilan jonli muloqotlar tashkil etish zarur.

Bugungi kunda respublikamizda axborot tahdidlari va hurujlariga qarshi mustahkam qonunchilik bazasi yaratilayotganini e'tirof etish lozim.

Xususan informatsion tahdidlar sohasini tartibga solishda yangi qonun – "Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi Qonun kuchga kiradi. Ushbu Qonunning maqsadi bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

– bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va texnikaviy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, ushbu sohadagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish;

– bolalar ongiga gʻayriqonuniy axborot-ruhiy ta'sir koʻrsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni gʻayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish;

– fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, jismoniy va yuridik shaxslarning bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi faoliyatini qoʻllab-quvvatlash;

– bolalarning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash mezonlari, mexanizmlari va uslublarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlashning dasturiy-apparat va texnika vositalarini joriy etish va h.k.

Ushbu qonun faoliyatini amalga oshirishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari, mahalliy davlat hokimliklari organlari, ta'limni

davlat tomonidan boshqarish organlari, davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari mas’ul sanaladi.

Ushbu qonun informatsion tahdidlarga qarshi kurashish sohasida juda o‘rinli bo‘ldi. Chunki bugungi axborot asrida yoshlar o‘zlariga yopirilib kelayotgan axborotlardan axborotni farqlay va idrok eta oladigan, o‘zini o‘zi boshqaradigan, zararli axborotlardan himoyalana olishlari, axborot-kommunikatsiya vositalaridan to‘g‘ri foydalana bilishlari kerak bo‘ladi. Aynan mana shu borada ular uchun ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarning ma’naviy-ruhiy ko‘magi zarur bo‘ladi.

Albatta, mazkur tavsiyalar hamda yuqorida qayd etilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan yoshlarimizni mukammal tanishtirib borishimiz shart. Ularning qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda o‘z huquq va burchlarini anglashlariga va amal qilishlariga imkoniyat yaratib berishimiz zarur. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak” degan fikrlari har birimizni katta mas’uliyatga hamda ogohlikka boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, har birimiz bola timsolida, avvalo, yuksak ma’naviyatli shaxsni ko‘ra olishimiz lozim. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega, ongli yashaydigan komil insonlar qilib tarbiyalash bugungi kun talabidir. Darhaqiqat, go‘zal xulq, to‘g‘ri aqida asosida tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g‘arazli tashviqotlarga berilmaydi. Zero, buyuk allomalarimiz qayd etganlaridek, yoshlarni ma’naviyat va ma’rifatga oshufta qilib tarbiyalash natijasida jamiyat taraqqiy etib, Vatan ravnaq topadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

*1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2016-yil 8-dekabr soni.*

*2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.*

*3. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 37-son, 978-modda*

*4. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 24-son, 487-modda.*

**Fayzulla TOLIPOV,**
O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

# TARIX FANIDA ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

**Annotatsiya**

Maqolada tarix fanida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish metodlari, prinsiplari va mavjud muammolar talqini, tarixiy manbalarning o'rni, xususan, arxeologiya, etnografiya, toponimika, numizmatika kabi fanlar o'rtasidagi o'zaro ilmiy uzviylik masalalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Tarix, ilmiy tadqiqot, manbalar, prinsip, metod, ilmiylik, nazariya va metodologiya, uzviylik, ilmiy faoliyat, ilmiy dunyoqarash.

В статье изложены методы и принципы организации научно-исследовательских работ по истории, раскрыта роль исторических источников и взаимосвязи археологии, этнографии, топонимики и нумизматики.

**Ключевые слова.** История, научное исследование, источники, принцип, метод, научность, теория и методология, преемственность, научная деятельность, научное мировоззрение.

Article describes the methods and principles of organization of scientific research work on history, also revealed the role of historical sources and the interrelationships of archeology, ethnography, toponymy and numismatics.

**Key words.** History, scientific research, sources, principle, method, scientific character, theory and methodology, continuity, auxiliary sciences, scientific activity, scientific worldview.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarini tom ma'noda isloh qilish va demokratlashtirish, ta'lim tizimini tubdan yangilash, jamiyatimizning strategik maqsadlarini amalga oshrish masalasiga muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Zero, ilm – inson tafakkuriga bilim, ruhiy quvvat, tetiklik, g'urur, tizimlilik baxsh etadi. Bu esa pirovard natijada inson ongida ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratib, ularda dastlabki ilmiy tushunchalar hamda ilmiy faoliyatni shakllanishiga turtki beradi.

Bu xususda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning o'rnini yanada mustahkamlash, akademiklar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim chora tadbirlar belgilandi.

Zero, ilm-fan bilan shug'illanish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimiz mehnati tahsinga sazovor. Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivoj-

lanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratiladi.

Shu ma'noda ta'lim tizimida yosh o'qituvchilar va iqtidorli talabalarni tarix fani, jumladan, Vatan tarixi fani yo'nalishida mustaqil tadqiqot olib borishlarini tashkil etish nafaqat ta'lim sohasi uchun, balki hozirgi jadal ijtimoiy o'zgarishlar va yangilanishlar davrida jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bunda tadqiqotchilar va talabalar turli ilmiy tadqiqot metodlari – *kuzatish, o'rganish, eksperiment o'tkazish, manbalar bilan ishlash, muammolarni mustaqil aniqlash, muammoli vaziyatlarni yechish* kabi jihatlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarix fanini o'qitishda ilmiy faoliyatning *ko'rish, eshitish*, *bilish, anglash, tanlash va ilmga ijodiy yondashish* usullari muhim ahamiyatga ega. Barcha xususiyatlarga ega bo'la turib, ilmga ijodiy yondashilmasa, ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaydi. Xususan, mamlakatimiz va xalqimiz davlatchiligi tarixi, tarixiy jarayonlar, ijtimoiy hayoti, taraqqiyoti, dunyoda sodir bo'layotgan barcha jadal o'zgarishlar, shu bilan birga xalqning milliy-ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlari, ko'z o'ngimizda yuz bergan va yuz berayotgan voqea-hodisalar tarix fani va uning yordamchi sohalari uchun asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bunda fanni o'rganishda quyidagi ikki yo'nalishni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, tarix fanini o'qitishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy hamda g'oyaviy asoslarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– tarixga xalqning milliy va umuminsoniy qadriyati hamda muqaddas ma'naviy merosi sifatida qarash;

– tarixiy moddiy va ma'naviy merosga chuqur hurmatda bo'lish va unga umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish;

– tarix jamiyat va tabiat hamda insoniyat taraqqiyotining ma'lum dialektik hamda sinergetik qonuniyatlari asosida rivojlanishini to'g'ri anglash;

– tarix insonlar ongida tarixiy xotira tuyg'usini shakllantiruvchi moddiy va ma'naviy merosni vujudga keltiruvchi muhim manba, xalqni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan jipslashtiruvchi tamoyil ekanligini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, tarix tadqiqotlarini amalga oshirishda, tarix fanini o'rganishda ma'lum ilmiy, nazariy-metodologik tamoyillarga tayanish hamda etnografiya, arxeologiya, antropologiya fanlarida qabul qilingan moddiy va yozma ma'lumotlarga tayangan holda ish yuritish metodi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarix fanida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda manbalarning o'rni katta. Umuman, manbalarsiz o'tmishni o'rganib bo'lmaydi. Negaki, ilmiy tadqiqotlar ham asosan tarixiy manbalarni o'rganish va tahlil etish orqali amalga oshiriladi. Tarixiy manbalarni ikki turga, ya'ni moddiy manbalar va yozma manbalarga bo'lish mumkin. Bunda yozma tarixiy manbalarning o'rni yanada muhim. Tarixni ilmiy tadqiq etishda moddiy manbalar, jumladan, arxeologik, etnografik, numizmatik va toponimik manbalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular qatoriga qadimgi aholi manzilgohlari, shaharlar xarobalari, mozor va qo'rg'onlarning qoldiqlari, aholi turmushi va xo'jaligida ishlatilgan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ro'zg'or ashyolarini kiritish mumkin. Bunday manbalar bugungi kunda respublikamizning Surxondaryo viloyatidagi "Teshiktosh", "Machay", "Obishir", "Qo'shilish", "Sopollitepa", Buxoro viloyatidagi "Zamonbobo", Qashqadaryo viloyatidagi "Amir Temur", Toshkent vohasidagi "Obirahmat", Xorazm viloyatidagi "Ko'zaliqir", Farg'ona viloyatidagi "Sel Ung'ur", "Soymalitosh" manzilgohlaridan ko'plab

topilgan. Dars va darsdan so‘ng tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida talabalar va yosh tadqiqotchilar bilan ushbu manzilgohlarga ekspeditsiyalar, sayohatlar uyushtirilib, ular sinchiklab o‘rganilsa, tadqiqotchida mazkur manbalar haqida batafsil ma’lumotlar shakllanishi bilan birga, ularda ilmiy tadqiqotlar olib borishga qiziqish tobora kuchayadi. Moddiy va yozma manbalar asosida tarixiy ma’lumotlarni solishtirib, haqqoniy tarixni talqin etish va o‘rganish bugungi kunda muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Manbalar asosida shakllantirilgan ilmiy tadqiqotlar quyidagi natijalar beradi:

– manbalar o‘qituvchi, izlanuvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga va ijod qilishga undaydi, tarixiy ashyolardan foydalanish va ularni asrab-avaylashga chaqiradi;

– manbalar yaqin va uzoq o‘tmish haqida tushunchalar berish bilan birga talabalarning dunyoqarashi, tafakkurini, mustaqil ijod qobiliyatlarini namoyon etishlarini va shu asosda yakuniy xulosalar chiqarishga undaydi.

– tarixiy manbalar talabalarni vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalaydi, ularda shaxsiy bilim hamda ko‘nikmalarni, tashabbus va erkin ijod qilish sifatlarini shakllantiradi.

Dars jarayonida o‘qituvchi talabalarga Vatanimiz tarixini o‘rganishda yozma manbalarning o‘rni katta ekanligini tushuntirgan holda xalqimizning ulkan moddiy va ma’naviy merosining bir qismi kutubxonalar, arxivlarda saqlanib kelayotganligiga urg‘u berar ekan, talabalarga manbalarning turlari, shakllari xususida ma’lumotlar beradi. Masalan, yozma manbalar deganda barcha yozuvlar, ularning namunalari, asarlar tushunilmasligi kerak. Yozma manbalar deganda, asosan tarixiy qimmatga, noyob xususiyatga, ajdodlardan avlodlarga meros tarzda o‘tib kelgan barcha yozma meros namunalari, hujjatlar, kitoblar (asarlar) va boshqalar tushuniladi. Eng asosiysi, ular tarixiy mazmunga, qimmatga ega bo‘lishi, bugungi kun nuqtayi nazaridan noyob hisoblanishi lozim.

Xalqimiz tarixini o‘rganishda yozma manbalar, qo‘lyozmalar, ayniqsa, sharq manbashunosligi muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda darsda yozma ma’lumotlar bilan ishlashning nazariy-metodologik usullari xususida tushunchalar berish mumkin. Talabalarga yozma manbalarning, ya’ni qo‘lyozma asarlar mazmuni, tahlili, tarixnavisligini tushuntirish katta ahamiyatga ega. Masalan, yozma manbani tahlil etishda quyidagi tartibda ish olib borish mumkin.

a) asar muallifining nomi yoki u haqda qisqacha ma’lumot yig‘ish;

b) asarning yaratilgan davri (vaqti)ni aniqlash;

d) manbaning asosiy mazmuni haqida ma’lumot to‘plash;

e) qo‘lyozma yoki manbaning saqlanayotgan joyi yoki manzilini aniqlash;

f) qo‘lyozmaning paleografik xususiyatlari (qaysi tilda yozilgan, o‘lchami, qo‘lyozmaning tarixiy qimmati va boshqa xususiyatlari) haqida ma’lumotlar yig‘ish.

Masalan, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarini olaylik. Ushbu asar XV asr birinchi yarmida yozilgan bo‘lib, u muhim tarixiy-etnografik manba sifatida, o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat o‘zbek xalqi tarixi, balki Markaziy Osiyo xalqlari, etnik tarixi, turmush tarzi xususida ma’lumot beradi. Ushbu asarda XIII-XIV asrlarda Movarounnahrda sodir bo‘lgan muhim tarixiy jarayonlar bayon etilgan. Asarda mo‘g‘ullar hukmronligi davrida, xususan, Chig‘atoy va uning avlodlariga meros sifatida Movarounnahrda berilgan hududlar, u yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mo‘g‘ullar imperyasining to‘rt ulusga bo‘linish sabablari, Chig‘atoy ulusi va uning tarkibidagi hududlar va qo‘shni mintaqalar xalqlari o‘rtasidagi etnomadaniy jarayonlar bayon etilgan. Bunday oddiy va sodda uslub talaba va yosh tadqiqotchini ilmiy izlanishga, oddiydan murakkabga tomon yo‘nalishga undaydi.

Umuman, talabalar ilmiy manbalarni o‘rganish jarayonida o‘tmishda xalqimizning, ya’ni ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mus-

taqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu fuzalolar faoliyatlarini o‘rganadilar. Manbalar orqali talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo‘lining murakkab jarayonlarda kechganligini, unga ulkan kurashlar evaziga erishilganiga, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma’naviy qadriyatlarining tiklanishi, fuqarolar ongida tarixiy xotira tuyg‘usini shakllantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar xususida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Tarixiy manbalarni haqqoniy o‘rganish va tahlil qilishda tadqiqotchi bir qancha usullarga tayanadi. Bunday usullardan foydalangan holda ilmiy tadqiqot olib borish tadqiqotchidan katta mahorat talab etadi. Bular quyidagilardir:

● ilmiylik, tarixiylik, xolislik (obyektivlik) usuli;
● tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash usuli;
● mantiqiylik va uzviylik usuli;
● vorislik va izchillik usuli;
● tarixiy xronologik tamoyiliga amal qilish, ya’ni tarixiy ketma-ketlik usuli;

Ma’lumki, tadqiqotchi uchun dastlabki ilmiy tadqiqot pillapoyalari oliy ta’limdan boshlanadi. Shu o‘rinda oliy ta’lim tizimida tarix fani doirasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda, ilmga kirib kelayotgan iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqotlari faoliyatini tashkil etish yuzasidan quyida ba’zi taklif va mulohazalarni bayon etish maqsadga muvofiq. Ya’ni professor-o‘qituvchilar tomonidan ilmiy tadqiqotchilar hamda talabalarga O‘zbekiston tarixi tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning va takomillashtirishning ayrim jihatlari quyidagilardan iborat bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

● *Birinchidan,* ushbu fandan dars beruvchi o‘qituvchilar avvalombor mutaxassis bo‘lmog‘i, o‘z fanini yaxshi biladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana oladigan, ilmiy tadqiqotning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor pedagog bo‘lishi;

● *Ikkinchidan,* ta’lim berishda o‘qituvchi har qanday vaziyatda, hattoki ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda ham oddiy usullardan foydalanmog‘i va mukammal bilim berish yo‘llarini izlab topmog‘i, ularni mohirona qo‘llamog‘i;

● *Uchinchidan,* darsda va darsdan tashqari vaqtlarda Vatan tarixi turkumiga kiruvchi soha va yo‘nalishlarni o‘qitishda erishilgan tarixiy tajribalarni ilmiy o‘rganish metodlarini ishlab chiqish va uni ommalashtirishga erishishi;

● *To‘rtinchidan,* professor-o‘qituvchilar iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyat bilan shug‘illanishlari uchun “ustoz-shogird” tizimining mukammal mexanizmini yarata olishi va unga amal qilmog‘i;

● *Beshinchidan,* iqtidorli talabalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga soha olimlarini taklif etish, bahs-munozarali mavzular doirasida suhbatlar, savol-javoblar o‘tkazish;

● *Oltinchidan,* tarix fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida fanlararo bog‘liqlik va uzviylikni ta’minlashga e’tibor qaratmog‘i muhimdir.

Shu o‘rinda tarix fanini uning yordamchi yo‘nalishlari bo‘lgan arxeologiya, etnografiya, numizmatika, toponomiya sohalari bilan uzviyligiga e’tibor qaratish asnosida tarixiy bilimlarni talabalar ongiga singdirishda uzviylik prinsipiga ahamiyat berish muhim. Ushbu fanlar va maxsus kurslarning mazmuniga, shuningdek, O‘zbekistonning eng yangi tarixi davrida mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga oid islohotlar, dunyoda sodir bo‘layotgan barcha jadal o‘zgarishlarni singdirishga erishish va uyg‘unlashtirish kerak. Maxsus fakultetlarda mazkur yo‘nalishlarga ajratilgan soatlar hajmi turlicha bo‘lsa-da, talabalarning ilmiy faoliyatlarini tashkil etish va o‘zlashtirishlari hamda hayotga tatbiq eta olishlariga erishish ijobiy samara beradi.

Tarix fanida va uning yordamchi sohalarida fanlararo aloqalar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ta’minlansa, masalaning mazmuni yanada boyib boradi, mavzu va masalalarning bir-birini takrorlashning oldi olinadi, ilmiylik oshadi, zerikishlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Tarix fanida ilmiy faoliyat olib borayotgan tadqiqotchi, albatta, ommaviy axborot vositalarida yoritib borilayotgan materiallar bilan muntazam tanishib borishi, ularni atroflicha o‘rganishi, ularda ilgari surilgan ilmiy-nazariy tamoyillarni har bir talaba ongiga yetkazishi maqsadga muvofiq.

Shu boisdan bugungi kunda tarix fanida olib borilayotgan tadqiqotlarni yanada takomillashtirish uchun fanning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning dolzarb muammolarini hal etish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosida zamonaviy asosga ega o‘quv va ilmiy adabiyotlarining yangi avlodini yaratish:

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarini yangicha mazmundagi tarqatma, o‘quv-uslubiy hamda didiaktik materiallar bilan ta’minlash (jumladan, tarixiy xaritalar, atlaslar, maketlar va h.k);

Uchinchidan, o‘zbek xalqi va uning davlatchilik tarixiga oid dolzarb mavzular doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish;

To‘rtinchidan, sharq qo‘lyozmalari, ayniqsa, tarixiy-ma’naviy qimmatga ega asarlar, tarixiy manbalar tarjimashunosligi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlarni yanada takomillashtirish;

Beshinchidan, O‘zbekistonning eng yangi tarixiga oid ilmiy izlanishlar ko‘lamini yanada kengaytirish, yosh izlanuvchilar va tadqiqotchilarni ushbu yo‘nalishdagi muammolarni yechishga kengroq jalb etish kabilar.

Xulosa sifatida har bir sohaga tanqidiy tahlil va yangicha taklif hamda tavsiyalar asosida yondashib, tarix fanida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni tubdan isloh qilish zarur. Jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiluvchi, ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti shu jamiyatda yashab, ijod qiluvchi insonlarning aqliy, ilmiy barkamolligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi o‘qishi, ilmiy izlanishi, mustaqil mutolaa qilishi, o‘z ustida tinmay ishlashi kerak. Bu jarayon Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, faqatgina ilm orqali, har bir narsaga ilmiy ijodiy yondashuv va kitob mutoaalasi orqali amalga oshiriladi. Demak, tarix fanida ham boshqa sohalar qatori yosh tadqiqotchilarni bugungi jadal islohotlar talabidan kelib chiqib, ilmga to‘g‘ri yo‘naltira olsak, tanlangan ilmiy tadqiqot mavzulari ustida mukammal ishlay olsak, ilmga ijodiy yondashsakkina, kelajakda yosh olim va tadqiqotchilarning zamonaviy avlodini shakllantira olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


*1. Oblomurodov N., Hazratqulov A., Tolipov F. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. (o‘quv qo‘llnanma) – T., 2011.*

*2. Oblomurodov N., Shodmonqulov I. O‘zbekiston tarixi. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – T., 2009.*

*3. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Sharq, 2001.*

**Равшан ХАКИМОВ,**
Ректор Ташкентского архитектурно-строительного института, доцент, кандидат педагогических наук

# ТЕОРИЯ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация**

Maqolada oliy ta'limni modernizatsiya qilish kontekstida o'quv natijalarini baholash hamda muhokama qilish haqida fikr yuritilgan. Muallif baholash tizimi hamda nazorat universalligi ta'lim uchun keng qamrovli o'quv qismlaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan va o'z takliflarini bergan. Shuningdek, talabalar bilim va ko'nikmalari tizimini aniqlash o'quv jarayonining ajralmas qismi ekanligini aytib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Modernizatsiya, nazariya, uslub, baholash, metodologiya, tizim, sifat, nazorat, professional kompetentlik, ta'lim standartlari, pedagogik faoliyat.

В статье речь идёт о вопросах оценки учебных результатов в контексте модернизации высшего образования. Автор, подчеркивая, что система оценки и универсальность контроля является комплексной частью образования, даёт рекомендации по повышению эффективности данной системы. Вместе с этим автор утверждает, что определение системы оценки знаний и умений студентов является неотъемлемой частью учебного процесса.

**Ключевые слова.** Модернизация, теория, метод, оценивание, методология, система, качество, контроль, профессиональная компетентность, образовательные стандарты, педагогическая деятельность.

Article deals with the issues of evaluation of educational results in the context of modernization of higher education. The author, stressing that the evaluation system and the universality of control is an integrated part of education, gives recommendations on improving the effectiveness of this system. Along with this, the author claims that the definition of a system for assessing the knowledge and skills of students is an integral part of the educational process.

**Key words.** Modernization, theory, method, evaluation, methodology, system, quality, control, professional competence, educational standards, pedagogical activity.

В настоящее время высшее образование Республики Узбекистан, неуклонно и последовательно переходит в новое качественное состояние. Многие важные события последних лет в жизни высшего образования связаны с разработкой и началом реализации образовательных стандартов. Возникают и решаются новые задачи модернизации ВУЗа на основе гуманитаризации и информатизации, перехода студентов, независимо от уров-

ня получения ими высшего образования – бакалаврского или магистерского – на более высокую ступень интеллектуального развития.

Способность людей жить в поликультурном и быстро меняющемся мире в немалой степени зависит от образования, которое в значительной степени определяется профессиональной компетентностью учителя и качеством его педагогической деятельности. Учитель становится публичной фигурой, косвенным образом причастной к изменениям в обществе. Поэтому много говорят в последнее время о роли учителя. Пик активной непопулярности в обществе профессии педагога миновал.

В этой связи, нам думается, важнейшей целью национальной реформы (модернизации) образования стало последовательное обеспечение приоритета интересов личности, гуманизация всей системы образования. И ведущие направления реформы, и принципы государственной политики в области образования, видимо, связаны с реализацией этого приоритета. В системе образования появляются новые технологии обучения, инновации и на их основе – новые учебные программы и пособия, ориентированные на формирование комплекса компетенций у обучающихся.

Обеспечение и повышение качества образования занимают одно из центральных мест в реформах национальной системы образования, выступая одновременно целью их проведения и критерием эффективности принимаемых мер. В процессе реализации Национальной программы по подготовке кадров создана система "…объективной оценки качества образовательного процесса и подготовки кадров"[1].

В процессе обучения преподаватель решает задачи обучения, развития и воспитания студентов. Преподавание в вузе — это осуществление целого ряда функций, тесно связанных со спецификой преподаваемых дисциплин, уровнем подготовки студенческой группы, её составом, особенностями конкретных педагогических ситуаций, а также с научными интересами самого преподавателя. Эти функции заключаются в следующем.

1. Получение и накопление новых знаний в сфере преподаваемого предмета (в содержании учебных дисциплин) и в области методов, организационных форм и средств его преподавания. Реализация этой функции предполагает не только глубокое знание своего предмета, но и наличие способности овладевать специальными знаниями по педагогике и психологии, а также творческое умение их использовать. Не секрет, что уровень специальных знаний преподавателя вуза значительно выше знаний методики преподавания, и это большая проблема высшей школы.

2. Проектирование процесса обучения. Исходя из целей изучения дисциплины, преподаватель разрабатывает программу, структуру курса, выбирает методику и технологию преподавания. Умение планировать изучение целого курса и каждое отдельное занятие, соотносить содержание отдельных тем с общими целями учебной дисциплины, знание возрастных и индивидуально-психологических особенностей обучаемых — необходимые составляющие деятельности преподавателя. При проектировании учебного процесса педагог творчески подходит к использованию уже разработанных технологий, методов, приёмов обучения или предлагает собственные, более оригинальные.

---

[1] Национальная программа по подготовке кадров. "Гармонично развитое поколение - основа прогресса Узбекистана". – Т.: 1997.

3. Отбор и структурирование содержания учебного занятия. Преподаватель отбирает учебный материал для каждого занятия, исходя из знания особенностей аудитории, собственной подготовки. Отметим, что одна тема может быть преподнесена разным группам студентов по-разному: по-другому структурировано содержание учебного материала, иначе распределено время на изучение отдельных вопросов, использованы иные методы и приемы преподавания.

4. Организация учебного процесса. Речь идет как об организации учебной деятельности студентов, так и об умении преподавателя организовать себя, свою работу по достижению целей обучения.

5. Установление коммуникативных связей. Важное значение в профессиональной деятельности преподавателя имеют его взаимоотношения с коллегами, со студентами, так как они становятся источником и условием совершенствования профессионализма, средством как учебного, так и воспитательного воздействия на студентов.

6. Воспитательное воздействие на студентов. Формирование личности студента – процесс многогранный: помимо передачи знаний и выработки определенных умений, преподаватель влияет на социально-нравственную сферу воспитанника.

Внедряемые в настоящее время интенсивные методы обучения ведут неизбежно к новым поискам в области повышения качества и эффективности педагогического контроля и появлению его новых форм. Процесс контроля – одна из наиболее трудоемких и ответственных операций в обучении, связанная с острыми психологическими ситуациями как для обучающегося, так и для преподавателя. Но, как показала практика, попытки уменьшить контроль в учебном процессе вуза приводят к снижению качества обучения.

В высшей школе выделяют основные принципы организации контроля.

Профессиональная направленность контроля, которая обусловливается целевой подготовкой специалиста. Студенты должны знать содержание, т.е. то, что будут контролировать, средства, а это то, как будет осуществляться контроль, а также сроки и длительность контроля.

Воспитывающий характер контроля. Данный принцип проявляется в том, что активизирует творческое и сознательное отношение студентов к учебе, стимулирует рост познавательных потребностей, интересов, организует учебную деятельность и воспитательную работу. Всякий контроль, принижающий личность студента, не может применяться в вузе.

Систематичность. Систематический контроль упорядочивает процесс обучения, стимулирует мотивацию, дает возможность получить достаточное количество оценок, по которым можно более объективно судить об итогах учебы.

Всесторонность. Круг вопросов, подлежащих оцениванию, должен быть настолько широк, чтобы можно было бы охватить все темы и разделы. При оценке личности следует учитывать деловые, моральные качества, ценностные ориентации, общественную работу, учебные достижения.

Всесторонность контроля – одна из составляющих комплексного подхода к воспитанию.

Система проверки знаний и умений студентов – органическая часть учебного процесса, и ее функции выходят далеко за пределы собственного контроля. Педагогический контроль выполняет много функций в педагогическом

процессе: оценочную, стимулирующую, развивающую, обучающую, диагностическую, корректирующую, воспитательную и др.

1. Диагностирующая функция: контроль – это процесс выявления уровня знаний, умений, навыков, оценка реального поведения студентов (обратная связь и учет результатов).

2. Обучающая функция контроля проявляется в активизации работы по усвоению учебного материала (формирование навыков и умений, корректировка, предупредительные меры, совершенствование).

3. Развивающая функция: развитие памяти, внимания, логического мышления, мотивации, интереса к предмету, творчества.

4. Воспитывающая функция: наличие системы контроля организует и направляет деятельность студентов, помогает выявить пробелы в знаниях, особенности личности, устранить эти пробелы, формирует творческое отношение к предмету и стремление развить свои способности (дисциплинирующая, воспитывающая трудолюбие и т.п.).

Педагогическую систему контроля в вузе образуют такие формы, как экзамены, зачеты, устный опрос (собеседование), письменные контрольные, рефераты, семинары, курсовые, лабораторные контрольные работы, проектные работы, дневниковые записи, журналы наблюдений. В учебно-воспитательном процессе все эти формы тесно взаимосвязаны и переплетены. Но есть формы контроля, когда одна, ведущая функция превалирует над остальными, потому что каждая из перечисленных форм имеет свои особенности.

Например, во время устного опроса контролируются не только знания, но и тренируется устная речь, развивается педагогическое общение.

Письменные работы позволяют документально установить уровень знания материала, но требуют больших затрат времени для преподавателя.

На семинаре в основном проявляется обучающая функция: высказываются различные суждения, задаются наводящие вопросы, обсуждаются ошибки, но вместе с тем семинар выполняет диагностическую и воспитывающую функции.

Зачеты, экзамены, тестирование выполняют преимущественно диагностическую функцию контроля.

При применении программированного контроля проявляется его обучающая и контролирующая функции.

Курсовые и дипломные работы способствуют формированию творческой личности будущего специалиста.

Различают основные виды контроля:

Предварительный (поэтапный) контроль необходим для получения сведений об исходном уровне познавательной деятельности студентов, а также перед изучением отдельных тем дисциплины. Результаты контроля должны использоваться для адаптации учебного процесса к особенностям данного контингента студентов.

Текущий контроль предназначен для управления усвоением знаний и умений студентов. Он помогает дифференцировать студентов на успевающих и неуспевающих, мотивирует обучение (опрос, контрольные, задания, проверка данных самоконтроля).

Тематический контроль – это оценка результатов усвоения определенной темы или раздела программы.

Рубежный контроль – проверка учебных достижений каждого студента перед тем, как преподаватель переходит к следующей части учебного материала, усвоение которого невозможно без усвоения предыдущей части.

Итоговый контроль – экзамен по курсу. Это итог изучения пройденной дисциплины, на котором выявляется способность студента к дальнейшей учебе. Итоговым контролем может быть и оценка результатов научно-исследовательской практики.

Заключительный контроль – государственные экзамены, защита дипломного проекта, дипломной работы или выпускной квалифицированной работы, присвоение квалификации Государственной экзаменационной комиссией.

По средствам педагогической коммуникации контроль можно рассматривать с точки зрения:

1) способов: традиционный (экзамены, зачеты) или нетрадиционный (программированный контроль, тест);

2) использования ТСО;

3) формы: устный, письменный;

4) массовости (по охвату студентов): индивидуальный, фронтальный, индивидуально-групповой;

5) контролирующего лица: преподаватель, студент-напарник (взаимоконтроль), студент сам (самоконтроль);

6) дидактического материала:

• контроль без дидактического материала (сочинение, устный опрос, диспут-общение и т.п.);

• с дидактическим материалом (раздаточный материал, тесты, билеты, контролирующие приборы).

Направления повышения объективности контроля:

Первое направление – формирование коллегиальной оценки комиссией. Но ее оценка складывается из нескольких субъективных, это скорее так называемая интерсубъективная оценка.

Второе направление – использование стандартных тестовых программ технического контроля. Он может проводиться кафедрой, вузом, методической лабораторией, специализированными организациями по проверке качества вузовского образования.

В современных педагогических исследованиях изучаются пути и средства повышения качества образования.

Педагогическое оценивание представляет собой единую дидактическую и методическую систему педагогической деятельности, которая носит совместный характер, объединяя педагогов и обучающихся, и направлена на оценку результатов образовательного процесса[2].

В решении проблемы качества образования в условиях модернизации прослеживаются два направления, которые выводят оценку качества образования на принципиально новый уровень. Первое направление связано с развитием количественного анализа, основанного на системе педагогического оценивания образовательных результатов. Это позволяет перейти от суждений и мнений к анализу состояния, выявлению зависимостей различных факторов, влияющих

[2] Практическая педагогика: Учебное пособие /Авт.-сост. Л.М. Горбунов. – Иркутск: Изд-во Вост.-Сиб. гос. акад. образования, 2012. – С.210.

на результативность образовательного процесса и обоснованному прогнозу направления развития. Второе направление основано на смещении приоритетов в оценке образования с процесса на результат.

Проблема педагогического оценивания в настоящее время далека от разрешения и в теории, и в практике высшего образования потому, что исключительно трудно осуществить последовательное сопоставление целей образования с достигаемыми результатами. Не менее актуальным и проблематичным остается вопрос об инструментарии педагогического оценивания.

Как в теории, так и в практике обучения широко применяются понятия качества обучения, качества проведения занятий, качества построения учебного процесса, количественные показатели усвоения предмета, результативность обучения и т. д. Однако все эти понятия скорее условны, так как не имеют достаточно четких определений.

Качество обучения, например, рассматривается как способность студентов выполнять определенные требования, поставленные перед ними на основе целей и задач обучения, а в конкретных случаях – на основе целей и задач изучения того или иного предмета.

Количественная характеристика представляет собой одновременно выражение таких составляющих, как качество обучения, затраченное время, условные числовые показатели успеваемости и другие показатели.

Для учебного процесса более распространенным (традиционным) является его оценка в качественных показателях. Сами количественные оценки, как известно, рассматриваются как условные эквиваленты качественных показателей (четыре – это хорошо, пять – отлично, а два – плохо).

Все компоненты системы обучения можно в отношении их количественной и качественной характеристик подразделить на три вида.

1. Компоненты, выражаемые только качественными признаками (хорошее отношение к занятиям, усердие, степень проявляемого интереса и т. д.).

2. Компоненты, в которых количественная характеристика носит условный характер рангового измерения. Примерами такой оценки являются пятибалльная, сто балльная и другие системы оценки результатов.

3. Компоненты, в которых количественная характеристика имеет определенное числовое выражение (количество проведенных работ, количество решенных задач, правильных исчерпывающих ответов и другие педагогические акты, носящие однозначный характер).

Существенным для теории обучения высшей школы является диалектическое понимание качественной и количественной сторон дидактических объектов.

Качество рассматривается как существенная характеристика определенного предмета, объекта изучения, которой он отличается от других предметов и объектов.

Количество выражает собой однородность предметов, объектов изучения, их показателей по какому-либо свойству.

В учебном процессе, как и в научном познании, различают три основных уровня качественной и количественной характеристик: опытный, научно-экспериментальный и научно обоснованный, доказательный.

В оценке состояния и результативности системы учебного процесса и ее компонентов преобладают качественные характеристики. Эти характеристи-

ки формируются за счет методов наблюдения, сравнения, дидактического эксперимента, путем проведения экзаменов, зачетов, курсовых и дипломных работ и т. д.

Качественные оценки в учебном процессе позволяют выделять объект изучения из других объектов, выявлять состояние компонентов системы, устанавливать некоторые общие признаки и показатели, характеризующие объект. Однако сама по себе обособленная качественная характеристика учебного процесса, хотя и является необходимой, не обеспечивает требования достаточности. Она отражает одну сторону признаков объекта, а следовательно, не дает полной картины действительного состояния учебного процесса.

Полной оценкой учебного процесса может быть такая, в которой наряду с качественными характеристиками находят применение методы количественной определенности.

Количественные оценки в учебном процессе обеспечивают выбор объективных однозначных измерителей, посредством которых характеристика состояния, процесса, результатов его действия получает достаточную определенность (например, количество компьютеров, интерактивных досок, учебников и учебных пособий и т.д.).

Анализ универсальных механизмов педагогического оценивания позволит прояснить многие ранее не акцентуированные аспекты этого педагогического явления и, таким образом, расширит объяснительные, прогностические и управленческие возможности в образовательной деятельности ВУЗа.

**Использованная литература:**


*1. Национальная программа по подготовке кадров. "Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана". – Т.:1997.*

*2. Практическая педагогика: Учебное пособие/Авт.- сост. Л.М. Горбунов. – Иркутск: Изд-во Вост. – Сиб. гос. акад. образования, 2012. – С.210 .*

*3. Андреев В.И. Педагогика высшей школы. Инновационно-прогностический курс: учеб. Пособие, 2008. – С. 500 .*

*4. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход. – М, 2005.*

*5. Педагогика и психология высшей школы: Учебное пособие. – Ростов н/ Д : Феникс, 2002. – С. 544.*

*6. Хуторской А.В. Современная дидактика: Учебник для вузов. - СПб: Питер, 2001. –С. 544 .*

*7. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. С.144 .*

*8. Подласый И.П. Педагогика - М., 1999.*

*9. Миронов, В.А., Майкова, Э.Ю. Социальные аспекты активизации научно-исследовательской деятельности студентов вузов: Монография. – Тверь: ТГТУ, 2004. – С. 59.*

**Абдуназар НУРМАНОВ,**
доцент Ташкенского Государственного педагогического университета имени Низами, доктор педагогических наук
**Давлатбек САЪДУЛЛАЕВ,**
доцент Ташкенского Государственного педагогического университета имени Низами, кандидат филологических наук

# О ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В УЗБЕКСКОЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Аннотация**

Maqola bugungi axborot globallashuvi sharoitida o‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu jarayon ta’lim, fan, adabiyot va san’at, madaniyat bilan uzviy aloqada talqin etilgan. Rus tilini o‘qitish metodikasida lingvomadaniyatshunoslik yondashuv tushunchasi mohiyati mualliflar tomonidan o‘ziga xos talqin etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Lingvomadaniyatshunoslik yondashuv, lingvomadaniyatshunoslik kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, madaniyatlar dialogi, rus tilini o‘qitishning yangi konsepsiyasi.

Статья посвящена вопросам социализации личности обучаемых в современных информационных условиях, которая рассматривается в тесной связи с проблемами культуры, образования, науки, литературы, искусства. Раскрывается авторское видение лингвокультурологического подхода в методике обучения русскому языку, его роль в формировании языковой личности.

**Ключевые слова.** Лингвокультурологический подход, лингвокультурологическая компетенция, языковая личность, диалог культур, полилингвальная языковая личность, новая концепция обучения русскому языку.

Article is devoted to the issues of socialization of the personality of the trainees in modern information conditions, which are considered in close connection with the problems of culture, education, science, literature, art. Revealed the author's vision of the linguocultural approach in the methodology of teaching the Russian language and its role in the formation of the language personality.

**Key words.** Linguistic and cultural approach, linguistic personality, linguocultural competence, polylingual linguistic personality, dialogue of cultures, a new concept of teaching the Russian language.

Процесс информатизации сегодня затронул все сферы общественной жизни, включая и систему образования. Общество ставит перед образованием задачу обеспечить каждому человеку подготовку к жизни в условиях стремительной смены информационных потоков, быстрой адаптации к изменяющейся социокультурной ситуации, к активной, самостоятельной дея-

тельности в новых информационных условиях. Первостепенное значение при этом приобретают проблемы взаимодействия между людьми, и язык как основа этого взаимодействия становится базой формирования “человека информационного”, “человека сетевого”, в конечном итоге – нового человека новой эры. Образование, сообразуясь с современными потребностями социума, призвано готовить такого человека.

Новый социальный заказ актуализирует проблему социализации личности учащихся школ, академических лицеев, профессиональных колледжей на основе действенного владения языком.

Проблемы социализации личности в системе образования имеют большое значение для эффективного решения задач воспитания, обучения и развития подрастающего поколения. Понятие “социализация личности”, с одной стороны, сужено нами до его трактовки с точки зрения действенного владения языком как механизмом вписывания человека в систему бытя, в основном через ту часть концептуального мира человека, которая имеет “привязку” к языку и преломляется через языковые формы, с другой стороны, происходит значительное расширение, даже глобализация трактовки понятия “социализация личности”. В силу системообразующего характера, полифункциональности самого языка, с помощью которого интегрируются знания, формируется сознание как свойство человека, развиваются абстрактное мышление, память, обеспечивается общее интеллектуальное развитие и т.д.

Лингвистическое языковое образование, таким образом, становится основой интеллектуального развития и саморазвития личности, основой формирования её готовности к продуктивной деятельности в обществе, так как вооружает личность инструментом для получения знаний в любых сферах образования и общественного устройства, позволяет человеку познать самого себя, овладеть средствами самоанализа, самовыражения и самореализации в социуме.

Лингвокультурология — гуманитарная дисциплина, изучающая воплощенную в живой национальный язык и проявляющуюся в языковых процессах материальную и духовную культуру (Опарина). Она позволяет установить и объяснить, каким образом осуществляется одна из фундаментальных функций языка — быть орудием создания, развития, хранения и трансляции культуры. Ее цель — изучение способов, которыми язык воплощает в своих единицах, хранит и транслирует культуру.

По мнению исследователей, объектом лингвокультурологии является исследование взаимодействия языка, который есть транслятор культурной информации, культуры с ее установками и преференциями, и человека, который создает эту культуру, пользуясь языком.

Понятие “личность” рассматривается нами с культурологической точки зрения как интегрирующее врожденные поведенческие предпосылки индивида, стереотипы групп, к которым он принадлежит, и правила поведения, характерные для ролей, исполняемых им в различных социокультурных ситуациях. При этом, приравнивая процесс формирования языковой личности к процессу социализации личности, мы расширяем понятие языковой личности, понимая под языковой личностью не просто любого носителя языка, способного производить речевые произведения на данном языке, или типового представителя данной языковой общественности, а основываясь на культурологическом подходе.

Соглашаясь с Е.И.Пассовым[1], призывающим формировать “человека духовного” в процессе изучения иноязычной культуры (иностранного языка), нельзя не признать, что русский язык, безусловно, предоставляет нам все возможности для воспитания такого человека. В связи с этим понятие “языковая личность” не сводится к владению языковой системой, знанию лингвистических правил и категорий, что по-прежнему имеет место на уроках русского языка. Язык становится частью социальной памяти, совокупностью значений, составляющих ориентировочную основу деятельности не только речевой, но и другой, например познавательной, поскольку речь по природе своей – “неинстинктивная, приобретенная”, “культурная” функция (Э.Сепир). О том же писал Л.В.Щерба, считая, что речевая организация индивида не может просто равняться сумме его речевого опыта, она должна быть своеобразной переработкой данного опыта и является социальным продуктом, т.е. формируется в процессе его социализации.

Сказанное позволяет рассматривать социализацию в тесной связи с проблемами культуры, образования, науки, литературы, искусства. Не ставя задачу даже поверхностно прокомментировать существующие (бесчисленные) определения такого феномена как культура, мы считаем тем не менее необходимым привести чисто условное деление этого понятия на три основных “группы смыслов”:

– этническая (или национальная) культура;

– общечеловеческая (или мировая, в т.ч. материальная и духовная);

– индивидуальная (или духовная), состоящая из некоего набора типовых реакций, определяемых общественными традициями высокой духовности и морали.

Человек как феномен “творит” культуру, но человек как индивид становится личностью, входя в культуру посредством языка, т.к. язык в одно и то же время – продукт и условие развития человеческой культуры.

Социокультурный подход в сочетании с лингвокультурологическим позволяет нам рассматривать “социализацию личности” как самореализацию каждого в соответствии с социальным заказом и личными потребностями в условиях многоязычного и поликультурного пространства, как приобщение к высшим достижениям мировой и национальной культуры. В данной трактовке основным методологическим компонентом служит, с одной стороны, человек как целостность, а с другой – культура.

В связи с изложенным нам представляется логичным рассмотреть вопрос о языке как “социализирующем” факторе в диалоге языков и культур. Необходимость культурологической основы образования, воспитание умения вести диалог с иными культурами сегодня приобретает особенную актуальность. Общепланетарность характера личности, ощущение причастности ко всему человечеству не снимают потребности и проблемы её этнокультурной самоидентификации. Напротив, человек духовный, как правило, нуждается в ощущении своих корней. Эта самоидентификация – часть важнейшего процесса познания, поиска себя – непрерывного и бесконечного, кульминация которого приходится на школьные годы.

Однако культурологическая компетенция в нашем понимании – это не только осознание национально-культурного компонента языковых единиц разных уров-

[1] Пассов Е.И. Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования. Концепция развития индивидуальности в диалоге культур. – М., 2000.

ней и овладение культурой народа-носителя языка, но и параллельное овладение информационной культурой (в т.ч. системой подачи и обработки знаний на новейших носителях информации), культурой жизнедеятельности (сохранение и приумножение жизненного статуса, эргономика, психология здоровья), а также формирование неких индивидуальных ценностных ориентаций, в основе которых лежит постулат о том, что “культура – это индивидуально (личностно) освоенные духовные ценности”[2].

Отсюда, учитывая выделенные нами три “группы смыслов” культуры, в качестве исходных мы принимаем следующие положения: диалог языков призван формировать полилингвальную языковую личность, а диалог культур – *в этнолингвокультурологическом аспекте* – личность, причастную ко всему человечеству и одновременно ощущающую потребность в этнокультурной самоидентификации на основе усвоения языка в единстве с усвоением культуры народов – его носителей;

*в общекультурном аспекте* – личность, вооруженную высокими технологиями на основе информационной культуры и культуры жизнедеятельности;

*в индивидуально-личностном аспекте* – личность духовно богатую, интеллектуально развитую и высоконравственную.

Следует особо подчеркнуть, что, трактуя язык как основное средство социализации личности в современном информационно-гуманитарном обществе, мы рассматриваем информатизацию и гуманитаризацию в непрерывном единстве, понимая под информатизацией общества гуманитарные в широком смысле аспекты развития информатики и электронно-вычислительной техники: философские, социокультурные, мировоззренческие, идеологические, методологические и т.д.

В этих условиях именно язык призван “социализировать” личность посредством формирования способности свободно ориентироваться в потоке информации, отфильтровать главное через призму общечеловеческих ценностей, самостоятельно определять направления и границы поиска необходимой информации, свободно владеть способами и средствами управления и передачи информации, навыками ввода информации, используя скорочтение, машинопись, знание иностранных языков, а также приемы эргономики и психосаморегуляции.

Таким образом, культурологический подход, являясь основой формирования языковой личности, предполагает, с нашей точки зрения, не только диалог с этническими культурами, но и приобщение личности к культуре общечеловеческой, а в её составляющих – профессиональной, экологической, информационной и др.

Исследования реального состояния проблемы в теории и практике преподавания русского языка в инофонной среде в школах, академических лицеях и профессиональных колледжах выявили:

недостаточный уровень разработанности теоретических и методологических подходов к осуществлению социализации личности современного информационного общества на основе действенного владения языком с использованием новейших информационных технологий;

отсутствие в системе общего и среднего профессионального образования концепций, программ, учебников, нацеленных на комплексный подход к обуче-

[2] Пассов Е.И., Кибирева Л.В., Колларова Э. Концепция коммуникативного иноязычного образования. – М., 2007.-С.39.

нию русскому языку как человекоформирующему фактору с учетом современных достижений лингвистики, психо и социолингвистики, лингводидактики, когнитивной лингвистики, информатики;

несовершенство методики обучения русскому языку, господство в практике школ, академических лицеев и профессиональных колледжей так называемого “прямого метода” обучения языку, в условиях которого “творческая активность обучающегося сводится к минимуму”[3], что ведет к недостаточному или неэффективному использованию в методике преподавания коммуникативного и деятельностного подходов к обучению и создает разрыв между целевыми установками изучения языка в указанных типах учебных заведений и его использования в социуме, ограничивая тем самым социальные возможности говорящего, создавая угрозу отрицательных социальных последствий языкового владения и языкового поведения;

недостаточное внимание в школах, академических лицеях и профессиональных колледжах к языку-речи в диалоге языков и культур как средству социализации личности: в содержании образования, в применении форм, методов и технологий обучения, воспитания и развития, диагностике социальной адаптации учащихся школьного возраста и роли языка в этой адаптации.

Определение проблемы и условий её решения привело нас к необходимости пересмотра взглядов на русский язык как школьный предмет с учетом современных тенденций науки о языке.

Интегративные процессы в современном языкознании, развитие методики, психологии, культурологии и философии образования, а также социальные изменения в обществе повлекли за собой изменения во взглядах на человека в целом, на его место в социуме как личности, на роль образования в развитии социализированной личности и на язык как средство социализации в современном мире и как учебную дисциплину.

Язык, в силу уникальности своих образовательных возможностей, должен рассматриваться не как “учебный предмет”, а как “образовательная дисциплина”, обладающая огромным познавательным, развивающим и воспитательным потенциалом. Иной социальный заказ, значительное сокращение учебного времени на этот предмет неизбежно влекут за собой изменения не только в определении целей обучения, но и в отборе содержания, форм, методов обучения русскому языку, контроля за его результатами.

Русский язык как школьный предмет (в ряду других языков в Узбекистане) в условиях современной социокультурной ситуации должен стать основой социализации личности ученика – будущего жителя информационно-экологического общества.

В основу нового подхода к обучению русскому языку была положена следующая гипотеза – русский язык как школьный предмет станет основой социализации личности современного ученика, если:

строить образовательный процесс на интегрирующей базе русского языка как ценностного объединения информационной и коммуникативной культур; как средства обогащения и развития языковой личности в плане формирования общеучебных умений и навыков; формирования ценностных социально значимых ориентиров, направленности на самостоятельную творческую деятельность и выработку нравственной жизненной позиции;

[3] Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М, 1969. – С.141.

технологизировать процесс социализации личности учащегося сообразно с идеями информационного общества и гуманистической педагогики на новой психолого-педагогической, лингводидактической, личностно-ориентированной, деятельностной основе с использованием обширных межпредметных связей при общем культурологическом подходе: этнолингвокультурология, информационная культура и культура жизнедеятельности;

работать с обучаемыми по учебникам, созданным в соответствии с подходом к языку как информационному коду, знаковой системе, языковой способности человека, дару слова, феномену культуры (М.С.Коган), социальной памяти народов (Э.Сепир), "ориентиру в природе и в социуме" (В.В.Морковкин), национальному достоянию, механизму "присвоения этнических стереотипов" (А.А.Уфимцева) и "врастания ребенка в цивилизацию" (А.Н.Леонтьев), а также на принципиальных основах "диалога языков и культур" (В.В.Воробьев, В.Г.Костомаров, Ю.Е.Прохоров, Е.И.Пассов, Л.Г.Саяхова, Т.Н.Чернявская, Д.С.Саъдуллаев и др.).

Итак, изменившиеся цели обучения в средней школе, академическом лицее, профессиональном колледже, направленные на развитие личности ученика, способного полноценно жить и успешно работать в условиях современного информационного общества, в условиях рынка и демократии, активного, инициативного, предприимчивого, деятельного, высококультурного; патриота с развитым даром гуманности и нестандартного творческого мышления, настоятельно требуют нового содержания образования (в т.ч. и прежде всего по русскому языку, занимающему одно из ведущих мест в образовательной и воспитательной системе), новых учебных пособий, методик и технологий, основополагающими принципами которых, на наш взгляд, должны являться авторизованный, интегративный, деятельностный и автоматизированный подход к обучению, воспитанию и развитию.

## Использованная литература:


*1. Саъдуллаев Д.С. и др. Культура речи сегодня: теория и практика. Коллективная монография. – М., 2009.*

*2. Саъдуллаев Д.С. Лингвокультурологические этюды. – Т.: Фан ва технология, 2017.*

*3. Пассов Е.И., Кибирева Л.В., Колларова Э. Концепция коммуникативного иноязычного образования. – М., 2007.*

*4. Доценко Е.Л. Семантика межличностного общения. Автореф. дисс. докт. психол. наук. МГУ, – М.,2000. – С. 41.*

*5. Каган М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений. – М.: Академия, 2008. – С.319.*

*6. Леонтьев А.А. Язык, речь и речевая деятельность. – М.: 1999. – С.211.*

*7. Нурманов А.Т. Подготовка студентов к технологии и технике эффективного общения. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2010. – С.114 .*

**Умиджон ЖУМАНАЗАРОВ,**
докторант Ташкентского Государственного педагогического университета имени Низами

# ФОРМИРОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА С ПОМОЩЬЮ УПРАЖНЕНИЙ

**Аннотация**

Ushbu maqolada frazeologiya, kompnetensiya va uning turlari, bo'lajak chet tili mutaxassislarida frazeologik kompetensiyalarni frazeo-material yordamida rivojlantirishning metodlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.
**Kalit so'zlar.** Kompetensiya, kompensator, noverbal, frazeologiya, frazeologik kompetensiya, frazeo-material, leksik-frazeologik va grammatik-frazeologik mashqlar.

В данной статье даны рекомендации по развитию фразеологической компетенции у будущих специалистов иностранного языка с помощью фразеологического материала.
**Ключевые слова.** Компетенция, компенсатор, невербальная речь, фразеология, фразеологическая компетенция, фразео-материал, лексико-фразеологические и грамматико-фразеологические упражнения.

Article gives recommendations on the development of phraseological competence in future specialists of a foreign language with the help of phraseological material.
**Key words.** Competence, compensator, non-verbal speech, phraseology, phraseological competence, phraseological material, lexico-phraseological and grammatical-phraseological exercises.

В годы независимости особое внимание уделяется работе по повышению качества образования на основе современных требований, в частности организации системы подготовки учителей иностранных языков в соответствии с международными требованиями. Так, в результате широкомасштабных реформ, реализованных в сфере образования, создана национальная система подготовки будущих учителей иностранных языков. Наряду с этим для повышения качества подготовки будущих учителей иностранных языков необходимо внедрение инновационных подходов к формированию их коммуникативной компетенции. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в 2017-2021 годах определены задачи "воспитания интеллектуально развитого поколения с высоким уровнем знаний, создание в высших учебных заведениях резерва компетентных научно-педагогических кадров", которые сегодня имеют важное значение в активизации социальной коммуникативности, повышении социальной лингвистической подготовки будущих учителей английского языка.

В период ускорения процесса мировой интеграции и глобализации в социальной, экономической и духовной сферах особое внимание уделяется исследованиям, направленным на расширение содержания и научно-методической основы подготовки педагогически конкурентоспособных кадров, отвечающих международным квалификационным требованиям, использование инновационных образовательных технологий. С этой точки зрения важную научно-практическую значимость приобретают активизация социальной коммуникативности, повышение социальной лингвистической подготовки будущих учителей английского языка, выявление профессиограммы учителя английского языка. [1]

Постановления Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года № ПП-1875 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков”, от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 мая 2013 года № 143 “О мерах по ускоренному оснащению (дооснащению) кабинетов иностранных языков образовательных учреждений Республики современным информационно-коммуникационным оборудованием, техническими средствами обучения и инвентарем в период 2013-2016 годов”, а также Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП–4947 “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” ознаменовали кардинальный поворот в подготовке компетентных кадров на всех этапах системы образования в соответствии с международными квалификационными требованиями по обучению иностранным языкам.

Знание в совершенстве иностранных языков является одной из приоритетных задач политического и экономического развития и духовно-просветительского процветания Узбекистана. Следовательно, обучение иностранным языкам требует использования оперативных, современных, эффективных методов.

Наряду с тем, что овладение речевыми умениями на иностранном языке является целью образования, изучаемый язык получает также статус средства получения/доведения новой и полезной информации. Студент пользуется изучаемым языком не только в качестве собеседника, но и в качестве владельца (когнизанта) информации. При практическом изучении языка студент занят не только сбором лингвистических знаний, но и повышением речевых и культурных умений (компетенций). Иностранный язык изучается на основе интегративного подхода, предназначенного для активной коммуникативной деятельности и совершенствования личностно-ориентированной компетенции.

Знание иностранного языка достигается путем овладения коммуникативной компетенцией. Компетенция (условно *способность*), как известно, состоит из комплекса знаний, навыков, умений и личных качеств. В состав коммуникативной компетенции входят лингвистические, социолингвистические, дискурсивные, социально-культурные, стратегические (компенсаторные) компетенции.

Компетенции не исключают знаний, умений и навыков, хотя и принципиально отличаются от них. От знаний – тем, что они существуют в виде деятельности, а не только информации о ней. От умений – тем, что компетенции могут применяться к решению разного рода задач (обладают свойством переноса). От навыков – тем, что они осознаны и не автоматизированы, что позволяет че-

[1] Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» № УП-4947 от 7 февраля 2017 года.

ловеку действовать не только в типовой, но и в нестандартной ситуации. Без знаний нет компетенции, но не всякое знание и не во всякой ситуации проявляет себя как компетенция. Ключевые профессиональные компетенции – это способности работника решать задачи, которые возникают перед ним в процессе профессиональной карьеры и не зависят от профессии или специальности (инвариантны по отношению к ним). Ими должен обладать каждый член общества, они универсальны и применимы в самых различных ситуациях. Понятие «компетентность» включает не только когнитивную и операционально-технологическую составляющую, но и мотивационную, этическую, социальную и поведенческую. Оно включает результаты обучения (знания и умения), систему ценностных ориентаций, привычки и проч. Компетентность формируется в процессе обучения, но не только в СПО, но и под воздействием семьи, друзей, работы, политики, религии, культуры и др. В связи с этим реализация компетентностного подхода зависит от всей образовательно-культурной ситуации, в которой живет и развивается студент.

В лингвистической компетенции учитываются применение (умения) в речи языковых явлений. В социолингвистической компетенции совмещаются ситуация, цель общения и умение высказывать соответствующее задаче собеседников мнение. Дискурсивная компетенция относится к созданию связных текстов и осознанному восприятию. В социально-культурной компетенции учитываются национальные культурные особенности народа изучаемого языка, а также особенности речевого и неречевого (невербального) общения. В социальной и стратегической (компенсаторной) компетенции формируются умения по познанию иностранного языка, адаптации к диалогам в сфере культур, учету ситуации речевого общения, а также заполнению недостатка в языковом, речевом и социальном опыте. В данную компетенцию входят содержательные и уместные действия, чувство ситуативного значения, речевые умения с помощью жестов продолжения, остановки общения, проявление инициативы согласно ситуации (body language).

В современной методике преподавания иностранного языка формирование фразеологической компетенции у изучающих язык является одним из перспективных направлений. Суть данного направления заключается в том, что студент, изучая язык, знакомится с фразеологией, отражающей национальную самобытность языка. Фразеология дает возможность познания системы, существующей вместе с современными языковыми строениями и конструкциями, возникшими и развивающимися в различных исторических периодах. Фразеология тесно связана с культурой создания (ведения) речи, в связи с этим,преподавателям, обучающим студентов иноязычных групп, требуется обратить соответствующее внимание на лексико-фразеологическое богатство языка. Мастерское использование фразеологизмов придает речи неповторимую живость, выразительность, образность и свидетельствует о высокой степени владения языком.

“Фразеологизмы в качестве сложного языкового явления считаются единицей между словом (лексико-семантическая единица) и словосочетанием (синтаксическая единица)” (2:11). Фразеологизмы, состоящие из двух или более слов и выражающие единое значение, как и слова, являются словарными единицами языка. Несмотря на то, что фразеологизмы представляют словосочетание или даже предложения, они резко отличаются от данных единиц и в качестве словар-

ной единицы во многом находятся близко к отдельным словам. Многие особенности, свойственные словам, также свойственны и фразеологизмам.

Если форму слова составляют звуки, то фразеологизмов – слова. Фразеологизмы, точно как и поговорки и пословицы, передаются из поколения в поколение. Следовательно, фразеологизмы также выполняют культурно-информационную функцию с отражением истории, культуры, быта, образа жизни определенного народа и поведения некоторых людей. В некоторых из них находит свое отражение экспрессивность, субъективное, то есть положительное или отрицательное отношение говорящего к событиям и предметам, качественная и количественная характеристика какого-либо явления, предмета, знака.

В лексическом составе языка фразеологизмы занимают важное место. Они, передавая мнение образно и точно, всесторонне отражают событийность. Фразеологизмы не только раскрывают событийность, но и, характеризуя её, дают определенную оценку. В смысловых отношениях они совпадают с единым понятием, выражают предмет, процесс, состояние, качество, особенность и прием, отражают в себе законы в отношении общей системы языка.

Изучение фразеологизмов, несомненно, обогащает языкознание и теоретически, и практически. Путем глубокого изучения фразеологизмов исследуются связь фразеологии с паремиологией, являющейся общетеоретическими проблемами фразеологизмов, сущность понимания объекта фразеологии в узком и широком значении, отношение фразеологизмов с другими языковыми единицами, особенности фразеологизмов в качестве языковой и речевой единицы.

В современном языкознании продолжаются исследования сущности фразеологизмов и их определения в качестве единицы языка.

При обучении использования фраз в английской речи, по нашему мнению, требуется обратить внимание студентов на данный пласт языка и представить определенные понятия об этой сфере языкознания.

Фразеологизмы, обычно, имеют полное или же частичное переносное значение, связанные, устойчивые словосочетания иногда проявляются в виде предложений. Их основная способность несовпадения с планом содержания устанавливает своеобразие плана выражения, придает значению нежность и очарование.

Фразеология является закрытым микроконтекстом, здесь также возникают не формальные связи между планом выражения и планом содержания, а необязательные ассоциативно-семантические связи, логически исходящие из самого микроконтекста.

При формировании у студентов фразеологической компетенции, прежде всего, следует обратить внимание на фразеологические упражнения. Исходя из этого, необходимо выбирать фразео-материал (термин Жуманазарова У.У.) и учитывать форму, содержание и особенности применения фразеологических единиц, которые во многих случаях могут вызвать у говорящих на этом языке конкретные, а у говорящих на иноязычном языке серьезные недостатки.

Фразеологическая компетенция состоит из точного, доступного устного и письменного изложения студентами, изучающими иностранный язык, своего мнения путем фразеологических выражений, выделения из текста ФЕ, анализа речевых функций фразеологизмов, определения национально-культурных различий, свободного их употребления в речи и др. Разработанная система упражнений помогает при различии фразеологизмов работе с текстом, нахождении

правильного варианта перевода. Данные упражнения являются системой упражнений, направленной на понимание и определение ФЕ с помощью синонимов изучаемого языка, выявление ФЕ сначала письменно, а потом уже устно в тексте (диалоге). Система включает в себя: многократное повторение и укрепление в речи ФЕ, самостоятельное применение в речи, устный перевод отдельных фраз в ФЕ, перевод текста с ФЕ. Гез Н.И. выдвигает в своих трудах идею о том, что основная часть (структура) урока должна состоять из упражнений при обучении видам речевой деятельности. Профессор Жалалов Ж.Ж. отмечает, что упражнения являются совокупностью малых систем и называет их упражнениями по видам речевой деятельности (говорение, аудирование, чтение и письмо) и упражнениями языковых материалов (лексика, грамматика, произношение). Также упоминает, что при овладении языкового материала в речевом процессе встречаются отражающие чувственную работу рецептивные лексические, рецептивные грамматические и репродуктивные лексические, а также репродуктивные грамматические упражнения (3:14).

Весь лексико-фразеологический и грамматико-фразеологический комплекс упражнений помогает студентам извлечь из текста ФЕ, провести анализ речевых функций фразеологизмов, определить национально-культурные различия, свободно применять ФЕ в речи.

Студентам следует объяснить стратегию перевода ФЕ:

1. Нахождение ФЕ в языке перевода является оптимальным решением, число таких соответствий ограничено.

2. Поиск ФЕ, имеющей общность с начальным содержанием, но построенной на своеобразной образно-языковой основе. ФЕ, содержательно часто похожую во многих языках, нельзя заменить ФЕ, имеющей различную эмоционально-ассоциативную окраску.

3. Калькирование или дословный перевод. Обычно применяется в отношении третьего источника. Например, ФЕ, связанная с источниками античной культуры, религии или другими известными источниками, переводится таким же образом.

4. Вторичный, параллельный перевод ФЕ, здесь в одной фразе (например, переведенная путем калькирования) по мере возможности соединяется краткое описание ФЕ и переносного значения.

5. Перевод-объяснение, то есть,трансформируя ФЕ на свободное словосочетание, даётся перевод устойчивого словосочетания.

Для студентов заучивание фразеологизмов часто представляется скучным или неинтересным процессом. Конечно, для этого требуется пробудить у них интерес к изучаемой сфере языка. Следовательно, к этому можно придти путем приведения примеров из литературы, пробуждения интереса с акцентированием на особенности перевода и таким образом достичь активности студентов на уроке. Следует обратить особое внимание на активизацию речи студентов на изучаемом языке. Для этого предлагаются следующие задания:

– составить предложения с данными фразами;

– заучивать эквиваленты данных словосочетаний на родном языке и обратить внимание на национальное своеобразие образной системы фразеологии;

– определить общее значение ФЕ в синонимическом ряду;

– перечислить ситуации, где можно применить фразы;

– охарактеризовать с помощью фраз свое (окружающих) поведение, характер.

Как видно, большой и красочный материал текста дает возможность, во-первых, в многочисленных примерах определить место фразеологических единиц в тексте, установить общие законы данного процесса, во-вторых, закрепить умения применения их в речи.

При выборе фразео-материала необходимо учитывать форму, содержание и особенности применения ФЕ, которые могут вызвать во многих случаях конкретные, но серьезные затруднения у говорящих на другом языке. Фразы считаются самостоятельными единицами языка, имеющими конкретное словарное значение, и вступают в определенные отношения с отдельными словами в предложении.

**Использованная литература:**

*1. Jalolov J.J. Chet tili ta’limida uzluksizlik: 7 yoshdan 70 yoshgacha… yohud chet til o’rgatishga zamonaviy munosabat // Chet tillarni o‘rgatish va o‘rgatishni takomillashtirish: Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – T.: TDPU, 2014. 9-14-b.*

*2. Jalolov J.J Chet tilini o’qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012.*

*3. Кокорин О.С. Развитие коммуникативной компетенции: исторический аспект, URL: http// aspirantura-olimpaida.narod.ru/ondex/0-85. (дата обращения 01.11.2015)*

*4. Сафанова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранному языку как специальности:Автореф.док.дисс. – М., 1993. – С.47.*

*5. Щукин А.Н. Методика обучения иностранным языкам. Учебное пособие. – 3-е изд., 2007.*

*6. The European Common Framework of Reference for languages: learning, teaching assessment. http://lang.mipt.ru/articles/european_levels.html.*

**Сунатулла АБДИРАСИЛОВ,**
преподаватель Ташкентского Государственного
педагогического университета имени Низами

# ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

**Аннотация**

Mazkur maqola talabalarning badiiy amaliy mashg'ulotlariga kompyuter texnologiyalarni tatbiq etish masalasiga bag'ishlangan. Muallif talabalarning tayyorgarlik darajasi sifatli bo'lishi uchun kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Kompyuter texnologiyasi, badiiy amaliy mashg'ulotlar, interaktiv doska, multimedia vositasi.

Данная статья посвящена внедрению компьютерных технологий в художественно-практические занятия студентов. Автором даны рекомендации по использованию возможностей компьютера для обеспечения качества подготовки студентов.

**Ключевые слова.** Компьютерная технология, художественно-практические занятия, интерактивный экран, мультимедийные средства.

Article is devoted to the introduction of computer technology in the artistic and practical classes of students. The author gives recommendations on the use of computer capabilities to ensure the quality of student training.

**Key words.** Computer technology, artistic and practical classes, interactive screen, multimedia.

На сегодняшний день система образования предъявляет новые требования к качеству организации педагогического процесса и уровню подготовки будущего учителя изобразительного искусства. Общеобразовательная школа постепенно перестраивается с процесса передачи знаний на систему всестороннего развития личности ребенка. Это результат перехода на новые стандарты образования, что невозможно без освоения современных информационных систем. Педагог является не только носителем информации, но и воспитателем, влияющим на развитие ребенка, на становление его как личности. Но личный пример педагога будет действенным для ученика лишь тогда, когда он по уровню своих способностей и знаний будет на голову выше своих учеников.

Сегодняшний обычный современный подросток на достаточном уровне владеет возможностями ориентироваться в пространстве, и делает это он намного лучше, чем среднестатистический учитель. В настоящее время студент или

школьник имеет такой же, а иногда и более широкий доступ к информации, чем его педагог. Поэтому актуальной задачей сегодня является повышения уровня компетентности учителя.

На эту проблему следует обратить особое внимание при подготовке будущих учителей изобразительного искусства, которые бы в совершенсте владели компьютерными технологиями использовали их в своей профессиональной деятельности.

В настоящее время в педагогических вузах практически на всех занятиях: будь то рисунок, живопись, черчение, методика преподавания или технология, педагогом используются компьютерные и информационные технологии. Обучение не мыслится без интернета, презентаций, электронной доски. Студенты становятся более требовательными, и, как следствие, учитель ищет новые подходы, новые пути к тому, как “научить их учиться”.

В обучении изобразительному искусству компьютерные технологии открывают огромные возможности. Информация, специально подобранная и обработанная посредством компьютерных технологий, отличается своей мобильностью и многоканальностью, позволяет эффективно воздействовать на мышление ученика. Такие учебные темы, как “Компьютерная графика на уроках изобразительного искусства”, “Разработка мультимедийных продуктов”, “Использование компьютерных технологий в методике преподавания изобразительного искусства” и др., позволяют будущим педагогам изобразительного искусства грамотно, профессионально осуществлять подбор необходимой информации, ее обработку и построение в виде учебного пособия, а также эффективно использовать ее в контексте современного урока.

Требование времени – повышение технического обеспечения урока. Будущий учитель изобразительного искусства должен успешно владеть информационными технологиями, мультимедийными средствами для того, чтобы наполнить урок наглядной информацией, доступной для детей, создающей определенный эмоциональный настрой и побуждать детей к учебной деятельности.

Педагогическая инновация – намеренное качественное или количественное изменение педагогической практики, повышение качества обучения. Очевидно, что невозможно решать педагогические проблемы устаревшими методами. Для решения этих задач в современной школе применяют многочисленные инновационные технологии:

- Метод проектов;
- Обучение в сотрудничестве;
- Дифференцированное обучение;
- Портфолио ученика;
- Модульное обучение и т.д.

Применение этих инноваций трудно представить без технологии мультимедиа. Появилась возможность совмещать теоретический и демонстрационный материал (слайды, фильмы, видеоролики, музыка, презентации к урокам). Так как уроки изобразительного искусства построены на зрительном ряде, использование возможностей мультимедийного оборудования облегчает подготовку учителя к уроку, где используется наглядность. Погрузиться в мир искусства, побывать в роли художника, дизайнера, архитектора, не требуя при этом материалов, которые порой детям не доступны. При этом надо учитывать, что компьютер не

может заменить учителя, а лишь дополняет его. Использование мультимедиа на уроке сначала воспринимается учащимися на уровне игры, постепенно вовлекая их в серьезную творческую работу, в которой и развивается личность учащегося.

В результате можно определить формы применения компьютера на уроках ИЗО:

- Как источник информации
- Поддержка учителя
- Организация проектной деятельности учащегося
- Использование графических программ, в качестве инструмента художественной деятельности.

Используя на учебных занятиях мультимедийные средства, педагог демонстрирует всевозможные варианты применения этих средств в обучении изобразительному искусству. Использование мультимедийных средств возможно практически во всех видах художественной деятельности. В практике работы преподавателей кафедры изобразительного искусства и методики его преподавания мультимедийные средства применяются на занятиях пластической анатомией, живописью, историей искусств и рисунком и др. В обучении изобразительному искусству компьютерные технологии направлены на развитие специальных колористических, конструктивных, изобразительных, композиционных, художественных способностей, активности, работоспособности, эмоционально-волевой активности личности, потребности к самовыражению.

И хотя основным наглядным средством обучения на занятиях остаётся педагогический рисунок на доске, именно преобразование классной доски "спровоцировало" изобретение интерактивной доски. Непосредственным касанием рук или специальных маркеров учитель имеет возможность выходить в интернет, демонстрировать видеоряд, рисовать и писать на доске поверх изображения, выведенного на интерфейс, и сохранять информацию в памяти компьютера. Интерактивный экран достаточно прост в работе и является непосредственным продолжением возможностей компьютера. Ученик и учитель могут непосредственно на экране решать любые задачи, в том числе и изобразительные (рисунки, наброски и зарисовки). В этом плане открывается большая возможность для анализа художественных произведений художников, а также непосредственного изображения на самом интерактивном экране или с помощью графического планшета. При этом появляется большая возможность выполнять на большом экране различного рода изображения, составлять композиции, выявлять и подчеркивать выразительность изображения. Интерактивная доска позволяет детям рисовать как в графике, так и в цвете, открывает возможность для коллективной работы. К сожалению, учитель сейчас недостаточно владеет современными технологиями и часто владеет компьютерной техникой несколько слабее, чем его ученики. Это создает определенное противоречие между требованиями, предъявляемыми к современной школе, и уровнем подготовки педагогического состава.

В современном информационном пространстве учитель не может быть просто носителем информации. Информация является одним из фундаментальных понятий современности и относится к разряду тех, которые имеют очень широкое употребление. Термин “информация” происходит от латинского слова “information”, что означает сведения, разъяснения, изложение. Обычно под информацией понимаются знания, сведения, данные, сообщения и сигналы, с

которыми мы имеем дело в повседневной жизни и проявление которых мы наблюдаем в природе и обществе. Значение средств информации в жизни современного общества трудно переоценить. Их воздействие на человека начинается в самом раннем возрасте и продолжается всю жизнь. Существует множество сайтов и образовательных программ, Интернет-образование; мультимедийные учебные курсы и уроки живописи, в том числе и идеи, противоречащих духовно-нравственным нормам и правилам нашего общества, чуждые национальному менталитету.

Подготовленные учебные материалы должны соответствовать принципу: “не навреди”. Поэтому подбор информации, ее обработка и построение в виде учебного пособия, а также использование в контексте современного урока требуют учета многих факторов, таких как: психофизические возрастные особенности школьников, педагогические принципы, современные педагогические технологии и достижения методики преподавания изобразительного искусства.

Компьютерные и интернет технологии дополняют диапазон используемых традиционных средств и методов педагогической работы.

Одна из задач художественного образования – разностороннее развитие личности, ее творческих способностей, навыков самообразования, создания условий для ее самореализации. Применение компьютерных технологий в преподавании изобразительного искусства раскрывает практическую значимость изучаемого материала, давая возможность студенту проявить оригинальность, фантазию и творческие способности.

Таким образом, на сегодняшний день компьютерные видеоматериалы широко внедряются в образовательный процесс. Студенты и профессорско-преподавательский состав с воодушевлением используют данные видеоматериалы, они являются достаточно эффективными, с их помощью повышается уровень преподавания и обучения.

## Использованная литература:

1. *Каримов И.А. На пути решительного продолжения дальнейшего процветания и модернизации страны. – Т.: Узбекистан, 2013. – С. 208.*

*2. Национальная программа по подготовке кадров. // Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. – Т.: Шарқ. 1997. – С. 63.*

*3. Кузин В.С. Психология: учеб. / 4-е изд., доп. - М.: АТАР, 1999. – С. 304.*

*4. Медведев Л.Г. Академический рисунок в процессе художественного образования : монография / – Омск: Наука, 2008. – С.289.*

*5. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. пед. вузов и системы повыш. квалиф. пед. кадров / Е. С. Полат [и др.] // Под ред. Е. С. Полат. – 2-е изд. , – М. : Издательский центр “Академия”, 2005. – С.272.*

*6. Сейтхалилов Э.А., Рахимов Б.Х., Маджидов И.У. Педагогический словарь-справочник / Под общ. ред. Б.Ю.Ходиева. – Т., 2011. – С.704.*

**Modul** – nazariy va amaliy kompetensiyalarni to‘liq o‘zida jamlagan, bir butun va tugallangan ta’lim mazmuni yaxlitligidir. Har bir modul birligi bir-biri bilan chambarchars bog‘lanib, ta’lim zanjirini hosil qiladi. Shuningdek, har bir modul birligi baholash orqali natijani belgilaydi.

**Ta’limni takomillashtirish** – bugungi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlarni inobatga olgan holda, ta’limning tashkiliy, mazmuniy, moddiy-texnik ta’minotini ta’lim xizmatlari iste’molchilari (davlat, jamiyat, ota-onalar, ta’lim oluvchilar va b.) talablariga to‘liq javob berishini ta’minlash yo‘nalishidir.

**Ta’limda innovatsiya** – ta’limning tashkiliy, mazmuniy, moddiy-texnik jihatdan va ta’lim iste’molchilari talablariga javob berishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tadqiqotlarning ijobiy natijalarini hamda ilmiy-texnikaviy yangiliklarni tezkorlik bilan kiritishdir.

**Pedagogik texnologiyalar** – davlat, jamiyat, ota-onalar va ta’lim oluvchilar istak va talablarini kafolatlangan tarzda ta’minlab berish uchun ta’limni tashkiliy-pedagogik asoslari, metodlari, uslublari, usullari, shakllari, vositalaridan samarali foydalanish jarayonidir.

**Ta’limda integratsiya** – ta’lim-tarbiya jarayoniga bugungi ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy taraqqiyot natijalarini qo‘shish, jamlash va moslashtirishdir.

**Lingvodidaktika** – ona tili, ikkinchi til va chet tillarni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, umumiy qonuniyatlari, o‘qitish obyektining o‘ziga xos jihatlari, til o‘qitish texnologiyalari jamlanmasidir.

**Axborot-kommunikativ kompetensiya** – zamonaviy axborot ta’lim muhitini yaratish, kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bilim, ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lish va uni amaliyotda qo‘llay olishdir.

**Bosh muharrir:**
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:**
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

**Mas’ul kotib:**
Tashxanov Nurbek Aybekovich

**Badiiy muharrir:**
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**Tahrir hay’ati:**
Ulug‘bek INOYATOV, Dilshod KENJAYEV, Risboy JO‘RAYEV, Hikmatilla RASHIDOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Namoz RO‘ZIQULOV, Gulnoza ANORKULOVA, Fayzulla AHMEDOV, Shavkat SHARIPOV,Maqsudjon YULDASHEV, Islom ZOKIROV, Alisher ZOKIROV, Hikmatilla DAMINOV

**Jamoatchilik kengashi:**
Baxtiyor DONIYOROV, Ulug‘bek ABRUYEV, Erkin ISKANDAROV, Bahodir SHAMSIYEV, Norbek TAYLAQOV, Abdusamat RAHIMOV, Muhammadjon QURONOV

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, 239-15-40. Faks: 239-27-11

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart. Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“MAKTUB PRINT” mas’uliyati cheklangan jamiyatida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy
Bosishga ruxsat etildi: 02.02.2018-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi 31 476 nusxa. - buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2018.